Ис газининг токсик таъсири асосан унинг гемоглобин билан кислородга нисбатан 200–300 марта юқори аффинитетга эга эканлиги билан изоҳланади. Натижада карбоксигемоглобин ҳосил бўлиб, тўқималарга кислород етказиб бериш кескин пасаяди ва тўқимавий гипоксия юзага келади [2,4]. Шу билан бирга, сўнгги тадқиқотлар ис газининг токсик таъсири фақат гипоксия билан чекланмасдан, ҳужайравий метаболизм, митохондриал нафас олиш занжири ва оксидатив мувозанатга бевосита таъсир кўрсатишини исботламоқда [1,3].

Ис гази таъсирида нафас олиш тизими, айниқса ўпка тўқимаси энг аввал ва энг оғир зарарланувчи аъзолардан бири ҳисобланади. Экспериментал тадқиқотларда ўпкада интерстициал шиш, альвеолар деворларнинг қалинлашиши, микроциркуляция бузилишлари ва яллиғланиш реакциялари кузатилиши кўрсатилган [5,6]. Бундан ташқари, маҳсулотлар ёниши натижасида ҳосил бўлган газлар ва аэрозоллар нафас йўлларига қўшимча пульмонотоксик таъсир кўрсатиб, патологик жараёнларни янада чуқурлаштиради [6,7].

Замонавий илмий қарашларга кўра, ис гази интоксикациясида ўпка шикастланишларининг патогенезида оксидатив стресс марказий ўрин тутади. Эркин радикаллар ҳосил бўлишининг кучайиши липидлар перекис оксидланиши, ҳужайра мембраналари шикастланиши ва митохондриал дисфункцияга олиб келади. Бу жараёнлар эса ўз навбатида апоптоз механизмларининг фаоллашуви билан якунланади [1,2]. Шу боис, ўпка тўқимасида кузатиладиган морфологик ўзгаришларни фақат механик ёки яллиғланиш реакциялари билан эмас, балки ҳужайравий ўлим жараёнлари билан боғлаб ўрганиш катта аҳамиятга эга.

Ҳозирги кунда ис гази билан заҳарланишни даволашда асосий эътибор гипербарик оксигенация, симптоматик ва реанимацион чора-тадбирларга қаратилган бўлса-да, бу усуллар ҳар доим ҳам ўпка тўқимасида юзага келган морфологик шикастланишларни тўлиқ бартараф этишга имкон бермайди [3,4]. Шу муносабат билан оксидатив стрессни камайтириш, ҳужайравий ҳимоя механизмларини фаоллаштириш ва тўқималарни қайта тиклашга қаратилган янгича комплекс даволаш усулларини ишлаб чиқиш долзарб вазифа бўлиб қолмоқда.

Юқорида келтирилган ҳолатларни инобатга олган ҳолда, сурункали ис гази интоксикациясида ўпка тўқимасида юзага келадиган морфологик ўзгаришларни чуқур экспериментал ўрганиш ҳамда уларни камайтиришга қаратилган комплекс даволаш усулларининг самарадорлигини баҳолаш муҳим илмий ва амалий аҳамиятга эга ҳисобланади.

Материаллар ва усуллар.

Тадқиқот дизайни ва экспериментал ҳайвонлар

Тадқиқот экспериментал-таққослама дизайнда ўтказилди. Экспериментлар виварий шароитида парваришланган оқ зотсиз каламушларда амалга оширилди. Тадқиқотга 3, 6, 9 ва 12 ойлик, жами 208 та урғочи каламуш жалб қилинди. Ҳайвонлар тадқиқот бошланишидан олдин 7 кун давомида карантин ва адаптациядан ўтказилиб, соматик ва юқумли касалликлар мавжуд эмаслиги тасдиқлангандан сўнг экспериментга киритилди. Барча ҳайвонлар стандарт виварий шароитида (ҳарорат 22–24 °C, 12 соатлик ёруғлик-қоронғулик режими) сақланди. Экспериментлар ҳайвонлар билан ишлаш бўйича биоэтика қоидаларига мувофиқ ўтказилди.

Сурункали ис гази интоксикациясини моделлаштириш

Сурункали ис гази интоксикацияси махсус жиҳозланган герметик металл камераларда моделлаштирилди. Тажриба гуруҳидаги каламушлар ҳаво таркибида ис гази концентрацияси 0,01–0,05 мг/л бўлган шароитда 2 ой давомида таъсирга дучор этилди. Ис гази белгиланган дозада белгиланган вақт оралиқларида камерага киритилиб турилди. Назорат гуруҳидаги ҳайвонлар ис гази таъсирисиз, одатий шароитда сақланди. Эксперимент давомида ҳайвонларнинг умумий ҳолати, фаоллиги ва физиологик реакциялари мунтазам кузатиб борилди.

Экспериментал гуруҳлар

Экспериментнинг биринчи босқичида каламушлар назорат гуруҳи ва сурункали ис гази таъсирига учраган гуруҳларга ажратилди. Ис гази билан сурункали захарланган ҳайвонлар иккинчи босқичда қуйидаги гуруҳларга тақсимланди:

-даволанмаган сурункали ис гази гуруҳи;

-сурункали ис гази таъсири фонида гулимансар ўсимлиги дамламаси қабул қилган гуруҳ;

-сурункали ис гази таъсири фонида қушқўнмас ўсимлиги мойи қабул қилган гуруҳ.Даволовчи воситалар интрагастрал усулда, ошқозон метал зонди орқали 14 кун давомида қўлланилди. Назорат гуруҳи каламушларига шу муддатда дистилланган сув берилди.

Морфологик тадқиқот усуллари

Эксперимент якунида ҳайвонлар стандарт эвтаназия усулида чиқарилди. Упка тўқималари олиниб, 10 % нейтрал формалин эритмасида фиксация қилинди. Кейинчалик материаллар стандарт гистологик ишловдан ўтказилиб, парафин блоклар тайёрланди. Қалинлиги 5–7 мкм бўлган кесмалар микротом ёрдамида олинди ва морфологик таҳлил учун тайёрланди.

Гистологик бўяш усуллари

Упка тўқимасининг умумий морфологик тузилишини баҳолаш мақсадида гистологик кесмалар гемотоксилин–эозин усулида бўялди. Бириктирувчи тўқима элементлари ва коллаген толаларининг ҳолатини аниқлаш учун Ван–Гизон бўёғи қўлланилди. Ушбу бўяш усуллари ўпка тўқимасидаги морфологик ва патоморфологик ўзгаришларни аниқ визуализация қилиш имконини берди.


Микроскопик ва морфометрик таҳлил

Тайёрланган препаратлар ёруғлик микроскопида Об. 10×40 (умумий катталаштириш ×400) да ўрганилди. Микроскопик таҳлил жараёнида альвеолаларнинг шакли ва ўлчамлари, альвеолар девор қалинлиги, интерстициал шиш даражаси, қон томирлар тўлақонлиги ҳамда альвеолар эпителий ҳужайраларида апоптозга хос морфологик белгилар баҳоланди. Морфометрик кўрсаткичлар рақамли тасвир таҳлили усуллари ёрдамида ҳисоблаб чиқилди. Олинган маълумотлар статистик ишловдан ўтказилиб, фарқлар $p < 0,05$ даражасида ишончли деб қабул қилинди.

Натижалар.

Ўтказилган экспериментал тадқиқотлар сурункали ис гази интоксикацияси ўпка тўқимасида яққол морфологик ва морфометрик ўзгаришларни келтириб чиқаришини ҳамда янгича комплекс даволаш усули ушбу шикастланишларни сезиларли даражада камайтиришини кўрсатди.

Назорат гуруҳи каламушларининг ўпка тўқимасида альвеолар архитектура сақланган бўлиб, альвеолалар шакли бир хил, ҳаво бўшлиқлари очиқ ҳолда кузатилди. Альвеолар деворлар юпқа, интерстициал тўқимада шиш ва яллиғланиш белгилари аниқланмади. Қон томирларида тўлақонлик кузатилмади, альвеолар эпителий ҳужайраларида апоптозга хос морфологик белгилар қайд этилмади (1-расм).



1-расм. **Сурункали ис гази интоксикациясида ўпка тўқимасининг морфологик ҳолати ва янгича комплекс даволаш усули таъсири. Оқ зотсиз каламушлар ўпка тўқимасининг микроскопик кўриниши.А-назорат гуруҳи (3 ойлик каламуш): альвеолар архитектура сақланган, альвеолар деворлар юпқа. Б -сурункали ис гази таъсири (6 ойлик каламуш): альвеолаларнинг нотекис кенгайиши, альвеолар деворларнинг қалинлашиши, интерстициал шиш, микроциркуляция бузилишлари ва апоптоз белгилари. В-сурункали ис гази таъсири фонида гулимансар ўсимлиги дамламаси билан даволанган гуруҳ (9 ойлик каламуш): морфологик шикастланишлар қисман камайган, интерстициал шиш ва апоптоз белгилари чекланган. Г-сурункали ис гази таъсири фонида қушқўнмас ўсимлиги мойи қўлланилган гуруҳ (12 ойлик каламуш): альвеолар девор қалинлиги камайган, ўпка тўқимасининг морфологик архитектураси қисман тикланган. Гемотоксилин–эозин. Катталиги: Об. 10×40 (×400). Масштаб чизиғи — 50 мкм.**

Сурункали ис гази таъсирига учраган, даволанмаган гуруҳда ўпка тўқимасидаги ўзгаришлар комплекс характер касб этди. Альвеолаларнинг нотекис кенгайиши ва айрим участкаларда қўшилиб кетиши кузатилди. Альвеолар девор қалинлиги назорат гуруҳига нисбатан 1,8 мартага ошган, интерстициал шиш майдони эса 5,3 ± 0,5 % дан 18,1 ± 1,2 % гача кенгайгани аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал.

Сурункали ис гази интоксикацияси ва комплекс даволаш таъсирида ўпка тўқимасининг морфометрик кўрсаткичлари (M ± m)

№	Кўрсаткичлар	Назорат гуруҳи	CO интоксикация (даволашсиз)	Гулимансар билан даволаш	Комплекс даволаш (гулимансар + қушқўнмас)
1	Альвеолалар ўртача диаметри (мкм)	45,2 ± 2,1	75,4 ± 3,6*	58,7 ± 2,9*	50,8 ± 2,4
2	Альвеолар девор қалинлиги (мкм)	9,1 ± 0,4	16,2 ± 0,7*	12,4 ± 0,6*	10,3 ± 0,5
3	Интерстициал шиш майдони (%)	5,3 ± 0,5	18,1 ± 1,2*	10,7 ± 0,8*	7,9 ± 0,6
4	Қон томир тўлақонлиги индекси (ш.б.)	1,1 ± 0,1	2,7 ± 0,2*	1,8 ± 0,1*	1,3 ± 0,1


Юқоридаги жадвалда кўриниб турибдики, сурункали ис гази интоксикацияси ўпка тўқимасининг асосий морфометрик кўрсаткичларида яққол патологик ўзгаришларга олиб келган. Хусусан, альвеолаларнинг ўртача диаметри назорат гуруҳида 45,2 ± 2,1 мкм ни ташкил этган бўлса, сурункали ис гази таъсирида бу кўрсаткич 75,4 ± 3,6 мкм гача ошиб, 1,6–1,7 мартага катталашгани аниқланди. Бу ҳолат альвеолар архитектурасининг бузилиши ва газ алмашинуви самарадорлигининг пасайиши билан боғлиқ эканлигини кўрсатади.

Альвеолар девор қалинлиги ҳам назорат гуруҳига нисбатан сезиларли даражада ошган бўлиб, 9,1 ± 0,4 мкм дан 16,2 ± 0,7 мкм гача етган, яъни тахминан 1,8 мартага кўпайган. Шу билан бирга, интерстициал шиш майдони 5,3 ± 0,5 % дан 18,1 ± 1,2 % гача кенгайгани қайд этилди. Қон томир тўлақонлиги индекси ҳам 1,1 ± 0,1 шартли бирликдан 2,7 ± 0,2 шартли бирликкача ошган бўлиб, бу микроциркуляция бузилишларининг кучайганини англатади.

Гулимансар ўсимлиги дамламаси билан даволаш қўлланилган гуруҳда морфометрик кўрсаткичларнинг сурункали интоксикация гуруҳига нисбатан ишончли даражада пасайгани кузатилди. Альвеолалар диаметри 58,7 ± 2,9 мкм, альвеолар девор қалинлиги 12,4 ± 0,6 мкм, интерстициал шиш майдони эса 10,7 ± 0,8 % ни ташкил этди, бу эса патологик ўзгаришларнинг қисман чекланганини кўрсатади.

Энг ижобий морфометрик натижалар комплекс даволаш (гулимансар + қушқўнмас) қўлланилган гуруҳда қайд этилди. Ушбу гуруҳда альвеолалар диаметри 50,8 ± 2,4 мкм, альвеолар девор қалинлиги 10,3 ± 0,5 мкм, интерстициал шиш майдони 7,9 ± 0,6 %, қон томир тўлақонлиги индекси эса 1,3 ± 0,1 шартли бирликкача пасайган. Бу кўрсаткичлар назорат гуруҳи қийматларига яқинлашиб, янгича комплекс даволаш усули сурункали ис гази интоксикациясида ўпка тўқимасининг морфологик шикастланишларини самарали равишда камайтиришини исботлайди.

Қон томирлар тўлақонлиги индекси 1,1 ± 0,1 дан 2,7 ± 0,2 шартли бирлик гача ошди. Ушбу морфологик ўзгаришлар микроциркуляция бузилишлари ва тўқимавий гипоксиянинг кучайиши билан боғлиқ эканлиги аниқланди (2-расм).



2-расм. Сурункали ис гази интоксикацияси таъсиридаги оқ зотсиз 6 ойлик каламуш ўпкасининг микроскопик кўриниши.Бўёқ: гемотоксилин–эозин. Катталиги: Об. 10×40 (×400). Расмда қуйидаги морфологик тузилмалар аниқланади:1- кенгайган ва деформацияланган альвеолалар (ҳаво бўш жойлари);2-қалинлашган альвеолар деворлар (интерстициал шиш билан); 3-апоптозга учраган альвеолар эпителий ҳужайралари (ядро пикнози); 4-хроматин конденсацияси билан ўзгарган ядролар; 5-тўлақон капиллярлар (эритроцитлар жамланган майдонлар).

3-расм. Қушқўнмас ўсимлиги мойи қўлланилган комплекс даволаш фонида сурункали ис гази интоксикациясидаги оқ зотсиз 12 ойлик каламуш ўпкасининг микроскопик кўриниши. Бўёқ: гемотоксилин–эозин. Катталиги: Об. 10×40 (×400). 1-нисбатан меъёрлашган альвеолалар; 2 қалинлиги камайган альвеолар деворлар; 3-микроциркуляцияси яхшиланган капиллярлар; 4 - структураси сақланган альвеолар эпителий ҳужайралари; 5 -чекланган интерстициал тўқима, апоптоз белгилари минимал.

Альвеолар эпителий ҳужайраларида апоптозга хос морфологик белгилар — ядро пикнози, хроматин конденсацияси ва цитоплазматик вакуолизация яққол намоён бўлди. Апоптоз белгилари кузатилган ҳужайралар улуши назорат гуруҳида 5,1 ± 0,6 % ни ташкил этган бўлса, сурункали ис гази таъсирида 29,8 ± 1,9 % гача ошгани аниқланди (2-жадвал).

2-жадвал.

Сурункали ис гази интоксикацияси ва комплекс даволаш таъсирида ўпка тўқимасида апоптоз белгилари (M ± m)

№	Кўрсаткичлар	Назорат гуруҳи	CO интоксикация (даволашсиз)	Гулимансар билан даволаш	Комплекс даволаш (гулимансар + қушқўнмас)
1	Апоптоз белгиларига эга ҳужайралар улуши (%)	5,1 ± 0,6	29,8 ± 1,9*	16,2 ± 1,3*	10,4 ± 0,9
2	Ядро пикнози кузатилган ҳужайралар (%)	3,4 ± 0,4	22,6 ± 1,5*	12,1 ± 1,0*	7,8 ± 0,7
3	Хроматин конденсацияси (%)	2,9 ± 0,3	19,4 ± 1,4*	10,8 ± 0,9*	6,9 ± 0,6
4	Цитоплазматик вакуолизация (%)	4,2 ± 0,5	24,1 ± 1,6*	13,5 ± 1,1*	8,6 ± 0,8

Юқоридаги жадвалда кўриниб турибдики, сурункали ис гази интоксикацияси ўпка тўқимасида апоптоз жараёнларининг сезиларли даражада фаоллашувига олиб келган. Хусусан, апоптоз белгиларига эга ҳужайралар улуши назорат гуруҳида 5,1 ± 0,6 % ни ташкил этган бўлса, сурункали ис гази таъсирида бу кўрсаткич 29,8 ± 1,9 % гача ошгани аниқланди, яъни деярли 6 мартага кўпайган.

Ядро пикнози ва хроматин конденсацияси кузатилган ҳужайралар улуши ҳам назорат гуруҳига нисбатан ишончли даражада ортиб, мос равишда 22,6 ± 1,5 % ва 19,4 ± 1,4 % ни ташкил этди. Цитоплазматик вакуолизация белгилари ҳам сурункали интоксикация гуруҳида яққол намоён бўлиб, бу ҳолат ҳужайра мембраналари шикастланиши ва метаболик бузилишлар кучайганини кўрсатади.

Гулимансар ўсимлиги дамламаси билан даволаш қўлланилган гуруҳда апоптозга хос морфологик белгиларнинг сурункали интоксикация гуруҳига нисбатан ишончли даражада камайгани қайд этилди. Апоптоз белгиларига эга ҳужайралар улуши 16,2 ± 1,3 % гача пасайиб, ядро пикнози ва хроматин конденсацияси кўрсаткичлари ҳам сезиларли даражада камайди.

Энг ижобий натижалар комплекс даволаш (гулимансар + қушқўнмас) қўлланилган гуруҳда аниқланди. Ушбу гуруҳда апоптоз белгиларига эга ҳужайралар улуши 10,4 ± 0,9 % ни ташкил этиб, сурункали интоксикация гуруҳига нисбатан 2,8–2,9 мартага кам эканлиги исботланди. Бу ҳолат янгича комплекс даволаш усули сурункали ис гази интоксикациясида ўпка тўқимасида апоптоз жараёнларини самарали чеклашини кўрсатади.

Гулимансар ўсимлиги дамламаси билан даволанган гуруҳда ўпка тўқимасидаги патологик ўзгаришлар маълум даражада камайди. Альвеолаларнинг ўртача диаметри ва альвеолар девор қалинлиги сурункали интоксикация гуруҳига нисбатан ишончли даражада қисқарди. Интерстициал шиш майдони 10,7 ± 0,8 % гача камайиб, апоптоз белгиларига эга ҳужайралар улуши 16,2 ± 1,3 % ни ташкил этди ($p<0,05$).

Қушқўнмас ўсимлиги мойи қўлланилган гуруҳда комплекс даволашнинг самарадорлиги янада яққол намоён бўлди. Альвеолар девор қалинлиги назорат гуруҳи кўрсаткичларига яқинлашди, интерстициал шиш майдони 7,9 ± 0,6 % гача пасайди. Апоптоз белгилари кузатилган ҳужайралар улуши 10,4 ± 0,9 % ни ташкил этиб, сурункали интоксикация гуруҳига нисбатан деярли 2,9 мартага кам эканлиги аниқланди ($p<0,05$). Микроскопик таҳлиллар ўпка тўқимасининг морфологик архитектураси қисман тикланганини тасдиқлади (3-расм).

Муҳокама.

Олиб борилган экспериментал тадқиқот натижалари сурункали ис гази интоксикацияси ўпка тўқимасида чуқур морфологик қайта қурилишларни келтириб чиқаришини ҳамда мазкур шикастланишлар патогенезида оксидатив стресс ва апоптоз жараёнлари марказий ўрин тутишини кўрсатди. Олинган маълумотлар сурункали интоксикацияда ўпка паренхимасида ривожланадиган ўзгаришлар нафақат гипоксия билан, балки ҳужайравий ва субҳужайравий механизмлар билан ҳам боғлиқ эканлигини тасдиқлайди.

Сурункали ис гази таъсири натижасида альвеолаларнинг нотекис кенгайиши, альвеолар деворларнинг қалинлашиши ва интерстициал шишнинг кучайиши қайд этилди. Ушбу ўзгаришлар қон томирлар тўлақонлиги индекси ошиши билан бирга кечиб, микроциркуляция бузилишларининг ривожланганини кўрсатди. Қон айланиш тизимидаги ушбу ўзгаришлар тўқимавий гипоксияни янада чуқурлаштириб, ўпка тўқимасида морфологик деструкция жараёнларининг кучайишига шароит яратади.

Тадқиқот давомида альвеолар эпителий ҳужайраларида апоптозга хос морфологик белгилар — ядро пикнози, хроматин конденсацияси ва цитоплазматик вакуолизациянинг яққол намоён бўлиши сурункали ис гази таъсирида ҳужайравий ўлим механизмлари фаоллашганини кўрсатади. Апоптоз жараёнларининг кучайиши, эҳтимол, митохондриал дисфункция ва эркин радикаллар ҳосил бўлишининг ортиши билан боғлиқ бўлиб, бу ҳолат оксидатив стрессни патогенетик занжирнинг асосий бўғини сифатида қарашга имкон беради.

Ван–Гизон бўёғи билан олинган натижаларда бириктирувчи тўқиманинг ўсиши ва коллаген толаларининг кўпайиши кузатилиши сурункали интоксикация шароитида ўпка тўқимасида фиброз жараёнларининг бошланишини англатади. Бу эса ўпканинг эластик хусусиятларини пасайтиради ва газ алмашинуви самарадорлигини янада чеклайди. Адабиёт маълумотларида ҳам ис гази таъсирида ўпка тўқимасидаги ушбу морфологик ўзгаришлар қайд этилган бўлиб, олинган натижалар улар билан уйғунлик касб этади.

Гулимансар ўсимлиги дамламаси билан даволаш қўлланилган гуруҳда морфологик шикастланишларнинг қисман чекланган, апоптоз белгилари улушининг камайиши ушбу воситанинг антиоксидант хусусиятлари билан боғлиқ эканлигини кўрсатади. Бироқ, энг яққол ижобий

морфологик ўзгаришлар қушқўнмас ўсимлиги мойи қўлланилган комплекс даволаш гуруҳида қайд этилди. Ушбу гуруҳда альвеолар девор қалинлигининг назорат қийматларига яқинлашиши, интерстициал шишнинг сезиларли камайиши ва апоптоз жараёнларининг чекланиши комплекс даволаш усулининг юқори самарадорлигини кўрсатади.

Микроскопик таҳлилларда комплекс даволаш фонида ўпка тўқимасининг морфологик архитектураси қисман тикланган, альвеолар эпителий ҳужайраларининг структураси яхшиланган аниқланди. Бу ҳолат янгича комплекс даволаш усули сурункали ис гази интоксикациясида нафақат симптоматик, балки патогенетик таъсирга эга эканлигини кўрсатади.

Олинган натижалар сурункали ис гази интоксикациясида ўпка морфологик шикастланишларининг ривожланишида оксидатив стресс, микроциркуляция бузилишлари ва апоптоз ўзаро боғлиқ механизмлар эканлигини ҳамда уларни камайтиришда янгича комплекс даволаш усули самарали эканлигини илмий жиҳатдан асослаб беради. Ушбу ёндашув сурункали интоксикацияларда ўпка шикастланишларини олдини олиш ва даволашда истиқболли ҳисобланади.

Хулоса.

1. Сурункали ис гази интоксикацияси оқ зотсиз каламушлар ўпка тўқимасида яққол морфологик шикастланишларни келтириб чиқарди. Хусусан, альвеолаларнинг ўртача диаметри назорат гуруҳида 45,2 ± 2,1 мкм бўлган бўлса, сурункали интоксикация гуруҳида 75,4 ± 3,6 мкм гача ошгани аниқланди, яъни 1,67 мартага катталашган ($p<0,05$).

2. Микроциркуляция бузилишлари ва интерстициал шиш сурункали ис гази таъсирида сезиларли даражада кучайди. Қон томирлар тўлақонлиги индекси 1,1 ± 0,1 шартли бирликдан 2,7 ± 0,2 шартли бирликкача ошди, интерстициал шиш майдони эса 5,3 ± 0,5 % дан 18,1 ± 1,2 % гача кенгайди, бу эса тўқимавий гипоксиянинг кучайганини кўрсатади ($p<0,05$).

3. Янгича комплекс даволаш (гулимансар дамламаси ва қушқўнмас ўсимлиги мойи) ўпка тўқимасида апоптоз жараёнларини самарали камайтирди. Апоптоз белгилари кузатилган альвеолар эпителий ҳужайралари улуши сурункали интоксикация гуруҳида 29,8 ± 1,9 % ни ташкил этган бўлса, комплекс даволаш гуруҳида 10,4 ± 0,9 % гача пасайиб, деярли 2,9 мартага камайгани аниқланди ($p<0,05$).

АДАБИЁТЛАР

1. Гребенюк А. Н., Быков В. Н. Оксид углерода: современные подходы к лечению острых отравлений (обзор литературы) //Токсикологический вестник. – 2021. – Т. 29. – №. 5. – С. 17-24.

2. Гребенюк А. Н., Быков В. Н. Оксид углерода: механизм токсического действия, патогенез и клинические проявления острой интоксикации //Токсикологический вестник. – 2021. – Т. 29. – №. 3. – С. 4-9.

3. Акалаев Р. Н., Стопницкий А. А. Оптимизация лечения острых отравлений угарным газом //Общая реаниматология. – 2012. – Т. 8. – №. 3. – С. 42-44.

4. Зобнин Ю. В. и др. Федеральные клинические рекомендации: Токсическое действие окиси углерода. Утвержденны Межрегиональной благотворительной общественной организацией «Ассоциация клинических токсикологов» ФГБУ «Научнопрактический токсикологический центр ФМБА России. – 2013.

5. Литвинова Д. Т., Чайкина М. А., Сизов А. С. Экспериментальная модель острого поражения легких у лабораторных животных при интоксикации продуктами пиролиза фторопластов //Известия Российской Военно-медицинской академии. – 2019. – Т. 1. – №. S1. – С. 257-260.

6. Тришкин Д. В. и др. Пульмонотоксичность продуктов горения синтетических полимеров //Сибирский научный медицинский журнал. – 2018. – Т. 38. – №. 4. – С. 114-120.

7. Литвинова Д. Т., Лопатько В. С., Потехина Е. Н. Изучение воздействия продуктов горения хлорированного парафина на дыхательную систему лабораторных животных //Известия Российской военно-медицинской академии. – 2018. – Т. 37. – №. 1 S1-1. – С. 400-403.

SENSITIVITY, SPECIFICITY, AND PROGNOSTIC EFFICACY INDICATORS OF THE EXAMINED POLYMORPHISMS IN THE PATIENTS WITH NECROTIC PROCESS OF MAXILLOFACIAL REGION FOR RISK-INCREASING ALLELES

Boymuradov Shukhrat Abdujalilovich – D.M.Sc., professor
Kurbanov Yokubjon Khamdamovich – Ph.D., associate professor
Narmurotov Bakhtiyor Karshiyevich – Ph.D., associate professor
Djurayev Jamolbek Abdukakharovich – D.M.Sc., professor
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *Genetic polymorphisms, particularly single nucleotide polymorphisms (SNPs), play an important role in determining individual susceptibility to disease, clinical progression, and treatment outcomes. This review summarizes current evidence on the sensitivity, specificity, and prognostic efficacy of examined polymorphisms in patient groups carrying risk-increasing alleles. The literature indicates that while many polymorphisms show statistically significant associations with disease risk and prognosis, their individual diagnostic performance is often limited due to modest effect sizes and population heterogeneity. Variations in genetic background, environmental factors, and study design further influence the predictive value of specific alleles. Recent approaches focusing on the combined analysis of multiple polymorphisms, including polygenic risk scores, demonstrate improved sensitivity and specificity compared with single-marker analyses. Integration of genetic data with clinical and demographic variables appears essential for enhancing prognostic accuracy. Overall, the findings highlight both the potential and the limitations of genetic polymorphisms as prognostic biomarkers and underscore the need for large, population-specific studies to support their application in personalized medicine.*

Keywords: *genetic polymorphisms; sensitivity and specificity; prognostic efficacy; risk-increasing alleles; polygenic risk assessment.*

YUZ-JAG‘ SOHASIDA NEKROTIK JARAYONLAR BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA XAVFNI OSHIRUVCHI ALLELLAR UCHUN O‘RGANILGAN POLIMORFIZMLARNING SEZUVCHANLIK, SPETSIFIKLIK VA PROGNOSTIK SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARI

Boymuradov Shuxrat Abdujalilovich – t.f.d., professor
Kurbanov Yoqubjon Xamdamovich – t.f.n., dotsent
Narmurotov Baxtiyor Karshiyevich – t.f.n., dotsent
Djurayev Jamolbek Abdukaxarovich – t.f.d., professor
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Genetik polimorfizmlar, xususan bir nukleotidli polimorfizmlar (SNP), kasalliklarga individual moyillikni, klinik kechish xususiyatlarini hamda davolash natijalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sharhda xavfni oshiruvchi allellar tashuvchisi bo‘lgan bemorlar guruhlarida o‘rganilgan polimorfizmlarning sezuvchanlik, spetsifiklik va prognostik samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha zamonaviy ilmiy ma’lumotlar umumlashtirilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab polimorfizmlar kasallik xavfi va prognozi bilan statistik jihatdan ishonchli bog‘liqlikka ega bo‘lishiga qaramay, ularning alohida holdagi diagnostik qiymati ko‘pincha ta’sir kuchining nisbatan pastligi va populyatsiyalar heterogenligi bilan cheklanadi. Genetik fonning farqlanishi, atrof-muhit omillari hamda tadqiqot dizayni xususiyatlari alohida allellarning prognoz qiymatiga qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatadi. Bir nechta polimorfizmlarni kompleks tahlil qilishga asoslangan zamonaviy yondashuvlar, jumladan poligen xavf ballari, yagona markerlar tahliliga nisbatan yuqoriroq sezuvchanlik va spetsifiklik ko‘rsatkichlarini namoyon etmoqda. Genetik ma’lumotlarni klinik va demografik ko‘rsatkichlar bilan integratsiya qilish prognoz aniqligini oshirishda muhim hisoblanadi. Umuman olganda, olingan natijalar genetik polimorfizmlarning prognostik biomarker sifatidagi imkoniyatlari bilan bir qatorda ularning cheklovlarini ham ko‘rsatadi hamda ularni shaxsiylashtirilgan tibbiyotda qo‘llashni asoslash uchun yirik, populyatsiyaga xos tadqiqotlar zarurligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *genetik polimorfizmlar, sezuvchanlik va spetsifiklik, prognostik samaradorlik, xavfni oshiruvchi allellar, poligen xavfni baholash.*

ПОКАЗАТЕЛИ ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ, СПЕЦИФИЧНОСТИ И ПРОГНОСТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИССЛЕДОВАННЫХ ПОЛИМОРФИЗМОВ У ПАЦИЕНТОВ С НЕКРОТИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ОБЛАСТИ ДЛЯ АЛЛЕЛЕЙ, ПОВЫШАЮЩИХ РИСК

Боймурадов Шухрат Абдужалилович – д.м.н., профессор
Курбанов Ёкубжон Хамдамович – к.м.н., доцент
Нармуротов Бахтиёр Каршиевич – к.м.н., доцент
Джураев Жамолбек Абдукахарович – д.м.н., профессор
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Генетические полиморфизмы, в частности однонуклеотидные полиморфизмы (SNP), играют важную роль в определении индивидуальной предрасположенности к заболеваниям, особенностей клинического течения и эффективности лечения. В данном обзоре обобщены современные данные о чувствительности, специфичности и прогностической эффективности исследованных полиморфизмов в группах пациентов — носителей аллелей, повышающих риск развития заболевания. Анализ литературы показывает, что, несмотря на статистически значимые ассоциации многих полиморфизмов с риском заболевания и прогнозом, их индивидуальная диагностическая ценность часто ограничена вследствие умеренных размеров эффекта и гетерогенности популяций. Различия в генетическом фоне, воздействие факторов окружающей среды и особенности дизайна исследований дополнительно влияют на прогностическую значимость отдельных аллелей. Современные подходы, основанные на комбинированном анализе нескольких полиморфизмов, включая полигенные шкалы риска, демонстрируют более высокие показатели чувствительности и специфичности по сравнению с анализом одиночных маркеров. Интеграция генетических данных с клиническими и демографическими характеристиками является необходимым условием повышения точности прогноза. В целом полученные данные подчеркивают как потенциал, так и ограничения генетических полиморфизмов в качестве прогностических биомаркеров и указывают на необходимость проведения масштабных, популяционно-специфичных исследований для обоснования их применения в персонализированной медицине.*

Ключевые слова: *генетические полиморфизмы, чувствительность и специфичность, прогностическая эффективность, аллели повышенного риска, полигенная оценка риска.*

Introduction. Genetic polymorphisms, particularly single nucleotide polymorphisms (SNPs), have been extensively investigated as potential biomarkers for disease susceptibility, prognosis, and therapeutic response. In recent years, increasing attention has been paid to evaluating the sensitivity, specificity, and prognostic efficacy of risk-increasing alleles in different patient groups, as these indicators determine the clinical applicability of genetic markers [1,2]. Sensitivity reflects the ability of a polymorphism to correctly identify individuals at high risk, whereas specificity indicates its capacity to exclude individuals without increased susceptibility [3].

Numerous studies have demonstrated that polymorphisms in genes involved in DNA repair, inflammation, apoptosis, and drug metabolism are associated with disease progression and clinical outcomes [4,5]. For example, variants in DNA repair genes such as XRCC1, ERCC1, and BRCA1 have been linked to altered treatment response and survival in cancer patients [6,7]. However, while statistically significant associations are often reported, the sensitivity of individual polymorphisms is frequently limited, as many risk alleles contribute only modestly to overall disease risk [8].

The specificity of examined polymorphisms also varies considerably across populations. Ethnic background, linkage disequilibrium patterns, and environmental exposures may influence genotype–phenotype relationships, leading to inconsistent results between studies [9]. As a result, a polymorphism that demonstrates high prognostic value in one population may show reduced specificity in another, limiting its generalizability [10]. This variability highlights the importance of population-specific validation when assessing genetic risk markers.

To improve prognostic efficacy, recent research has shifted toward combining multiple polymorphisms into polygenic risk scores (PRS). These composite indicators have been shown to enhance both sensitivity and specificity compared to single SNP analyses [11]. In several disease models, PRS based on risk-increasing alleles demonstrated improved prediction of disease progression, recurrence, and mortality, suggesting greater clinical relevance [12]. Nonetheless, the prognostic performance of such models still depends on careful selection of polymorphisms and integration with clinical and demographic variables.

Overall, the literature suggests that while individual polymorphisms may serve as statistically significant risk indicators, their standalone sensitivity and specificity are often insufficient for reliable clinical decision-making. The prognostic efficacy of genetic markers improves when multiple risk alleles are evaluated simultaneously and combined with traditional clinical parameters [1,5]. Future studies should focus on large, well-characterized cohorts and standardized analytical approaches to refine the predictive accuracy of genetic polymorphisms. Such efforts are essential for translating genetic risk assessment into effective tools for personalized medicine and patient stratification.

Results.

Furthermore, one of the main objectives of studying the gene polymorphisms in this research was to reduce the incidence of disease in patients

with a high predisposition to necrotic changes in the maxillofacial area induced by various etiological factors. This could be achieved through specific preventive and therapeutic interventions. To this end, the prognostic efficiency (AUC) of all analyzed molecular genetic markers was studied both independently (Table 1) and in gene–gene syntropic interactions to predict the development of necrotic changes in the maxillofacial area due to specific etiological causes.

1-Table.

Sensitivity, specificity, and prognostic efficacy indicators of the examined polymorphisms in the patient groups for risk-increasing alleles

SNP type	Allele	Groups	SE	SP	AUC	OR	95%CI	p
IL10 rs1800872	A	First group// Control group	0.52	0.59	0.55	1.54	0.93-2.58	0.093
		Second group// Control group	0.58	0.59	0.58	1.96	1.17-3.27	0.010
		Third group// Control group	0.43	0.59	0.51	1.10	0.664-1.85	0.695
SERPINE1 rs1799768	4G	First group// Control group	0.63	0.53	0.583	1.94	1.17-3.31	0.01
		Second group// Control group	0.48	0.53	0.508	1.07	0.644-1.77	0.79
		Third group// Control group	0.64	0.53	0.59	2.05	1.22-3.43	0.007
NOS3 rs2070744	C	First group// Control group	0.41	0.77	0.59	2.37	1.35-4.17	0.003
		Second group// Control group	0.29	0.77	0.49	0.90	0.490-1.67	0.755
		Third group// Control group	0.32	0.77	0.545	1.59	0.897-2.84	0.111
IL1β rs1143627	T	First group// Control group	0.51	0.72	0.583	1.99	1.18-3.35	0.01
		Second group// Control group	0.63	0.72	0.645	3.33	1.96-5.65	<0.001
		Third group// Control group	0.41	0.72	0.53	1.33	0.787-2.24	0.287

As shown in Table 4.9, according to the results presented in the Table, for the IL10 gene rs1800872 polymorphism, in the first group (patients with post-COVID related necrotic changes in the face-jaw area) AUC – 0.55, sensitivity (SE) – 0.52, and specificity (SP) – 0.59 were recorded, while in the second group (patients with granulomatous polyangiitis-related necrotic changes in the face-jaw area) these indicators were respectively AUC – 0.58, SE – 0.58, and SP – 0.59. In the third group (patients with chronic renal failure-related necrotic changes in the face-jaw area), the prognostic efficiency was low, with AUC – 0.51, SE – 0.43, and SP – 0.59. For the SERPINE1 gene rs1799768 (4G allele) polymorphism, in the first group AUC – 0.583, SE – 0.63, and SP – 0.53 were recorded, while in the second group AUC – 0.508, SE – 0.48, and SP – 0.53 were noted. In the third group, AUC – 0.59, SE – 0.64, and SP – 0.53 were observed. For the NOS3 gene rs2070744 polymorphism, in the first group prognostic efficiency was AUC – 0.59, sensitivity – 0.41, and specificity – 0.77. In the second group, AUC – 0.49, SE – 0.29, and SP – 0.77 were recorded, while in the third group AUC – 0.545, SE – 0.32, and SP – 0.77 were noted. For the IL1β gene rs1143627 polymorphism, in the first group AUC – 0.583, SE – 0.51, and SP – 0.72 were recorded, while in the second group AUC – 0.645, SE – 0.63, and SP – 0.72 were noted. In the third group, AUC – 0.53, SE – 0.41, and SP – 0.72 were observed.

According to the results of the conducted analysis, the identified AUC values for IL10 (rs1800872), SERPINE1 (rs1799768), NOS3 (rs2070744), and IL1β (rs1143627) gene polymorphisms were in the range of 0.5–0.7, indicating their moderate prognostic efficiency. At the same time, the IL1β rs1143627 polymorphism in the second group (AUC = 0.645) and NOS3 rs2070744 polymorphism in the first group (AUC = 0.59) showed relatively high prognostic significance. These results indicate the potential use of these polymorphisms as clinical-prognostic biomarkers in certain cases.

Conclusion.

The analysis of sensitivity, specificity, and prognostic efficacy of the studied gene polymorphisms demonstrates their potential role in predicting necrotic changes in the maxillofacial area associated with different etiological factors. Overall, the AUC values obtained for the IL10 (rs1800872), SERPINE1 (rs1799768), NOS3 (rs2070744), and IL1β (rs1143627) polymorphisms ranged from 0.5 to 0.7, indicating a moderate level of prognostic efficiency. This suggests that none of the analyzed markers alone can be considered a highly accurate predictor; however, they may still provide clinically meaningful information when used in appropriate patient groups.

Among the analyzed variants, the IL1β rs1143627 polymorphism demonstrated the highest prognostic value in patients with granulomatous polyangiitis–associated necrotic changes, as reflected by an AUC of 0.645 combined with relatively high sensitivity and specificity. Additionally, the NOS3 rs2070744 polymorphism showed notable prognostic relevance in patients with post-COVID–related necrotic changes, characterized by high specificity, which may be particularly useful for identifying individuals at lower risk of false-positive predictions. These findings emphasize the etiological heterogeneity of necrotic processes in the maxillofacial region

and the importance of disease-specific genetic markers.

In conclusion, the studied polymorphisms may serve as supplementary clinical-prognostic biomarkers, especially when combined in gene–gene interaction models and integrated with clinical risk factors. Such an approach could contribute to early identification of high-risk patients and support targeted preventive and therapeutic strategies aimed at reducing the incidence and severity of necrotic changes in the maxillofacial area.

REFERENCES

1. Stroup DF, Berlin JA, Morton SC, et al. Meta-analysis of observational studies in epidemiology: a proposal for reporting. JAMA. 2000;283(15): 2008–2012.

2. Pepe MS. The statistical evaluation of medical tests for classification and prediction. Oxford: Oxford University Press; 2003.

3. Altman DG, Bland JM. Diagnostic tests 1: sensitivity and specificity. BMJ. 1994;308(6943): 1552.

4. Visscher PM, Brown MA, McCarthy MI, Yang J. Five years of GWAS discovery. Am J Hum Genet. 2012;90(1):7–24.

5. Manolio TA, Collins FS, Cox NJ, et al. Finding the missing heritability of complex diseases. Nature. 2009;461(7265):747–753.

6. Goode EL, Ulrich CM, Potter JD. Polymorphisms in DNA repair genes and associations with cancer risk. Cancer Epidemiol Biomarkers Prev. 2002;11(12):1513–1530.

7. Zhang W, Chen X, Zhao J, et al. XRCC1 polymorphisms and cancer prognosis: a meta-analysis. PLoS One. 2013;8(8):e71914.

8. Moons KGM, Altman DG, Reitsma JB, et al. Transparent reporting of a multivariable prediction model for individual prognosis or diagnosis (TRIPOD). Ann Intern Med. 2015;162(1):55–63.

9. Smith GD, Ebrahim S. Mendelian randomization: prospects, potentials, and limitations. Int J Epidemiol. 2004;33(1):30–42.

10. Ginsburg GS, Willard HF. Genomic and personalized medicine: foundations and applications. Transl Res. 2009;154(6):277–287.

11. Torkamani A, Wineinger NE, Topol EJ. The personal and clinical utility of polygenic risk scores. Nat Rev Genet. 2018;19(9):581–590.

12. Janssens ACJW, Joyner MJ. Polygenic risk scores that predict common diseases using millions of single nucleotide polymorphisms. Am J Hum Genet. 2019;104(6):1018–1021.

13. Hoffmann M, Kleine-Weber H, Schroeder S, et al. SARS-CoV-2 cell entry depends on ACE2 and TMPRSS2. Cell. 2020;181(2):271–280.

14. Marx RE. Osteonecrosis of the jaws: a review and update. J Oral Maxillofac Surg. 2014;72(5): 930–944.

ПОКАЗАТЕЛИ РЕДОКС-ГОМЕОСТАЗА У ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА С ВОСПАЛИТЕЛЬНЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ПРИДАТКОВ МАТКИ

Асранкулова Дилорамхон Бахтияровна – д.м.н., профессор
Андижанский государственный медицинский институт (Андижан, Узбекистан)

Аннотация. *Воспалительные заболевания придатков матки остаются одной из ведущих причин нарушений репродуктивного здоровья женщин. Одним из ключевых патогенетических механизмов данных состояний является дисбаланс окислительно-восстановительного (редокс) гомеостаза, способствующий хронизации воспалительного процесса и снижению овариального резерва.*

Ключевые слова: *окислительно-восстановительный гомеостаз, воспалительные заболевания придатков матки, репродуктивное здоровье.*

BACHADON ORTIQLARI YALLIG‘LANISHI BILAN HASTALAGANGAN AYOLLARDA REDOKS-GOMEOSTAZ KO’RSATKICHLARI

Asrankulova Diloramxon Baxtiyarovna – t.f.d., professor
Andijon davlat tibbiyot instituti (Andijon, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Bachadon ortiqlarining yallig‘lanish kasalliklari ayollarda reproduktiv salomatlik buzilishining yetakchi sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu holatlarning asosiy patogenetik bo‘g‘inlaridan biri bu oksidlovchi-qaytaruvchi (redoks) gomeostazning buzilishi bo‘lib, u yallig‘lanish jarayonining surunkali tus olishi va tuxumdon zaxirasining kamayishiga olib keladi.*

Kalit so‘zlar: *oksidlovchi-qaytaruvchi gomeostaz, bachadon qo‘shimcha a’zolari yallig‘lanishi, reproduktiv salomatlik.*

EVALUATION OF REDOX HOMEOSTASIS IN WOMEN WITH INFLAMMATORY DISEASES OF THE UTERINE APPENDAGES

Asrankulova Diloramxon Bakhtiyarovna – D.M.Sc., professor
Andijan State Medical Institute (Andijan, Uzbekistan)

Abstract. *Inflammatory diseases of the uterine appendages remain one of the leading causes of impaired reproductive health in women. One of the key pathogenetic links in these conditions is the disruption of redox (oxidation-reduction) homeostasis, which contributes to the chronicity of the inflammatory process and a decrease in ovarian reserve.*

Keywords: *redox homeostasis, inflammatory diseases of the uterine appendages, reproductive health.*

Актуальность темы. В патогенезе воспалительных заболеваний важное значении придаётся сосудистым расстройствам и нарушениям микроциркуляции, а также возможной роли мембранных нарушений [2,6]. Вместе с тем, в ряде системных исследований, посвященных установлению связи между структурно-функциональными изменениями мембран тромбоцитов, интенсивностью про- и антиоксидантной систем, нарушениями в системе гемостаза не проводилось. Данные изменения тромбоцитов могут привести также к нарушению целостности капилляров, еще более усугубляя расстройство микроциркуляции [1,3,6].

Воспалительные заболевания придатков матки (ВЗПМ), включая хронический сальпингоофорит, занимают одно из ведущих мест среди гинекологических патологий у женщин репродуктивного возраста. По данным различных авторов, частота этих заболеваний варьирует от 20 до 60% в структуре обращаемости к гинекологу [1,4]. Хроническое течение воспалительного процесса характеризуется длительной персистенцией патогенной микрофлоры, изменением местного иммунного ответа и формированием вторичных нарушений, включая снижение овариального резерва и развитие трубно-перитонеального бесплодия.

Одним из ключевых патогенетических механизмов хронического воспаления является нарушение окислительно-восстановительного (редокс) гомеостаза. В норме редокс-система организма обеспечивает баланс между образованием активных форм кислорода (АФК) и функционированием антиоксидантной системы. При воспалении отмечается избыточная продукция АФК, активируется процесс перекисного окисления липидов (ПОЛ), что сопровождается повреждением клеточных мембран, нарушением функции митохондрий и активацией апоптоза [5,6].

На фоне хронических воспалительных процессов наблюдается истощение антиоксидантной системы: снижается активность ферментативных компонентов (супероксиддисмутаза, каталаза, глутатионпероксидаза), уменьшается уровень неферментативных антиоксидантов (витамины А, Е, С, глутатион) [7]. Длительное сохранение такого дисбаланса способствует хронизации воспаления и ухудшению репродуктивной функции.

Ряд исследований последних лет указывает на связь между выраженностью окислительного стресса и клиническими проявлениями ВЗПМ, включая болевой синдром, частоту рецидивов и эффективность терапии. Более того, нарушение редокс-гомеостаза может быть не только следствием воспаления, но и фактором, поддерживающим патологический процесс за счёт постоянной активации провоспалительных цитокинов и повреждения тканей.

Оценка редокс-гомеостаза приобретает важное диагностическое и прогностическое значение. Она позволяет более точно определить стадию воспалительного процесса, индивидуализировать терапевтический подход, в том числе с применением антиоксидантной терапии [2,4]. В этом контексте актуальным является поиск надёжных маркеров оксидативного стресса и изучение эффективности различных антиоксидантных препаратов в комплексной терапии ВЗПМ.

Целью данного исследования явилось: изучить про- и антиоксидантную систему тромбоцитов и их функциональную активность у больных с ВЗПМ.

Материал и методы исследования. В зависимости от способа проведенного лечения все пациентки были разделены на 2 группы. Первую группу составили здоровые женщины 30. Во вторую группу вошли женщины с ВЗПМ =100. Возраст обследованных женщин варьировал от 21 до 45 лет, составляя в среднем 29,8±1,1 лет. Активность антиоксидантных ферментов – супероксиддисмутазы и глутатионпероксидазы определяли, используя методы и рекомендации Арчакова и Владимирова.

Результаты и их обсуждение. Нормальное функционирование тромбоцитов предполагает также наличие хорошей способности его мембраны к деформации, необходимой для свободного движения по капиллярам.

По данным литературы, расстройство функции тромбоцитов могут быть связаны с нарушением целостности и формы их мембран. Одной из причин этого служит повышение содержания в плазме крови содержания холестерина и фосфолипидов в составе мембран, а также накопление продуктов перекисного окисления липидов, сопровождающееся снижением уровня ее антиоксидантной активности. Данные изменения тромбоцитов могут привести также к нарушению целостности капилляров, еще более усугубляя расстройство микроциркуляции.

Несмотря на важность морфофункциональной полноценности тромбоцитов для гемомикроциркуляторного гомеостаза, мы не нашли в литературе сведений об их состоянии у больных с ВЗПМ. Воспаление приводит к активации процессов перекисного окисления липидов. У женщин с ВЗПМ в плазме крови имелось повышенное по сравнению с контролем содержание гидроперекиси липидов (табл. 1).

Таблица 1.

Характеристика биохимических факторов плазмы крови у больных ВЗПМ

Группа обследованных	Уровень гидроперекисей липидов (ед.оп.пл. на 1 г.липид)	Уровень анти-оксидантной активности (ед.оп-пл)	Фактор Виллебранда (%)
Здоровые женщины (n=30)	0,26±0,11	1,42±0,12	75,6±8,01
Женщины с ВЗПМ(n=110)	0,68±0,04	0,74±0,21	109,6±10,3
P	<0,001	<0,01	<0,05

По данным ряда авторов, повышенный уровень в крови свободных радикалов при ВЗПМ обусловлен нарастающей активацией в некоторых тканях (эндотелий, клетки крови, надпочечниках, печени) адаптивных метаболических процессов, сопровождающихся продукцией активных форм кислорода и азота, в частности реакция синтеза и инактивации стероидов, пуринового катаболизма (Many A. et al., 2006; Boggess K. A. et al., 2018). Из полученных нами данных следует. Что повышенный уровень свободнорадикальных метаболитов в плазме крови сопровождается недостаточном возрастанием активности антиоксидантной системы, которые, несомненно имеет адаптивную природу и является основным фактором стабилизации оксидантного стресса. Между тем, в данной ситуации мы наблюдаем недостаточность адаптивных антиоксидантных систем крови.

Итак, значительные нарушения липидного спектра плазмы крови, тромбоцитов, и высокая активность ПОЛ объясняют большую частоту нарушений морфофункциональных свойств тромбоцитов у больных с ВЗПМ. Структурные изменения в мембране тромбоцитов, вызывающие снижение ее деформацию, способствуют повреждению сосудистого эндотелия, что приводит к повышению уровня фактора Виллебранда.

Существенным риск фактором является также активация перекисного окисления липидов в тромбоцитах, которое вызывает деструктивные изменения в мембранах кровяных пластинок. У больных с ВЗПМ отмечаются увеличение уровня МДА в 2,5 раза (табл. 2), что, безусловно, оказывает влияние на функциональную активность тромбоцитов, изменению физико-химических свойств мембран.

Таблица 2.

Показатели про- и антиоксидантной системы тромбоцитов у больных женщин с ВЗПМ

Показатели	Здоровые женщины (n=30)	Женщины с ВЗПМ (n=110)	P
Уровень малонового диальдегида в тромбоцитах (нмоль/МДА 1 мин/мг белка)	1,81±0,12	4,61±0,31	<0,001
Активность глутати-онпероксидазы (ед. актив/мг белка)	22,43±0,84	18,41±0,71	<0,01
Активность суперок-сиддисмутазы (ед. актив/мг белка)	12,41±0,33	10,95±0,42	<0,01

При исследовании активности ферментов антиоксидантной системы тромбоцитов. Выявлено уменьшение активности глутатионпероксидазы и супероксиддисмутазы. Очевидно, что низкие значения активности ферментов являются также причиной накопления продуктов ПОЛ в тромбоцитах.

При ВЗПМ активируются свободнорадикальные процессы, а также имеется связь между интенсивностью ПОЛ и активностью тромбоцитов, через которые в значительной степени реализуется взаимосвязь между клеточным и коагуляционным гемостазом, их значение в поддержании целостности сосудистой стенки и в непрерывном свертывании крови, обуславливает необходимость детального исследования состояния тромбоцитарного и прокоагуляционного гемостаза.

Таким образом, исследование мембран тромбоцитов у больных с воспалительными заболеваниями придатков матки, свидетельствует о нарушении структурно-функционального состояния мембран этих клеток крови, нарушении тромбоцитарно-коагуляционного звена гемостаза и неразрывной связи реологических нарушений, зависящие от, характера проявлений клинической картины воспалительных заболеваний придатков матки.

ЛИТЕРАТУРА

1. Баркаган З. С., Тамарин И. В. Оценка степени повреждения эритроцитов при диссеминированном внутрисосудистом свертывании крови //Лаб. дело. – 2024. - №4. – С.35-39.
2. Бышевский А. Ш., Волков А. И. Гемостаз и перекисное окисление липидов при разных тиреоидных состояниях //Тромбоз, гемостаз и реология. - 2020. - №3(3). – С. 32-34.
3. Галебская Л. В., Немировский В. С. Ферменты и ферментные препараты. - СПб.: Изд-во СПбГМУ, 2021. - 84 с.
4. Гемостаз. Физиологические механизмы, принципы диагностики основных форм геморрагических заболеваний: Учебное пособие /Под ред. Н. Н. Петрищева и Л.П. Папаяна. – СПб., 2019. - 117 с
5. Каттаходжаева М. Х. Состояние адаптационных возможностей организма у больных с острыми воспалительными процессами гениталий по данным кардиоинтервалографии //The I Congress of Internal Medicine of Central Asia. – Tashkent, 2020. - P. 283.
6. Cao D. Clinical application of the empirical prescriptions for chronic pelvic inflammation //J. Tradit Chin Med. – 2019. – Vol.24, №2. – P. 112-115.
7. Kornacki J., Kozlik J., Dubiel M. Estimation of oxidative stress and its correlation with uterine arteries Doppler velocimetry in women with pre-eclampsia //Ginekol Pol. – 2024. – Vol.75, №9. – P. 681-691.

UO'K: 615.851:616.89-008.441.44:159.9

KIMYOVIY ADDIKTIV BUZILISHLARDA FARMAKOLOGIK VA PSIXOREABILITATSION USULLARNING KOMPLEKS QO'LLANILISHIDA INNOVATSION YONDASHUV

Turayev Bobir Temirpulotovich - Ph.D., dosent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O'zbekiston)
Sultonov Shoxrux Xabibullayevich - t.f.d., dotsent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kimyoviy addiktiv buzilishlar bilan og'rigan bemorlarni reabilitatsiya qilishda farmakologik va psixoreabilitatsion usullarning kompleks qo'llanilishining samaradorligi o'rganildi. Tadqiqotda 80 nafar kimyoviy qaramlikka chalingan bemor ishtirok etdi: asosiy guruhda (n=40) farmakologik davolash psixoreabilitatsion dasturlar bilan birgalikda olib borildi, taqqoslash guruhida (n=40) esa faqat standart farmakoterapiya qo'llanildi. Kompleks yondashuv natijasida bemorlarda kognitiv funksiyalar faollashuvi, psixoemotsional holatning barqarorlashuvi hamda ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarining yaxshilanishi kuzatildi. Xususan, asosiy guruhda MoCA shkalasi bo'yicha kognitiv ko'rsatkichlar 35 %, tashvish va depressiya darajasi 40 %, ijtimoiy moslashuv indeksi esa 45 % ga yaxshilandi. Olingan natijalar kimyoviy addiktiv buzilishlarda farmakologik va psixoreabilitatsion usullarning integratsiyalashgan qo'llanilishi reabilitatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *kimyoviy addiktiv buzilishlar, farmakologik davolash, psixoreabilitatsiya, kognitiv buzilishlar, psixoemotsional holat, ijtimoiy moslashuv, kompleks reabilitatsiya.*

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К КОМПЛЕКСНОМУ ПРИМЕНЕНИЮ ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ И ПСИХОРЕАБИЛИТАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ПРИ ХИМИЧЕСКИХ АДДИКТИВНЫХ РАССТРОЙСТВАХ

Тураев Бобир Темирпулатович - Ph.D., доцент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)
Султонов Шохрух Хабибуллаевич - д.м.н., доцент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В данной статье изучена эффективность комплексного применения фармакологических и психореабилитационных методов в реабилитации пациентов с химическими аддиктивными расстройствами. В исследовании приняли участие 80 пациентов с химической зависимостью: в основной группе (n = 40) фармакологическое лечение проводилось в сочетании с психореабилитационными программами, тогда как в группе сравнения (n = 40) применялась только стандартная фармакотерапия. В результате комплексного подхода у гарантированных пациентов отмечалась активация когнитивных функций, стабилизация психоэмоционального состояния и улучшение показателей социальной адаптации. В частности, в основной группе когнитивные показатели по шкале MoCA улучшились на 35 %, уровень тревоги и депрессии снизился на 40 %, а индекс социальной адаптации повысился на 45 %. Полученные результаты свидетельствуют о том, что интегрированное применение фармакологических и психореабилитационных методов при химических аддиктивных расстройствах существенно повышает эффективность реабилитации.*

Ключевые слова: *химические аддиктивные расстройства, фармакологическое лечение, психореабилитация, когнитивные нарушения, психоэмоциональное состояние, социальная адаптация, комплексная реабилитация.*

INNOVATIVE APPROACH TO THE COMPLEX APPLICATION OF PHARMACOLOGICAL AND PSYCHOREHABILITATION METHODS IN CHEMICAL ADDICTIVE DISORDERS

Turaev Bobir Temirpulatovich - Ph.D., associate professor
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)
Sultonov Shokhrukh Khabibullayevich - D.M.Sc.., associate professor
Tashkent state medical university (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This article examines the effectiveness of the integrated application of pharmacological and psychorehabilitation methods in the rehabilitation of patients with chemical addictive disorders. The study involved 80 patients with chemical dependence: in the main group (n = 40), pharmacological treatment was combined with psychorehabilitation programs, while in the comparison group (n = 40) only standard pharmacotherapy was applied. As a result of the integrated approach, patients demonstrated activation of cognitive functions, stabilization of psycho-emotional status, and improvement in social adaptation indicators. In particular, in the main group, cognitive performance according to the MoCA scale improved by 35%, anxiety and depression levels decreased by 40%, and the social adaptation index increased by 45%. The obtained results indicate that the integrated use of pharmacological and psychorehabilitation methods significantly enhances the effectiveness of rehabilitation in chemical addictive disorders.*

Keywords: *chemical addictive disorders, pharmacological treatment, psychorehabilitation, cognitive impairments, psycho-emotional state, social adaptation, comprehensive rehabilitation.*

Kirish. Kimyoviy addiktiv buzilishlar zamonaviy jamiyatda nogironlik, mehnatga layoqatsizlik va ijtimoiy dezadaptatsiyaning yetakchi sabablaridan biri hisoblanadi [1-3]. Ushbu kasalliklar surunkali kechishi, yuqori reцidiv chastotasi hamda kognitiv, psixoemotsional va ijtimoiy funksiyalarning chuqur buzilishi bilan xarakterlanadi [4]. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kimyoviy qaramlik bilan og'rigan bemorlarning 65–80 % ida turli darajadagi kognitiv pasayish, tashvish-depressiv holatlar, impuls nazoratining buzilishi va ijtimoiy moslashuvning yetishmovchiligi kuzatiladi [5-7]. Shu bois, ushbu bemorlarni reabilitatsiya qilish jarayonida faqat farmakologik davolash bilan cheklanib qolish yetarli samara bermaydi [8].

Kimyoviy addiktiv buzilishlarda reabilitatsiyaning asosiy maqsadi - patologik ishtiyoqni kamaytirish, kognitiv va psixoemotsional funksiyalarni tiklash, ijtimoiy moslashuvni yaxshilash hamda bemorning barqaror remissiyaga erishishini ta'minlashdan iborat [9]. So'nggi yillarda ushbu maqsadlarga erishishda integrativ, ya'ni bir nechta patogenetik mexanizmlarga bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatuvchi kompleks yondashuvlar keng qo'llanila boshladi [10-12]. Ayniqsa, farmakologik va psixoreabilitatsion usullarning uyg'unlashtirilgan qo'llanilishi klinik va funksional samaradorligi bilan ajralib turadi [13].

Farmakologik davolash kimyoviy addiktiv buzilishlarda neyromediator tizimlari disbalansini korreksiya qilish, abstinent holatlarni yengillashtirish, impulsivlik va affektiv buzilishlarni kamaytirishga qaratilgan bo'lsa [14], psixoreabilitatsion usullar bemorning shaxsiy resurslarini faollashtirish, kognitiv funksiyalarni tiklash hamda moslashuvchan xulqatvor strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi [15]. Psixoreabilitatsiya doirasida kognitiv treninglar, psixoedukatsiya, stressni boshqarish va motivatsion yondashuvlar keng qo'llaniladi [16].

Farmakologik davolash natijasida markaziy nerv tizimi faoliyatining barqarorlashuvi, psixoemotsional fonning me'yorlashuvi uchun biologik "tayyorgarlik bosqichi" yaratiladi [17]. Ushbu holat psixoreabilitatsion mashg'ulotlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [18]. O'z navbatida, psixoreabilitatsiya orqali hosil bo'lgan ijobiy kognitiv va xulqiy o'zgarishlar farmakoterapiya natijalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu tariqa, ushbu usullarning sinergetik ta'siri markaziy nerv tizimining plastiklik xususiyatlarini rag'batlantiradi va reabilitatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi [19].

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, kompleks farmakologik va psixoreabilitatsion yondashuvlar kognitiv ko'rsatkichlarni 30–40 % ga yaxshilashi, tashvish va depressiya darajasini sezilarli kamaytirishi hamda ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarini oshirishi mumkin [20]. Shu bilan birga, ushbu yondashuv bemorning hayot sifatini yaxshilash va uzoq muddatli remissiyani ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [21]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuvlar neyropsikologik reabilitatsiya jarayonida farmakologik davolashning ijobiy effektlarini mustahkamlaydi va kognitiv, psixoemotsional hamda ijtimoiy funksiyalarni tiklashga yordam beradi [22].

Mazkur tadqiqot kimyoviy addiktiv buzilishlar bilan og'rigan bemorlarda farmakologik va psixoreabilitatsion usullarning kompleks qo'llanilishi orqali kognitiv, psixoemotsional va ijtimoiy funksiyalarni tiklash samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu innovatsion yondashuv bemorlarni reabilitatsiya qilishning ilmiy asoslangan, samarali va amaliy jihatdan muhim modelini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi. Kimyoviy addiktiv buzilishlar bilan og'rigan bemorlarda farmakologik va psixoreabilitatsion usullarning kompleks qo'llanilishi orqali kognitiv, psixoemotsional va ijtimoiy funksiyalarni tiklash samaradorligini baholash va integrativ reabilitatsiya modelining klinik va amaliy ahamiyatini aniqlashdir.

Materiallar va usullar. Tadqiqot 2024-2025 yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, narkologiya xizmati bo'yicha Samarqand viloyat filiali shifoxonasida o'tkazildi.. Tadqiqot obyekti sifatida kimyoviy addiktiv buzilishlar bilan og'rigan 140 nafar bemor

tanlandi. Bemorlar asosiy guruh (n=100) va taqqoslash guruhi (n=40) ga bo‘lindi. Asosiy guruhda bemorlarga farmakologik davolash psixoreabilitatsion usullar bilan birgalikda qo‘llanildi, taqqoslash guruhida esa faqat standart farmakoterapiya amalga oshirildi.

Bemorlarni tanlashda quyidagi kiritish mezonlari asos qilib olindi: kimyoviy addiktiv buzilish tashxisi (alkogol va/yoki psixoaktiv moddalar), 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan bemorlar, MoCA ≥18 bilan kognitiv yetarlilik. Chiqish mezonlari sifatida esa surunkali og‘ir somatik kasalliklar, jiddiy psixiatrik patologiyalar yoki tadqiqot jarayonida qatnashishdan bosh tortish ko‘rsatildi.

Farmakologik davolash doirasida bemorlarga individual ravishda tanlangan medikamentlar (narkoleptiklar, vazomotor va neyroleptik preparatlar) berildi. Psixoreabilitatsion usullarga quyidagilar kiritildi: kognitiv treninglar, psixoedukatsiya, stressni boshqarish mashg‘ulotlari, motivatsion intervensiyalar va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Kognitiv funksiyalarni baholash uchun MoCA testidan, psixoemotsional holatni aniqlash uchun Beck depressiya shkalasi va Spielberger-Xanin testlari, ijtimoiy moslashuvni o‘lchash uchun SAS-SR va WHOQOL-BREF testlaridan foydalangan. Farmakologik va psixoreabilitatsion yondashuvning samaradorligi asosiy va taqqoslash guruhidagi bemorlar ko‘rsatkichlari orqali solishtirildi.

Natijalar. MoCA testi natijalari asosida bemorlarning kognitiv funksiyalari tahlil qilindi va yengil, o‘rtacha og‘ir va og‘ir kognitiv buzilishlar soni hamda foizlari har ikki guruhda solishtirildi. Asosiy guruhda (n=100) dastlab bemorlarning 25 % da yengil, 50 % da o‘rtacha og‘ir va 25 % da og‘ir kognitiv buzilishlar kuzatilgan. Bu natija bemorlarning aksariyatida diqqatni jamlash, xotira va e’tibor barqarorligining sezilarli darajada buzilganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida asosiy guruhda farmakologik va psixoreabilitatsion usullar kombinatsiyasi qo‘llanildi. Bu yondashuv markaziy nerv tizimi faoliyatini normallashtirish, impuls nazoratini yaxshilash va kognitiv funksiyalarni tiklashga qaratilgan. Natijada bemorlarning o‘rtacha MoCA balli 21,5 dan 29,0 gacha oshdi, ya’ni kognitiv ko‘rsatkichlar 35-38 % ga yaxshilangan. Shu bilan birga, yengil va o‘rtacha og‘ir kognitiv buzilishlar soni sezilarli darajada oshgan, og‘ir buzilishlar esa kamaygan. Bu, ayniqsa, diqqatni jamlash, qisqa va uzoq muddatli xotira, abstrakt fikrlash va e’tibor barqarorligi kabi funksiyalarning tiklanishini ko‘rsatadi. Bemorlarning kundalik faoliyatga moslashuvi va ijtimoiy integratsiyasi ham sezilarli darajada yaxshilangan. Ushbu natija farmakologik va psixoreabilitatsion kompleks yondashuvning sinergik ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi, ya’ni biologik va psixologik davolash usullarining birgalikdagi qo‘llanilishi bemorning kognitiv tiklanishini tezlashtiradi.

1-jadval.

MoCA testi natijalari bo‘yicha kognitiv buzilishlarning darajasi va o‘sish ko‘rsatkichlari

Guruh	Bemorlar soni (n)	Yengil buzilish n (%)	O‘rtacha og‘ir buzilish n (%)	Og‘ir buzilish n (%)	O‘rtacha MoCA ball	O‘sish foizi (%)
Asosiy guruh	100	25 (25%)	50 (50%)	25 (25%)	21,5 dan 29,0	35-38
Taqqoslash guruhi	40	8 (20%)	22 (55%)	10 (25%)	22,0 dan 24,7	12-15

Taqqoslash guruhida (n=40) esa faqat farmakologik davolash qo‘llanilgan. Ushbu guruhda dastlab yengil buzilishlar 20 %, o‘rtacha og‘ir buzilishlar 55 %, og‘ir buzilishlar 25 % ni tashkil qilgan. Tadqiqot davomida o‘rtacha MoCA ball 22,0 dan 24,7 gacha oshdi, bu faqat 12–15 % ga o‘sishga teng bo‘lib, yengil buzilishlar soni ozgina ko‘paygan. Shu bilan birga, o‘rtacha va og‘ir kognitiv buzilishlarda sezilarli o‘zgarish kuzatilmagan, bu esa faqat farmakoterapiya samaradorligi bilan bog‘liq qisqa muddatli va cheklangan effektni ko‘rsatadi. Bemorlarning kundalik faoliyatga qaytish ko‘rsatkichlari va ijtimoiy moslashuv darajasi ham asosiy guruhga nisbatan sezilarli darajada past bo‘lgan.

Psixoemotsional holatni baholash uchun bemorlarning tashvish va depressiya darajasi Beck depressiya shkalasi va Spielberger-Xanin testlari yordamida o‘rganildi. Ushbu metodlar bemorlarning depressiv simptomlar, tashvish darajasi, ruhiy barqarorlik va stressga chidamliligini aniqlashda ilmiy jihatdan asoslangan va keng qo‘llaniladigan usullardir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, asosiy guruhda (n=100) dastlab bemorlarning o‘rtacha tashvish va depressiya darajasi 28,5 ballni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich bemorlarning psixoemotsional fonining buzilganligini, kayfiyatning pasayganligini va stressga chidamlilikning pastligini ko‘rsatadi. Farmakologik va psixoreabilitatsion kompleks yondashuv qo‘llanilgach, bemorlarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari 17,1 ballgacha pasaydi, ya’ni psixoemotsional holat 40 % ga yaxshilangan. Ushbu yaxshilanish bemorlarning ruhiy barqarorligini oshirish, kayfiyatni me’yorga keltirish, tashvish va depressiv simptomlarni kamaytirish hamda stressga chidamliligini kuchaytirish bilan izohlanadi. Shuningdek, bemorlarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati oshganligi, ijtimoiy faoliyatga qaytish motivatsiyasi kuchaygani va reabilitatsiyaga bo‘lgan ishtiyoqi ortgani qayd etildi.

2-jadval.

Guruhlar bo‘yicha psixoemotsional holatlardan xavotir va depressiya darajalari

Guruh	Bemorlar soni (n)	Oldingi xavotir/depressiya darajasi (o‘rtacha ball)	Keyingi xavotir/depressiya darajasi (o‘rtacha ball)	Pasayish foizi (%)
Asosiy guruh	100	28,5	17,1	40
Taqqoslash guruhi	40	27,8	23,6	15

Taqqoslash guruhida (n=40) esa faqat farmakologik davolash qo‘llanilgan. Dastlab bemorlarning o‘rtacha tashvish va depressiya darajasi 27,8 ballni tashkil qilgan, davolash jarayonida bu ko‘rsatkich 23,6 ballgacha kamaygan. Bu faqat 15 % ga pasayish bo‘lib, psixoemotsional holatdagi yaxshilanish asosiy guruhga nisbatan sezilarli darajada pastligini ko‘rsatadi. Taqqoslash guruhidagi bemorlarda tashvish va depressiya darajasi faqat qisqa muddatli yaxshilanish ko‘rsatgan, uzoq muddatli psixoemotsional barqarorlik hosil bo‘lishi esa cheklangan.

Kengaytirilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, farmakologik va psixoreabilitatsion kompleks yondashuv asosiy guruh bemorlarida psixoemotsional barqarorlikni samarali yaxshilashga imkon beradi. Kompleks yondashuv nafaqat tashvish va depressiya darajasini sezilarli kamaytiradi, balki bemorning stressga chidamliligi, motivatsiyasi va ijtimoiy faoliyatga qaytish imkoniyatlarini ham oshiradi. Bu esa uzoq muddatli remissiya va hayot sifatining yaxshilanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy moslashuv va hayot sifati ko‘rsatkichlarini baholash maqsadida bemorlarda SAS-SR (Social Adjustment Scale - Self Report) va WHOQOL-BREF testlari qo‘llanildi. Ushbu psixometrik usullar bemorlarning kundalik ijtimoiy faoliyati, mehnat va oilaviy munosabatlardagi moslashuvi, shaxslararo muloqot sifati hamda hayotdan qoniqish darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari kimyoviy addiktiv buzilishlar bilan og‘rigan bemorlarda ijtimoiy dezadaptatsiya va hayot sifati pasayishining yaqqol namoyon bo‘lishini tasdiqladi.

Tadqiqot boshida asosiy guruhda (n=100) bemorlarning ijtimoiy moslashuv darajasi va hayot sifati ko‘rsatkichlari o‘rtacha 48,2 ballni tashkil etgan. Bu holat bemorlarning ijtimoiy faolligi pastligi, kundalik hayotda mustaqillikning cheklanishi, mehnat faoliyatiga qaytishda qiyinchiliklar hamda oilaviy va shaxslararo munosabatlarda muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Farmakologik va psixoreabilitatsion usullarning kompleks qo‘llanilishi natijasida ushbu ko‘rsatkichlar 69,8 ballgacha oshdi, ya’ni ijtimoiy moslashuv va hayot sifati 42-45 % ga yaxshilandi. Bunday sezilarli ijobiy o‘zgarishlar bemorlarning ijtimoiy hayotga faolroq qaytishi, muloqot qobiliyatining tiklanishi, ijtimoiy rollarni qayta egallashi va kundalik faoliyatdagi mustaqilligining oshishi bilan izohlanadi. Shuningdek, bemorlarning o‘z hayotidan qoniqish darajasi va kelajakka bo‘lgan ijobiy munosabati kuchaygani qayd etildi.

3-jadval.

Asosiy va taqqoslash guruhlarida ijtimoiy moslashuv va hayot sifati ko‘rsatkichlari (SAS-SR va WHOQOL-BREF natijalari)

Guruh	Bemorlar soni (n)	Dastlabki ijtimoiy moslashuv va hayot sifati (o‘rtacha ball)	Davolashdan keyingi ko‘rsatkich (o‘rtacha ball)	O‘sish foizi (%)
Asosiy guruh	100	48,2	69,8	42-45
Taqqoslash guruhi	40	49,0	54,5	10-12

Taqqoslash guruhida (n=40) esa faqat farmakologik davolash qo‘llanilgan. Tadqiqot boshida ushbu guruh bemorlarida ijtimoiy moslashuv va hayot sifati ko‘rsatkichlari o‘rtacha 49,0 ballni tashkil qilgan bo‘lib, davolash yakunida bu ko‘rsatkich 54,5 ballgacha oshgan. Ushbu o‘zgarish atigi 10–12 % ga yaxshilanishni tashkil etib, ijtimoiy moslashuv va hayot sifatidagi ijobiy siljishlar asosiy guruhga nisbatan ancha past ekanligini ko‘rsatadi. Taqqoslash guruhida ijtimoiy faollikning biroz oshishi kuzatilgan bo‘lsa-da, bemorlarning kundalik hayotga to‘liq moslashuvi, barqaror ijtimoiy integratsiyasi va mehnat faoliyatiga qaytishi cheklanganligicha qolgan.

Olingan natijalar farmakologik va psixoreabilitatsion kompleks yondashuvning ijtimoiy moslashuv va hayot sifatini yaxshilashdagi ustunligini yaqqol namoyon etdi. Psixoreabilitatsion tadbirlar – psixoedukatsiya, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, stressni boshqarish va motivatsion yondashuvlar – bemorlarning shaxsiy resurslarini faollashtirib, muloqot va moslashuv qobiliyatini kuchaytirgan. Farmakologik davolash esa psixoemotsional barqarorlikni ta’minlab, psixoreabilitatsion mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirgan.

Shu tariqa, ushbu sinergetik yondashuv bemorlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi, mehnat va oilaviy hayotga moslashuvi hamda uzoq muddatli remissiyaga erishishi uchun muhim shart-

sharoit yaratadi. Natijalar kimyoviy addiktiv buzilishlarda reabilitatsiya jarayonini faqat farmakologik davolash bilan cheklamasdan, kompleks tibbiy-psixologik va ijtimoiy yondashuv asosida olib borish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqot davomida farmakologik davolash bilan psixoreabilitatsion yondashuvni uyg‘unlashtirib qo‘llash bemorlarning reabilitatsiya jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi, abstinent holatni barqaror saqlash, impuls nazoratini yaxshilash hamda stress omillariga chidamliligini kuchaytirishda muhim ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Kompleks yondashuv fonida bemorlarda patologik ishtiyoqning kamayishi, emotsional barqarorlikning oshishi va xulq-atvorni ongli ravishda boshqarish qobiliyatining kuchaygani qayd etildi. Bu esa retsidiv xavfini kamaytirishga va davolash jarayonining uzluksizligini ta’minlashga xizmat qildi.

Farmakologik davolash markaziy nerv tizimi faoliyatini barqarorlashtirib, affektiv va vegetativ buzilishlarni kamaytirish orqali psixoreabilitatsion mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan biologik tayyorgarlik fonini yaratdi. Psixoreabilitatsion yondashuv esa ushbu biologik barqarorlikni kognitiv, emotsional va xulqiy darajadagi ijobiy o‘zgarishlarga aylantirishga imkon berdi. Natijada bemorlarda o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish, stressli vaziyatlarda moslashuvchan qarorlar qabul qilish va salbiy impulslarni nazorat qilish ko‘nikmalari shakllandi.

Kompleks yondashuvning muhim ustunligi shundan iboratki, u kognitiv, psixoemotsional va ijtimoiy funksiyalarni bir vaqtda va o‘zaro bog‘liq holda yaxshilash imkonini berdi. Kognitiv funksiyalarning tiklanishi bemorlarning o‘z holatini anglashini va davolashga ongli munosabatini kuchaytirgan bo‘lsa, psixoemotsional barqarorlik tashvish va depressiv simptomlarning kamayishiga olib keldi. Ijtimoiy moslashuvning yaxshilanishi esa bemorlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi, mehnat faoliyatiga va oilaviy hayotga moslashuvi uchun qulay shart-sharoit yaratdi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari kimyoviy addiktiv buzilishlar bilan og‘rigan bemorlarni reabilitatsiya qilishda farmakologik va psixoreabilitatsion usullarning kompleks qo‘llanilishi yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Kompleks yondashuv asosiy guruhda kognitiv funksiyalarning sezilarli darajada tiklanishi (MoCA bo‘yicha 35–38 %), tashvish va depressiya darajasining kamayishi (40 %) hamda ijtimoiy moslashuv va hayot sifati ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi (42–45 %) bilan namoyon bo‘ldi.

Taqqoslash guruhida faqat farmakologik davolash qo‘llanilganda kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar cheklangan bo‘lib, kognitiv, psixoemotsional va ijtimoiy ko‘rsatkichlarda barqaror va chuqur yaxshilanishga olib kelmadi.

Olingan natijalar farmakologik davolashning biologik barqarorlashtiruvchi ta’siri va psixoreabilitatsion usullarning kognitiv, emotsional hamda ijtimoiy resurslarni faollashtiruvchi ta’siri o‘rtasidagi sinergetik bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Shu bois, kimyoviy addiktiv buzilishlarni davolash va reabilitatsiya qilishda integrativ, kompleks yondashuvni klinik amaliyotga keng joriy etish bemorlarning uzoq muddatli remissiyaga erishishi va hayot sifatini yaxshilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Agabio R. et al. Combined pharmacological and psychosocial interventions for alcohol use disorder //The Cochrane Database of Systematic Reviews. – 2023. – T. 2023. – №. 3. – C. CD015673.
2. Angothu H., Narasimha V. L., Muliyala K. P. Clinical practice guidelines on assessment of needs among persons with mental illness and persons with substance use disorders with long stay in psychiatric institutions //Indian Journal of Psychiatry. – 2025. – T. 67. – №. 1. – C. 158-167.
3. Belay G. M. et al. Psychosocial treatment options for adolescents and young adults with alcohol use disorder: systematic review and meta-analysis //Frontiers in public health. – 2024. – T. 12. – C. 1371497.
4. Celik M., Gold M. S., Fuehrlein B. A narrative review of current and emerging trends in the treatment of alcohol use disorder //Brain Sciences. – 2024. – T. 14. – №. 3. – C. 294.
5. Heilig M. et al. Novel medications for problematic alcohol use //The Journal of Clinical Investigation. – 2024. – T. 134. – №. 11.
6. Hesse M. Integrated psychological treatment for substance use and co-morbid anxiety or depression vs. treatment for substance use alone. A systematic review of the published literature //BMC psychiatry. – 2009. – T. 9. – №. 1. – C. 6.
7. Hogue A. et al. Evidence Base on Outpatient Behavioral Treatments for Adolescent Substance Use, Update 2018–2023: Current Status, Best Practices, and Opportunities for Advancing the Science //Journal of Clinical Child & Adolescent Psychology. – 2025. – C. 1-25.
8. Holdorovna I. M., Temirpulotovich T. B. Psychopathological features of long-term endogenous depressions //International Journal of Cognitive Neuroscience and Psychology. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 15-21.
9. Ibragim A. et al. Psychological rehabilitation of individuals with alcohol use disorder, drug addiction, gambling disorder, and codependency //Acta Psychologica. – 2025. – T. 257. – C. 105052.
10. Karikari M., Adeleke V., Okafor A. J. Rehabilitation for Adults with Co-Morbid Substance Use and Mental Health Disorders: A Scoping Review of Programmatic Outcomes and Evidence Gaps //J of Psych and Neuroche Res, 3 (6), 01. – 2025. – T. 16.

11. Kholmurodova D. Et al. Study of the process of obtaining fuel briquettes from production waste //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 508. – C. 07008.
12. Kumar V. et al. Emerging Therapeutic Approaches and Drugs for Anxiety and Related Disorders //World Journal of Traditional Chinese Medicine. – 2025. – C. 10.4103.
13. Lemmens L. C. et al. Integrated care programs for patients with psychological comorbidity: a systematic review and meta-analysis //Journal of psychosomatic research. – 2015. – T. 79. – №. 6. – C. 580-594.
14. Mihretu A. et al. Psychosocial interventions for people with comorbid substance use disorders in people with severe mental health conditions in low-and middle-income countries: scoping review //BJPsych Open. – 2025. – T. 11. – №. 5. – C. e222.
15. Minozzi S. et al. Combined pharmacological and psychosocial interventions for alcohol use disorder //Cochrane Database of Systematic Reviews. – 2025. – №. 3.
16. Ramakrishnan T., Ezhumalai S., Ramasamy D. Profile of psychosocial rehabilitation centres for persons with substance use disorders in Bengaluru: A cross-sectional study //Journal of Psychosocial Rehabilitation and Mental Health. – 2022. – T. 9. – №. 3. – C. 293-302.
17. Ruben J. P. et al. ICMR's multistate implementation research study on integration of screening and management of mental and substance use disorders with other non-communicable diseases (ICMR-MINDS)–An implementation research study protocol //PLoS One. – 2025. – T. 20. – №. 10. – C. e0332359.
18. Sadullayeva R., Sharafova M., Turayev B. The development of psychoses in infectious diseases and their clinical features //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 124-129.
19. Sedenkova M. et al. Features of primary and secondary cognitive functions characteristic of dementia with delirium //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D11. – C. 56-62.
20. Sharapova D., Shernazarov F., Turayev B. Psychological factors for the formation of aggressive behavior in the youth environment //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. D12. – C. 404-408.
21. Shernazarov F., Sharapova D., Turayev B. Features of the development of manic and mixed episodes in patients with bipolar affective disorder who use cannabioids //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. D3. – C. 123-128.
22. Zhylin M. et al. Innovative Rehabilitation Strategies for Chemical Dependency: Integrating Biochemical Insights and Psychosocial Approaches //Integrative Biomedical Research. – 2024. – T. 8. – №. 7. – C. 1-16.

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHNING ANALITIK VA SONLI USULLARINI TAQQOSLASH

Ismailov Shixnazar Rashid o‘g‘li – dotsent
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
Ubaydullayev Farrux Fathulla o’g’li – magistr
Odilov Asliddin Isoq o’g’li – magistr
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada differensial tenglamalarni yechishning asosiy ikki yo‘nalishi — analitik (aniq) **va** sonli (taxminiy) usullar tahlil qilingan. Analitik usullar differensial tenglamaning yechimini aniq matematik ifoda ko‘rinishida olish imkonini bersa, sonli usullar murakkab va chiziqsiz tenglamalar uchun taxminiy yechimlarni hisoblashga asoslanadi. Maqolada har ikkala usulning afzalliklari, kamchiliklari, qo‘llanilish sohalari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy kompyuter dasturlari (MATLAB, Maple, Python, Wolfram Mathematica) yordamida sonli hisoblashlarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Natijada, analitik va sonli usullarni birgalikda qo‘llash differensial tenglamalarning amaliy va nazariy yechimlarini topishda eng samarali yondashuv ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *differensial tenglama, analitik usul, sonli usul, Runge–Kutta, Euler usuli, kompyuter modellashtirish, taxminiy yechim.*

СРАВНЕНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ И ЧИСЛЕННЫХ МЕТОДОВ РЕШЕНИЯ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ

Исмаилов Шихназар Рашидович – доцент
Ташкентский университет информационных технологий (Ташкент, Узбекистан)
Убайдуллаев Фаррух Фатхуллаевич – магистр
Одилов Аслиддин Исокович – магистр
Университет точных и социальных наук (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В данной статье проанализированы два основных направления решения дифференциальных уравнений — аналитические (точные) и численные (приближённые) методы. Аналитические методы позволяют получить решение дифференциального уравнения в виде точного математического выражения, тогда как численные методы основаны на вычислении приближённых решений для сложных и нелинейных уравнений. В статье раскрыты преимущества и недостатки каждого метода, области их применения, а также взаимосвязь между ними. Кроме того, показано значение численных вычислений с использованием современных компьютерных программ (MATLAB, Maple, Python, Wolfram Mathematica). В результате обосновано, что совместное применение аналитических и численных методов является наиболее эффективным подходом к получению практических и теоретических решений дифференциальных уравнений.*

Ключевые слова: *дифференциальное уравнение, аналитический метод, численный метод, метод Рунге–Кутты, метод Эйлера, компьютерное моделирование, приближённое решение.*

COMPARISON OF ANALYTICAL AND NUMERICAL METHODS FOR SOLVING DIFFERENTIAL EQUATIONS

Ismailov Shikhnazar Rashidovich – associate professor
Tashkent University of Information Technologies (Tashkent, Uzbekistan)
Ubaydullayev Farrukh Fathullaevich – master
Odilov Asliddin Isokovich – master
University of Exact and Social Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This article analyzes the two main approaches to solving differential equations — analytical (exact) and numerical (approximate) methods. Analytical methods make it possible to obtain the solution of a differential equation in the form of an exact mathematical expression, whereas numerical methods are based on calculating approximate solutions for complex and nonlinear equations. The paper highlights the advantages, disadvantages, areas of application, and interconnection of both methods. In addition, the importance of numerical computations using modern computer programs (MATLAB, Maple, Python, Wolfram Mathematica) is discussed. As a result, it is substantiated that the combined use of analytical and numerical methods represents the most effective approach to obtaining both practical and theoretical solutions of differential equations.*

Keywords: *differential equation, analytical method, numerical method, Runge– Kutta method, Euler method, computer modeling, approximate solution.*

Kirish.

Hozirgi davrda matematika fani nafaqat nazariy tadqiqotlarda, balki texnika, fizika, iqtisodiyot, biologiya, informatika va boshqa ko‘plab sohalarda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, turli tabiiy va texnik jarayonlarning o‘zgarishini ifodalashda **differensial tenglamalar** asosiy matematik vosita sifatida qo‘llaniladi. Ular vaqt bo‘yicha yoki fazoviy o‘zgaruvchilar orqali biror miqdorning o‘zgarish qonuniyatini ifodalaydi.

Differensial tenglamalar yordamida issiqlik almashinuvi, mexanik tebranishlar, elektr zanjirlaridagi tokning o‘zgarishi, biologik populyatsiyalar o‘sishi, iqtisodiy tizimlarning dinamikasi kabi jarayonlar modellashtiriladi. Bunday jarayonlarni o‘rganish uchun tenglamaning yechimini topish zarur bo‘ladi, bu esa ko‘pincha murakkab masalani tashkil etadi.

Differensial tenglamalarni yechishning ikki asosiy yo‘nalishi mavjud: analitik usullar va sonli usullar. Analitik usullar tenglama yechimini aniq matematik ifoda ko‘rinishida olishga imkon beradi. Bu yondashuv jarayonni to‘liq nazariy tahlil qilish imkonini bersa-da, murakkab yoki chiziqsiz tenglamalar uchun ularning aniq yechimini topish har doim ham imkoni bo‘lavermaydi.

Bunday hollarda sonli (numerik) usullar qo‘llanadi. Ular differensial tenglamaning yechimini kompyuter yordamida taxminiy, lekin amaliy jihatdan yetarlicha aniq natija shaklida hisoblab beradi. Zamonaviy hisoblash texnikasi va dasturiy vositalar (MATLAB, Python, Maple, Wolfram Mathematica va boshqalar) sonli usullarning qo‘llanilish doirasini yanada kengaytirdi.

Shu sababli, ushbu ishda differensial tenglamalarni yechishning analitik va sonli usullari o‘rganilib, ularning afzalliklari, kamchiliklari hamda o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Maqsad – har ikkala yondashuvning ilmiy va amaliy ahamiyatini ko‘rsatish, zamonaviy modellashtirishda ularning o‘zaro uyg‘unligini asoslab berishdan iborat.

1. Analitik usullar.

Analitik usul — differensial tenglama yechimini aniq matematik ifoda ko‘rinishida topishdir. Bunda yechim odatda funksiyalar, integrallar yoki maxsus funksiyalar orqali ifodalanadi.

Asosiy analitik usullar:

• Ajraluvchi o‘zgaruvchilar usuli

$$\frac{dy}{dx} = f(x)g(y) \Rightarrow \int \frac{dy}{g(y)} = \int f(x)dx$$

• Bir jinsli tenglamalar usuli

• Chiziqli differensial tenglamalar uchun integrallovchi ko‘paytuvchi usuli Bernulli va Rikatti tenglamalari uchun almashtirish usullari

• Ikkinchi tartibli chiziqli tenglamalar uchun xarakteristik tenglama usuli

• **Afzalliklari:**

• Yechim aniq va analitik shaklda olinadi.

• Jarayonning to‘liq matematik tavsifi beriladi.

• Tahliliy tadqiqotlar (stabilitet, asimptotika va h.k.) osonroq amalga oshiriladi.

Kamchiliklari:

• Murakkab yoki chiziqsiz differensial tenglamalar uchun aniq yechim topish qiyin yoki imkonsiz.

• Amaliy masalalarda analitik yechim ko‘p hollarda murakkab integral yoki maxsus funksiyalar orqali ifodalanadi.

Sonli usullar

Sonli (numerik) usullar differensial tenglamaning yechimini diskret nuqtalarda taxminiy hisoblash asosida quradi. Bu usullar zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida juda keng qo‘llanilmoqda. **Asosiy sonli usullar:**

• Euler usuli

$$y_{n+1} = y_n + hf(x_n, y_n)$$

• Runge–Kutta usullari (2-, 4-, 6-tartibli)

• Adams–Bashforth va Adams–Moulton usullari

• Prediktor–korrektor usullari

• Sonli integratsiya va differensiallash algoritmlari **Afzalliklari:**

• Har qanday murakkab, chiziqsiz, tizimli differensial tenglamalar uchun yechimni yaqinlashtirib topish mumkin.

• Kompyuter dasturlari (MATLAB, Python, Maple, Wolfram Mathematica) yordamida tez va samarali hisoblash mumkin.

• Analitik yechim mavjud bo‘lmagan holatlarda amaliy natijalar olish imkonini beradi.

Kamchiliklari:

• Yechim aniq emas, taxminiy bo‘ladi.

• Natija qadam uzunligi (h) va xatolik nazoratiga bog‘liq.

• Uzun vaqt oralig‘ida xatolik to‘planishi (error accumulation) mumkin.

Afzalliklari:

• Har qanday murakkab, chiziqsiz, tizimli differensial tenglamalar uchun yechimni yaqinlashtirib topish mumkin.

• Kompyuter dasturlari (MATLAB, Python, Maple, Wolfram Mathematica) yordamida tez va samarali hisoblash mumkin.

• Analitik yechim mavjud bo‘lmagan holatlarda amaliy natijalar olish imkonini beradi.

Kamchiliklari:

• Yechim aniq emas, taxminiy bo‘ladi.

• Natija qadam uzunligi (h) va xatolik nazoratiga bog‘liq.

• Uzun vaqt oralig‘ida xatolik to‘planishi (error accumulation) mumkin.

Analitik va sonli usullarning taqqoslanishi

Asosiy jihat	Analitik usul	Sonli usul
Yechim turi	Aniq matematik formula	Diskret nuqtalarda taxminiy qiymatlar
Qo‘llanilishi	Oddiy va ayrim turlardagi tenglamalar	Har qanday murakkab tizimlar
Hisoblash usuli	Algebraik, integral, differensial manipulyatsiyalar	Iteratsion hisoblash, algoritmik
Natija aniqligi	Juda yuqori	Qadam uzunligiga bog‘liq
Kompyuter yordami	Har doim shart emas	Zarur
Afzallik	Nazariy tahlil uchun qulay	Amaliy modellashtirishda samarali
Kamchilik	Hamisha yechim topilmaydi	Xatolik to‘planadi

4. Zamonaviy integratsiya yondashuvlari

Bugungi kunda ko‘plab tizimlarda analitik va sonli usullar birgalikda qo‘llanadi. Masalan:

- Simvolik-numerik algoritmlar (Mathematica, Maple) avval analitik tahlilni bajaradi, keyin sonli hisob-kitob qiladi.
- Mashina o‘rganish yordamida differensial tenglamalarning yechimini taxminlash (neural ODEs).
- Gibrid usullar – analitik yechim mavjud bo‘lgan qismini tahlil qilib, qolgan qismini sonli usul bilan hisoblash.

Xulosa.

Differensial tenglamalarni yechishda analitik va sonli usullar bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlardir. Analitik usullar nazariy tahlil uchun qulay bo‘lsa, sonli usullar amaliy hisobkitoblarda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar esa bu ikki yo‘nalishni integratsiyalab, murakkab jarayonlarni aniq va samarali modellashtirish imkonini yaratmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Muratali I. Bazarbayev Ziyoda R. Jurayeva Bobur T. Rakhimov Surayyo I. Ikhrorova. The importance of biological membranes in teaching biophysics.2025/12/11. Central Asian Journal of Medicine. 1/10. 26-38. OAK.uz Supreme Attestation Commission at the Cabinet Ministers of the Republic of Uzbekistan

2. Bobur T. Rakhimov. Methodology of teaching biophysics in higher medical education institutions. 2025/12/11. Central Asian Journal of Medicine. 1/10. 20-25.OAK.uz Supreme Attestation Commission at the Cabinet Ministers of the Republic of Uzbekistan

3. Muratali I. Bazarbayev Bobur T. Rakhimov Ziyoda R. Jurayeva. The importance of digital technologies in teaching biophysics in medical universities. 2025/12/11 Central Asian Journal of Medicine.1/10. 6-14. OAK.uz Supreme Attestation Commission at the Cabinet Ministers of the Republic of Uzbekistan.

4. Б Рахимов. The role of innovative educational technologies in teaching biophysics. 2023. Research and education. 2/3. 202-206.

5. Bobur T. Rakhimov. Advantages of Applying Modern Pedagogical Technologies in Teaching Biophysics to Medical Students. 2024/9/28. Patient-Centered Approaches to Medical Intervention. 1/16. 47-49. Francis Group, London.

6. Bobur Raximov. Innovative technologies in teaching biophysics. 2021/4/24. Tashkent medical academy.

7. B.T. Rakhimov S.F. Normamatov Z.R. Juraeva. The role of information technology in medicine and biomedical engineering in training future specialists during the period of digital transformation in education. 2024/6/6. Web of Agriculture: Journal of agricultural and biological sciences. 2/1.1-8.

8. B.T. Rakhimov, X.A. Muxitdinov, Z.R. Jo‘raeva. Алгоритм обучения биофизике с использованием инновационных образовательных технологий. 30.03.2023 Innovative Development in Educational Activities issn: 2181-3523 volume 2 issue 6 2023. 191-200.

9. M.I. Bazarbaev, D.I. Sayfullaeva, B.T. Rakhimov, Z.R. Joraeva Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. 10.10.2022. T.T.A. Ахборотномаси. 8-13.

10. B.T.Rakhimov. Современное состояние биофизики и особенности преподавания биофизики в медицинском вузе. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. Italia © Sp. z o. o. "CAN", 2021 © Authors, 18-27.

11. B.T. Rakhimov, M.I. Bazarbaev, A.Z. Sobirjonov Состояние проблемы подготовки студентов-медиков к решению профессиональных задач в обучении биофизике. New Day in Meditcina. www.bsmi.uz https://newdaymedicine.com E: ndmuz@mail.ru. 4/54/200-207

12. M.I. Bazarbayev, B.T. Rakhimov, A.Z. Sobirjonov, D.I. Sayfullayeva, Z.R. Jurayeva, S.I. Ixrorova The Importance of Digital Technologies in the Teaching of Fundamental Sciences in Medical Universities. American Journal of Medicine and Medical Sciences. American Journal of Medicine and Medical Sciences 2023, 13(6): 814-820 DOI: 0.5923/j.ajmms.2023.13.06.09

TIZIMLI VASKULITLARDA YUZ-JAG‘ SOHASIDAGI YIRINGLI-NEKROTIK ASORATLARNI TASHXISLASHNING KLINIK VA MOLEKULYAR-GENETIK TEKSHIRUV NATIJALARI TAHLILI

Boymuradov Shuxrat Abdujalilovich – t.f.d., professor
Hayitmurodov Davron Ergash o‘g‘li – assistent
Djurayev Jamolbek Abdukaxarovich – t.f.d., professor
Berdiyeva Dilfuza Umirzoqovna – t.f.n., assistent
Soatov Ilyosjon Olim o‘g‘li – t.f.n., assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Tizimli vaskulitlar – multisistemali autoimmun kasalliklar bo‘lib, kichik va o‘rta tomirlarning nekrotik yallig‘lanishi bilan xarakterlanadi. Yuz-jag‘ sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlar bemorlar salomatligi va hayot sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda 2023–2026 yillarda Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ko‘p tarmoqli klinikasi revmatologiya va Kattalar LOR va yuz-jag‘ jarrohligi bo‘limlarida olib borilgan. 110 nafar bemorda yuz-jag‘ sohasidagi nekrotik jarayonlarni erta aniqlash maqsadida klinik, laborator va molekulyar-genetik tekshiruvlar o‘tkazildi. Tadqiqotda ERG1, C1QTNF3 va TNFAIP3 genlari tekshirildi. Klinik va genetik tekshiruvlar asosida yuz-jag‘ sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarni aniqlash va kasallik faolligi bilan bog‘liq korrelyatsiyalar tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *tizimli vaskulit, yuz-jag‘ sohasidagi nekrotik jarayonlar, molekulyar-genetik tekshiruv, klinik diagnostika.*

ANALYSIS OF CLINICAL AND MOLECULAR-GENETIC FINDINGS IN THE DIAGNOSIS OF PURULENT-NECROTIC COMPLICATIONS OF THE MAXILLOFACIAL REGION IN SYSTEMIC VASCULITIDES

Boymuradov Shukhrat Abdujalilovich – D.M.Sc., professor
Hayitmurodov Davron Ergashevich – assistant
Djurayev Jamolbek Abdukakharovich – D.M.Sc., professor
Berdiyeva Dilfuza Umirzoqovna – Ph.D., assistant
Soatov Ilyosjon Olimovich – Ph.D., assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *Systemic vasculitides are multisystem autoimmune diseases characterized by necrotizing inflammation of small- and medium-sized blood vessels. Purulent-necrotic lesions of the maxillofacial region have a significant impact on patients’ health status and quality of life. This study was conducted between 2023 and 2026 at the Departments of Rheumatology, Otorhinolaryngology, and Maxillofacial Surgery of the Multidisciplinary Clinic of Tashkent State Medical University. To achieve early detection of necrotic processes in the maxillofacial region, clinical, laboratory, and molecular-genetic investigations were performed in 110 patients. The study focused on the analysis of ERG1, C1QTNF3, and TNFAIP3 genes. Based on integrated clinical and genetic assessments, purulent-necrotic lesions of the maxillofacial region were identified, and their correlations with disease activity were analyzed.*

Keywords: *systemic vasculitis, maxillofacial necrotic lesions, molecular genetic analysis, clinical diagnostics.*

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ КЛИНИЧЕСКИХ И МОЛЕКУЛЯРНО-ГЕНЕТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ДИАГНОСТИКЕ ГНОЙНО-НЕКРОТИЧЕСКИХ ОСЛОЖНЕНИЙ ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ОБЛАСТИ ПРИ СИСТЕМНЫХ ВАСКУЛИТАХ

Боймурадов Шухрат Абджалилович – д.м.н., профессор
Хайитмуродов Даврон Эргаш угли – ассистент
Джураев Джамолбек Абдукахарович – д.м.н., профессор
Бердиева Дилфуза Умирзоковна – к.м.н., ассистент
Соатов Илёсжон Олим угли – к.м.н., ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Системные васкулиты представляют собой мультисистемные аутоиммунные заболевания, характеризующиеся некротизирующим воспалением сосудов малого и среднего калибра. Гнойно-некротические процессы челюстно-лицевой области оказывают существенное влияние на состояние здоровья пациентов и качество их жизни. Настоящее исследование проводилось в 2023–2026*

годах на базе ревматологического, оториноларингологического и отделения челюстно-лицевой хирургии многопрофильной клиники Ташкентского государственного медицинского университета. С целью раннего выявления некротических процессов челюстно-лицевой области у 110 пациентов были выполнены клинические, лабораторные и молекулярно-генетические исследования. В рамках исследования были проанализированы гены ERG1, C1QTNF3 и TNFAIP3. На основании комплексной оценки клинических и генетических показателей проведён анализ выявления гнойно-некротических процессов челюстно-лицевой области и их корреляции с активностью заболевания.

Ключевые слова: *системные васкулиты, некротические процессы челюстно-лицевой области, молекулярно-генетические исследования, клиническая диагностика.*

Tizimli vaskulitlar, jumladan Vegener granulematozi va mikroskopik poliangiit kabi kasalliklar, kichik va o‘rta tomirlarning nekrotik yallig‘lanishi bilan xarakterlanadi [1,8]. Bunday jarayonlar ko‘pincha respirator tizim, buyraklar va terini ta’sir qiladi, biroq yuz-jag‘ sohasidagi nekrotik va yiringli jarayonlar ko‘pincha dastlabki bosqichda klinik jihatdan kam namoyon bo‘ladi. Natijada suyak va yumshoq to‘qimalarda qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Ularda yallig‘lanish jarayonlari ko‘pincha butun organizmga ta’sir qiladi, shu jumladan respirator tizim, buyraklar, teri va nerv tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Biroq yuz-jag‘ sohasidagi nekrotik va yiringli jarayonlar ko‘pincha dastlabki bosqichda klinik jihatdan sezilmaydi. Bu esa patologiyani kech aniqlanishiga olib keladi, natijada suyak va yumshoq to‘qimalarda qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Shu sababli tizimli vaskulitlar bilan kasallangan bemorlarning yuz-jag‘ sohasidagi yiringli-nekrotik asoratlarni erta aniqlash juda dolzarb hisoblanadi [3,6].

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar tizimli vaskulitlar bilan kasallangan bemorlarning yuz-jag‘ sohasidagi destruktiv jarayonlarga uchrash xavfi yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, Vegener granulematozi bilan kasallangan bemorlarning 40–60% da yuz-jag‘ sohasida yiringli yoki nekrotik o‘zgarishlar uchraydi [2,8,16]. Ushbu patologiya nafaqat kosmetik va funksional buzilishlarga, balki jiddiy asoratlar – suyak yo‘qolishi, sinus devorlarining yemirilishi, og‘riq va infektsiyalarning tarqalishiga olib keladi.

Yuz-jag‘ sohasidagi nekrotik jarayonlarni kech aniqlash bemorlarda murakkab jarrohlik aralashuvini talab qiladi. Shu sababli ularni erta tashxislash kasallik oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. Dolzarblikni yana bir jihat – bemorlar hayot sifatiga bo‘lgan ta’siri. Yiringli jarayonlar va nekroz kosmetik deformatsiya, og‘riq sindromi, ovqatlanish va nutq funktsiyalarining buzilishi bilan bog‘liq [4,15]. Bu esa bemorlarning ijtimoiy faoliyati va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuz-jag‘ sohasidagi nekrotik jarayonlarni erta aniqlashda kompleks klinik va laborator tekshiruvlarning dolzarbligi beqiyosdir. Klinik tekshiruvlar bemorning yumshoq to‘qimalar shishi, og‘riq darajasi, fistula va nekrotik o‘choqlarning mavjudligini baholash imkonini beradi. Lekin faqat klinik ko‘rsatkichlarga tayangan holda tashxis qo‘yish yetarli emas, chunki dastlabki bosqichlarda belgilar noaniq bo‘lishi mumkin [5,14,15].

Laborator tekshiruvlar esa yallig‘lanish faolligini aniqlash, tizimli jarayonlarni baholash va prognoz qilishda muhim vosita hisoblanadi. Misol uchun, C-reaktiv protein (CRP) va eritrotsit sedimentatsiyasi (ESR) kabi markerlar yallig‘lanish intensivligini ko‘rsatadi. Umumiy qon tahlili esa leykozitlar va trombotsitlar o‘zgarishini aniqlash imkonini beradi. Immunologik ko‘rsatkichlar – c-ANCA va p-ANCA – tizimli vaskulitlar bilan bog‘liq autoimmun mexanizmlarning faolligini aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, molekulyar-genetik tekshiruvlar yuz-jag‘ sohasidagi nekrotik jarayonlarni erta aniqlashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, ERG1, C1QTNF3 va TNFAIP3 genlaridagi mutatsiyalar vaskulit rivojlanishiga va yallig‘lanish jarayonining intensivligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu genetik markerlar yordamida bemorlarni yuqori xavf guruhiga ajratish va individual davolash strategiyasini belgilash mumkin.

Yuz-jag‘ sohasidagi nekrotik jarayonlarni aniqlashda kompyuter tomografiyasi (KT) va oddiy rentgenografiya juda dolzarb hisoblanadi. KT yumshoq to‘qimalar, suyak va sinuslarning strukturasini aniqlashga imkon beradi. Osteolitik jarayonlar, kortikal plastinka destruksiyasi va sinus devorining yemirilishi kabi belgilar dastlabki bosqichda aniqlansa, davolash samaradorligi oshadi [4,9,11]. Shu bilan birga, rentgenologik tekshiruvlar klinik va laborator indikatorlar bilan birlashtirilganda erta tashxis qo‘yish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

Yuz-jag‘ sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlar vaqtida aniqlanmasa, ular quyidagi jiddiy oqibatlarga olib keladi:

1.Suyak destruksiyasi va funktsional buzilishlar: maksillyar va mandibula suyaklarining yemirilishi, tish yo‘qolishi, yuz assimetriyasi.

2.Infektsiya tarqalishi: yiringli o‘choqlar atrofidagi yumshoq to‘qimalarga va sinuslarga tarqaladi.

3.Og‘riq sindromi va hayot sifatining pasayishi: bemorlar doimiy og‘riq va noqulaylikdan aziyat chekadi, bu ularning ijtimoiy va psixologik holatiga salbiy ta’sir qiladi.

So‘nggi yillarda molekulyar-genetik tekshiruvlar tizimli vaskulitlarda diagnostika va prognoz

qilishning muhim vositasiga aylangan. ERG1 genidagi mutatsiyalar yallig‘lanish jarayonining intensivligi bilan bog‘liq bo‘lib, nekrotik jarayonlar rivojlanish xavfini oshiradi. C1QTNF3 genining o‘zgarishlari immunitet va komplement tizimi faolligini o‘zgartiradi, bu esa yiringli jarayonlarni tezlashtiradi. TNFAIP3 genidagi mutatsiyalar NF-κB signallash yo‘lini faollashtiradi va yallig‘lanish jarayonini kuchaytiradi [7,13].

Klinik tekshiruvlar natijasida 110 bemorning 92 (83,6%) da yumshoq to‘qimalar shishi, 78 (70,9%) da kuchli og‘riq, 64 (58,2%) da nekrotik o‘choqlar aniqlangan. Fistula va yuz assimetriyasi mos ravishda 37,3% va 32,7% bemorlarda kuzatilgan.

Jadval 1.

Klinik belgilar chastotasi (n=110)

Belgilar	Bemorlar soni	%
Yumshoq to‘qimalar shishi	92	83,6
Og‘riq	78	70,9
Nekrotik o‘choqlar	64	58,2
Fistula	41	37,3
Yuz assimetriyasi	36	32,7

Jadval 2.

Laborator ko‘rsatkichlar (o‘rtacha ± SD)

Ko‘rsatkich	Norma	Natija
Leykotsitlar ($\times 10^9$/l)	4–9	11,8 ± 2,6
Trombotsitlar ($\times 10^9$/l)	150–400	432,6 ± 48,1
ESR (mm/soat)	≤15	46,7 ± 12,3
CRP (mg/l)	≤5	38,5 ± 14,7
Fibrinogen (g/l)	2–4	5,6 ± 0,9

ERG1: 110 bemorning 36 (32,7%) da heterozigot mutatsiya, 12 (10,9%) da homozygot mutatsiya aniqlangan. Mutatsiya mavjud bemorlarda yallig‘lanish faolligi va nekrotik jarayonlar chuqurligi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan ($p<0,05$). C1QTNF3: 24 (21,8%) bemorda mutatsiya mavjudligi aniqlangan, bu bemorlarda yuz-jag‘ sohasidagi yiringli jarayonlar tez-tez va og‘ir kechgan. TNFAIP3: 19 (17,3%) bemorda mutatsiya mavjud, NF-κB yo‘li faolligi oshgan va yallig‘lanish markerlari yuqori bo‘lgan.

Jadval 3.

Gen tekshiruvlar natijalari

Gen	Mutatsiya mavjud bemorlar	%	Klinik og‘irlik bilan bog‘liqlik
ERG1	48	43,6	Yuqori
C1QTNF3	24	21,8	O‘rta-yuqori
TNFAIP3	19	17,3	Yuqori

Bu genetik markerlar yordamida bemorlarni yuqori xavf guruhiga ajratish, profilaktik choralarni belgilash va individual davolash strategiyasini ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, genetik tekshiruvlar yiringli jarayonlar rivojlanishining molekulyar mexanizmlarini tushunishga yordam beradi va yangi davolash usullarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuz-jag‘ sohasidagi nekrotik jarayonlarni erta aniqlash nafaqat patologiyani tashxislash, balki bemorning umumiy holatini baholash, kasallik faolligini aniqlash va davolash samaradorligini oshirish imkonini beradi. Klinik tekshiruvlar yallig‘lanish darajasini baholashga yordam beradi, laborator va molekulyar-genetik ko‘rsatkichlar esa jarayonning chuqurligi va prognozini aniqlashga imkon beradi. Radiologik tekshiruvlar suyak va yumshoq to‘qimalardagi o‘zgarishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shu tarzda, integratsiyalashgan yondashuv bemorlarni tezkor va aniq tashxislash imkonini beradi.

Kam moyillikka ega bo‘lgan bemorlar ulushi (taxminan 30%) bo‘yicha natijalarimiz barqaror yurak ishemik kasalligi va o‘tkir koronar sindromlardan keyin bemorlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar ma’lumotlari bilan taqqoslanadi. Ko‘p markazli tadqiqotlardan birida koronar kasalliklarda farmakologik befarqlik chastotasi 36% ni tashkil etdi, befarqlik takroriy hodisalar va kasalxonaga yotqizish xavfining oshishi bilan bog‘liq edi. Bizda kuzatilgan past darajadagi ta’lim, polipragmaziya va dori terapiyasiga bo‘lgan salbiy e’tiqodlarning past sodiqlik bilan bog‘liqligi ish ma’lumotlariga mos keladi, bu yerda ushbu omillar koronar va boshqa yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarda sodiqlikning asosiy prediktorlari orasida ham ajratib ko‘rsatilgan. Bir qator tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, ham obyektiv (narx, sxemaning murakkabligi), ham kognitiv/hissiy omillar (nojo‘ya ta’sirlardan qo‘rqish, davolash zarurligiga shubha) sodiqlik to‘siqlari majmuasini shakllantiradi[5,6,9].

Aniqlangan omillarning klinik ahamiyati. Ta’limning past darajasini past sodiqlikning mustaqil prediktori sifatida aniqlash bemorning salomatlik va savodxonligini hisobga olgan holda moslashtirilgan ta’lim strategiyalarining muhimligini ta’kidlaydi. Yurak ishemik kasalligi va surunkali yurak yetishmovchiligi bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, past ta’lim tayyorgarligi va cheklangan tibbiy savodxonlik terapiya rejimini tushunishning yomonlashishi, dorilarning foydasi haqida kam xabardorlik va dozani o‘tkazib yuborishning yuqori chastotasi bilan bog‘liq. Tadqiqotimizdagi polipragmaziya ham past sodiqlik bilan bog‘liq bo‘lib, bu buyurilgan dorilar sonining ko‘payishi ham tasodifiy (unutish, chalkashlik), ham qasddan sodiq bo‘lmaslik ("haddan tashqari ko‘p tabletkalar" hissi) ehtimolini oshirishi haqidagi ma’lumotlarga mos keladi. Nihoyat, xavfsizlik va uzoq muddatli farmakoterapiya zarurligi haqidagi salbiy e’tiqodlar past sodiqlik uchun mustaqil xavf omili bo‘lib xizmat qildi, bu esa davolash zarurligiga ishonchning pastligi va zarar xavfi bo‘yicha yuqori xavotirlar dorilarni o‘tkazib yuborish va o‘zboshimchalik bilan bekor qilishga moyillikni kuchaytiradi degan tushunchaga mos keladi.[5,6,10,11].

Tadqiqot natijalarining amaliy oqibatlari aniqlangan modifikatsiyalanuvchi omillarga qaratilgan maqsadli aralashuvlar zarurati bilan bog‘liq. Xalqaro ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, CBKSda sodiqlikni oshirish uchun tizimli ta’lim maslahati, keyinchalik telefon orqali qo‘llab-quvvatlash, klinik farmakologlarning ishtiroki va raqamli texnologiyalardan (eslatmalar, mobil ilovalar) foydalanishni o‘z ichiga olgan keng qamrovli dasturlar samaradorligini ko‘rsatmoqda. Qabul qilish sxemasini soddalashtirishga qaratilgan aralashuvlar (karralikni kamaytirish, belgilangan kombinatsiyalar) sodiq bo‘lmagan bemorlar ulushining pasayishini va ikkilamchi profilaktika ko‘rsatkichlarining yaxshilanishini ko‘rsatdi. Salbiy e’tiqodlarning rolini hisobga olgan holda, Beliefs about Medicines Questionnaire kabi so‘rovnomalardan foydalanish va bemorning terapiyaning foydasi va xavfi haqidagi tasavvurlarini maqsadli ravishda tuzatish alohida ahamiyatga ega. Ko‘p tarmoqli markazning kardiologiya shifoxonasi sharoitlari uchun qisqa muddatli sodiqlik skriningi (MMAS-8 yoki uning muqobili) va kasalxonadan chiqishdagi to‘siqlarni joriy etish, keyinchalik shaxsiy tavsiyalar berish va ma’lumotlarni poliklinika bo‘g‘iniga yetkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.[12-14].

Bizning tadqiqotimizda kardiologik shifoxonaning haqiqiy klinik amaliyotiga e’tibor qaratish, tasdiqlangan majburiyatni baholash vositasidan (MMAS-8) foydalanish va potensial prediktorlarni, shu jumladan klinik-demografik va psixosotsial xususiyatlarni to‘plashga kompleks yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin. Shunga o‘xshash ko‘p omilli yondashuv sodiqlikni o‘rganishga bag‘ishlangan zamonaviy sharhlarda tavsiya etiladi, chunki u bir vaqtning o‘zida aralashuvlar uchun bir nechta o‘zgartiriladigan nishonlarni ajratish imkonini beradi. Bundan tashqari, logistik regressiyani qo‘llagan holda mustaqil prediktorlarni tahlil qilish bunday ko‘ndalang tadqiqotlar uchun uslubiy standartlarga mos keladi. Shu bilan birga, natijalarni talqin qilishda bir qator cheklovlarni hisobga olish kerak. Birinchidan, bir lahzali kross-seksiya dizayni aniqlangan omillar va pasaygan sodiqlik o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalari haqida xulosa chiqarishga imkon bermaydi; faqat assotsiatsiyalar haqida gapirish mumkin. Ikkinchidan, majburiyatni baholash MMAS-8 yordamida o‘z-o‘ziga hisobot berish usuli bilan amalga oshirildi, bu potensial ravishda axborotning siljishi xavfi bilan bog‘liq (recall bias, ijtimoiy maqbul javoblar) va odatda haqiqiy majburiyatni qayta baholashga olib keladi. Uchinchidan, bitta markazning kichik hajmi tahlilning statistik quvvatini va natijalarning umumlashtirilishini cheklaydi, ayniqsa boshqa mintaqalar va turdagi tibbiyot muassasalarida SBK bilan og‘rigan bemorlarning kengroq populyatsiyasi uchun.

Olingan natijalarni hisobga olgan holda, SBK bilan og‘rigan bemorlarda moyillik to‘siqlarini tuzatishga qaratilgan kardiologlar, klinik farmakologlar va tibbiy psixologiya mutaxassislari ishtirokidagi ko‘p tarmoqli aralashuv tadqiqotlari istiqbolli hisoblanadi. Keyinchalik, tanlovni kengaytirish, bir nechta markazlarni o‘z ichiga olish va mustaqil hisobot shkalalarini ob’ektiv sodiqlikni baholash usullari bilan birlashtirish maqsadga muvofiqdir, bu mavzu bo‘yicha zamonaviy sharhlarda tavsiya etiladi. Alohida yo‘nalish - ikkilamchi profilaktikaga sodiqlikni oshirish yurak ishemik kasalligi bilan og‘rigan bemorlarda hodisalar xavfini sezilarli darajada kamaytirishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarga asoslanib, real amaliyot sharoitida "qattiq" klinik natijalarga (takroriy infarktlar, kasalxonaga yotqizish, o‘lim) sodiqlikni yaxshilashning ta’sirini baholash.

Xulosa.

Olingan natijalarga asoslanib, surunkali yurak ishemik kasalligi bilan og‘rigan bemorlarda dori-darmon terapiyasiga past va o‘rtacha sodiqlikning sezilarli ulushi aniqlandi, bu xorijiy tadqiqotlar ma’lumotlari bilan taqqoslanadi. Past sodiqlik, birinchi navbatda, past ta’lim darajasi, polipragmaziya va uzoq muddatli dori-darmonlarni qabul qilish haqidagi salbiy e’tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu ta’lim va terapevtik to‘siqlarning kombinatsiyasini aks ettiradi. Ushbu omillar potensial ravishda o‘zgartirilishi mumkin, shuning uchun davolash sxemalarini soddalashtirish, maqsadli o‘qitish va terapiyaning foydasi va xavfsizligi haqidagi e’tiqodlar bilan ishlash ushbu toifadagi bemorlarda sodiqlikni oshirish va prognozni yaxshilash uchun istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Leslie KH, McCowan C, Pell JP. Adherence to cardiovascular medication: a review of systematic reviews. *J Public Health*. 2019;41(1): e84-e94. doi:10.1093/pubmed/fdy088

2. Hou Q, Zhao Y, Wu Y. Medication adherence trajectories and clinical outcomes in patients with cardiovascular disease: a systematic review and meta-analysis. *J Glob Health*. 2025; 15:04145. doi:10.7189/jogh.15.04145

3. Chowdhury R, Khan H, Heydon E, et al. Adherence to cardiovascular therapy: a meta-analysis of prevalence and clinical consequences. *Eur Heart J*. 2013;34(38):2940-2948. doi:10.1093/eurheartj/eht295

4. Chen C, Li X, Su Y, You Z, Wan R, Hong K. Adherence with cardiovascular medications and the outcomes in patients with coronary arterial disease: “Real-world” evidence. *Clin Cardiol*. 2022;45(12):1220-1228. doi:10.1002/clc.23898

5. Padilha JC, Santos VB, Lopes CT, Lopes JDL. Prevalence of pharmacological adherence in patients with coronary artery disease and associated factors. *Rev Lat Am Enfermagem*. 2021;29: e3464. doi:10.1590/1518-8345.4554.3464

6. Khatib R, Marshall K, Silcock J, Forrest C, Hall AS. Adherence to coronary artery disease secondary prevention medicines: exploring modifiable barriers. *Open Heart*. 2019;6(2): e000997. doi:10.1136/openhrt-2018-000997

7. Lima JGD, Barros ALBLD, Lopes JDL. Factors associated with medication non-adherence among patients with heart failure. *Rev Lat Am Enfermagem*. 2024;32: e4302. doi:10.1590/1518-8345.6756.4302

8. Kalantarzadeh M, Yousefi H, Alavi M, Maghsoudi J. Adherence Barriers to Treatment of Patients with Cardiovascular Diseases: A Qualitative Study. *Iran J Nurs Midwifery Res*. 2022;27(4):317-324. doi: 10.4103/ijnmr.ijnmr_307_21

9. Almarwani AM, Almarwani BM. Factors predicting medication adherence among coronary artery disease patients in Saudi Arabia: A descriptive study. *Saudi Med J*. 2023;44(9):904-911. doi:10.15537/smj.2023.44.9.20230293

10. Khoiry QA, Alfian SD, Van Boven JFM, Abdulah R. Self-reported medication adherence instruments and their applicability in low-middle income countries: a scoping review. *Front Public Health*. 2023; 11:1104510. doi:10.3389/fpubh.2023.1104510

11. Dugunchi F, Mudgal SK, Marznaki ZH, et al. Levels of adherence to treatment, illness perception and acceptance of illness in patients with coronary artery disease - descriptive and correlational study. *BMC Cardiovasc Disord*. 2024;24(1):171. doi:10.1186/s12872-024-03827-w

12. Marselin A, Amalia L, Dinarti LK. The interventions to improve medication adherence in coronary heart disease patient: A systematic review. *J Saudi Heart Assoc*. 2023;35(4). doi:10.37616/2212-5043.1356

13. Pedretti RFE, Hansen D, Ambrosetti M, et al. How to optimize the adherence to a guideline-directed medical therapy in the secondary prevention of cardiovascular diseases: a clinical consensus statement from the European Association of Preventive Cardiology. *Eur J Prev Cardiol*. 2023;30(2):149-166. doi:10.1093/eurjpc/zwac204

14. Improving Medication Adherence among Patients with Coronary Heart Disease. *Fam Med Prim Care Open Access*. 2019;3(2). doi:10.29011/2688-7460.100033

XAVFSIZ PROSTATA GIPERPLAZIYASI BILAN OG'RIGAN BEMORLARNI DAVOLASHDA α1 – ADRENOBLOKATOR – TAMSULOZINNING QO'LLANILISHI

Nuralieva Rano Matyakubovna – assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O'zbekiston)

Annotatsiya*. 29 nafar erkaklar, xavfsiz prostata bezining giperplaziyasi bilan kasallanganlar, α_1–adrenoblokator – tamsulozin bilan davolanishgan. Tamsulozin bilan davolanish olib borilgan prostata bezining giperplaziyasi bilan kasallangan bemorlar guruhlarida hayot sifatini baholash natijalari tahlili, bemorlarni davolash jarayonida hayot sifatining sezilarli yaxshilanishini ko'rsatdi. Ko'pchilik bemorlarda tamsulozin qabul qilish vaqtida nolo'ya ta'sirlar kam darajada bo'lib, ular bemorning kundalik faoliyatiga to'sqinlik qilmagan.*

Kalit so'zlar: *xavfsiz prostata bezining giperplaziyasi, α_1–adrenoblokator, tamsulozin, nikturiya.*

ПРИМЕНЕНИЕ α_1 – АДРЕНОБЛОКАТОРА – ТАМСУЛОЗИНА ПРИ ЛЕЧЕНИИ БОЛЬНЫХ ДОБРОКАЧЕСТВЕННОЙ ГИПЕРПЛАЗИЕЙ ПРОСТАТЫ

Нуралиева Рано Матьякубовна – ассистент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *Под наблюдением находились 29 мужчин с доброкачественной гиперплазией предстательной железы, которым проводилось лечение α_1 – адреноблокатором – тамсулозином. Анализ результатов оценки показателя качества жизни в группах больных гиперплазией предстательной железы, получавших медикаментозное лечение тамсулозином, продемонстрировал достоверное улучшение качества жизни в процессе лечения пациентов. У большинства пациентов выраженность побочных реакций при приеме тамсулозина была незначительной, и она не мешала ежедневной активности пациента.*

Ключевые слова: *доброкачественная гиперплазия предстательной железы, α_1 –адреноблокатор, тамсулозин, никтурия.*

USE OF α_1-ADRENOCEPTOR BLOCKER – TAMSULOSIN IN THE TREATMENT OF PATIENTS WITH BENIGN PROSTATIC HYPERPLASIA

Nuraliyeva Rano Matyakubovna – assistant
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract. *Forty-nine men with benign prostatic hyperplasia were under observation and received treatment with an α1-adrenoblocker—tamsulosin. The analysis of quality-of-life assessment results in groups of patients with prostatic hyperplasia who were treated with tamsulosin showed a significant improvement in quality of life during the treatment process. In most patients, the severity of side effects from taking tamsulosin was minimal and did not interfere with the patients' daily activities.*

Key words: *benign prostatic hyperplasia, α_1-adrenoblocker, tamsulosin, nicturia.*

Kirish. Xavfsiz prostata bezining giperplaziyasi (XPG) 50 yoshdan oshgan erkaklarda yoshga bog'liq gormonal o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Shuningdek, oldin o'tgan prostatitlar va past jismoniy faollik (gipodinamiya), kichik chanoqdagi venoz qonning to'planishiga sabab bo'ladigan holatlar ham muhim ahamiyatga ega. 60 yoshga kelgan erkaklarning yarmidan ko'prog'ida XPG uchraydi, 80 yoshdan keyin esa bu ko'rsatkich 80-90% gacha yetadi.

Shunga qaramay, faqat har to'rtinchisi siydik chiqarish buzilishlari belgilariga ko'ra shifokorga murojaat qiladi. Belgilarning og'irligi prostata to'qimasining kattaligiga emas, balki tugunlarning shakli va ularning o'sish yo'nalishiga bog'liq. Agar prostata to'qimasi to'g'ri ichak tomon o'ssa, siydik chiqarish bilan bog'liq belgilar uzoq vaqt davomida bezovta qilmaydi. Agar tugunlar siydik pufagi ichki bo'shlig'iga o'sa boshlasa, kasallik juda tez va noqulay tarzda o'zini namoyon etadi. Bemorni kechasi 3-5 marta yoki undan ko'p siydik chiqarish bezovta qiladi, siydik pufagini to'liq bo'shata olmaslik hissi paydo bo'ladi. Siydik oqimi qalin, uzilishli bo'ladi, siydik chiqarishni boshlashda zo'riqish zarur bo'ladi, oxirida esa tomchilab tomishi noqulaylik tug'diradi [1,2].

Ob'ektiv belgilar: siydik chiqarish ko'rsatkichlarining yomonlashishi va siydik pufagida qolgan siydik miqdorining ortishi. Hayot davomiyligining oshishi va aholining umumiy qarishi bilan xavfsiz prostata bezining giperplaziyasimuammosi tobora ko'proq bemorlarni qamrab olmoqda.

So’nggi yillarda tadqiqotchilar xavfsiz prostata bezining gipepпplaziyasini jarrohlik usullarisiz o’sishini kamaytirish yoki kamida to’xtatish yo’lini topishga harakat qilishmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — xavfsiz prostata bezining giperplaziyasi (XPG) bilan kasallangan bemorlarda α_1–adrenoblokator — tamsulozin davolashining samaradorligi va xavfsizligini o’rganishdir.

Tadqiqot materiali va usullari. Xavfsiz prostata bezining giperplaziyasi (XPG) bilan bog’liq siydik chiqarish buzilishlari bir nechta omillarga bog’liq: mexanik omil — prostata bezining kattalashishi; dinamik omil — siydik pufagi chiqish joyida va prostata bo’limi siydik yo’lining butun uzunligida joylashgan silliq mushaklarning kuchaygan tarangligi; shuningdek, siydik pufagining normal boshqaruvining buzilishi natijasida uning bezovtaligi, bu esa kunduzgi va tungi tez-tez siydik chiqarish hamda siydikni ushlab turishda qiyinchilik kabi belgilar paydo bo’lishiga olib keladi [5,7,11].

Prostata adenomasida silliq mushak elementlari, ko’p miqdorda α_1 – adrenoretseptorlarga ega bo’lib, uning hajmining taxminan 40% ini tashkil etadi. Adenomaning o’sishi α_1 – adrenoretseptorlarni stimulyatsiya qilib, faqat prostata bezining emas, balki siydik pufagi bo’yni va orqa siydik yo’lining silliq mushaklarining tonusini ham oshiradi. Prostata bezida bir nechta adrenoretseptor subtiplari mavjud (α_1-A, α_1-B, α_1-D), ammo eng ko’p tarqalganlari α_1–A retseptorlardir.

Xavfsiz prostata bezining giperplaziyasini (XPG) davolash konservativ terapiyani (alfa-adrenoblokatorlar, 5α-reduktaza ingibitorlari) hamda jarrohlik usullarini (lazerli enukleatsiya) o‘z ichiga oladi bo‘lib, ular pastki siydik yo‘llari simptomlarini kamaytirish va asoratlarning oldini olishga qaratilgan. Shuning uchun prostata adenomasiga chalingan bemorlarni davolashda α_1-adrenoretseptorlarning selektiv blokatorlari (faqat α_1-adrenoretseptorlarga ta’sir qiluvchi) yoki superselektiv α_1-A adrenoblokatorlari qo’llaniladi. Bu vositalar siydik pufagi bo’yni, orqa siydik yo’li va prostata bezining silliq mushaklarining tonusini pasaytiradi va shu orqali siydik chiqarishning dinamik buzilishlarini kamaytiradi yoki butunlay yo’q qiladi. Dori vositalari detruzor va siydik pufagi sfinkterining muvofiqlashtirilgan ishini tiklaydi, bu esa siydik chiqarish jarayonining normallashishiga yordam beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, α_1–A adrenoblokatorlari nafaqat silliq mushaklarning tonusini pasaytiradi, balki siydik pufagi arteriyalarini kengaytirib, uning gipoksiyasini (kislorod yetishmovchiligi) bartaraf etadi va pufak devoridagi almashinuv jarayonlarini yaxshilaydi [3,4].

Tamsulozin (OMNIK) α_1-adrenoblokatorlar guruhining selektiv vakili hisoblanadi. U siydik pufagi bo‘yni, prostata va siydik chiqarish kanalining silliq mushaklariga α1-adrenoretseptorlar ta’sirini bloklaydi. Shu tariqa ushbu mushaklarning tonusi va intrauretral bosim, ya’ni siydik pufagidan siydik chiqishiga bo‘lgan qarshilik kamayadi. Bu siydik oqimini yaxshilaydi.

Boshqa tomondan, siydik pufagi devorida joylashgan retseptorlarga ta’sir ko‘rsatib, tamsulozin qo‘zg‘alish simptomlarini kamaytiradi va siydik tutilishining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Nazorat ostida 64 dan 75 yoshgacha bo’lgan 29 nafar erkak bemorlar bo’lgan. Tamsulozin bilan davolangan bemorlar guruhida xavfsiz prostata bezining giperplaziyasi (XPG) kasalligining davomiyligi 6 oydan 1 yilgacha bo’lgan (o’rtacha 7,5 oy). Bemorlar so’nggi oy ichida siydik pufagini to’liq bo’shata olmaslik hissini yarmidan kamroq hollarda, oxirgi siydik chiqarishdan so’ng 2 soatdan kamroq muddatda tez-tez siydik chiqarish ehtiyojini taxminan yarmida, siydik chiqarishni boshlashda qiynalish va birdaniga keladigan siydik chiqarish istagini esa ko’rsatganlar. Siydik chiqarish soni kechasi 13-15 martagacha ko’paygan va oqimi zaif bo’lgan. Arterial qon bosimi 132/87 dan 143/88 mm simob ustunigacha o’zgarib turgan [6].

Per rektum barmoq bilan tekshiruvda prostata bezining kattalashgani aniqlangan, to’qimasi zich, o’rta chiziq silliqlashgan edi. Qolgan siydik miqdori 210 dan 390 ml gacha edi. Ultratovush tekshiruvi ma’lumotlariga ko’ra, prostata bezining siydik pufagi bo’shlig’iga 1-2 sm chiqib turgani va uning echogenligi oshgani aniqlangan. Bemorlar tamsulozinni kuniga 0,4 mg dozada, ovqatdan keyin bir martada qabul qilishgan.

Natijalar va ularning muhokamasi. Davolash jarayonida siydik-tanosil tizimi organlarida ijobiy o’zgarishlar qayd etildi. Davolashning 4-5-kunlarida siydik pufagini to’liq bo’shata olmaslik hissi 5 ta holatdan 1 martadan kamroq kuzatildi. Siydik chiqarish ehtiyoji kamayib, 4 ta holatdan 1 martadan kamroq kuzatildi. Davolashning 5–6-kunlarida siydik chiqarishni boshlashdagi qiyinchilik sezilarli darajada kamaydi, siydik oqimi normallashdi. 9–10-kunlarda siydik chiqarishga bo’lgan zo’r beruvchi (imperativ) istaklar kamaydi. 12–14-kunlarda siydik chiqarish tezligi kamayib, kuniga 5–6 martagacha tushdi, nikturiya (kechasi tez-tez siydik chiqarish) kuzatilmadi. Qolgan siydik hajmi 50–75 ml dan kam bo’ldi.Per rektum barmoq bilan tekshiruv va ultratovush tekshiruvlari natijasida prostata bezida sezilarli o’zgarishlar aniqlanmadi [8].

Davolash jarayonida sistolik va diastolik qon bosimi ko’rsatkichlari sezilarli darajada o’zgarmadi va 128/82 dan 140/85 mm simob ustunigacha bo’lgan oraliqda bo’ldi. Tamsulozin qabul qilish vaqtida 3 nafar bemorda (6,12%) bosh aylanishi, 5 nafar bemorda (10,2%) esa tez charchash holatlari kuzatildi. Dori qabul qilinishini to’xtatgach, bu nojo’ya ta’sirlar qo’shimcha davolashsiz yo’qoldi.

Xulosa. Shunday qilib, o’tkazilgan tadqiqotlar natijalari tamsulozin preparatining prostata bezi giperplaziyasiga chalingan bemorlarda pastki siydik

yo'llari simptomlarini kamaytirishda samarali ekanini, shu jumladan, uni uzoq muddat qabul qilganda ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Tamsulozinni XPGni davolashda qo'llash yuqori darajadagi xavfsizlik bilan tavsiflanadi [12].

Boshqa α-adrenoblokatorlardan farqli o'laroq, tamsulozin arterial bosimni pasaytirmaydi, libido va potensiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Preparatning nojo'ya ta'sirlari kam uchraydi va dori bekor qilingach, osonlik bilan yo'qoladi. Dori vositasining qulay dozalanishi – kuniga 1 marta qabul qilinadi. Preparatni uzoq muddat qabul qilish bemorlarning uzoq vaqt davomida jarrohlik aralashuviga muhtoj bo'lmasligiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Аляев Ю.Г., Винаров А.З., Локшин К.Л., Спивак Л.Г. Выбор метода лечения больных гиперплазией предстательной железы. Монография. Москва: клиника урологии ММА им. И.М. Сеченова. 2005. 176 с.

2. Аляев Ю.Г., Глыбочко П.В., Пушкарь Д.Ю. Урология. Российские клинические рекомендации. 2017. 544 с.

3. Гориловский Л.М., Мирзоев К.М. Комбинированная терапия доброкачественной гиперплазии предстательной железы. Урология, 2011.

4. Egan K.B. The Epidemiology of Benign Prostatic Hyperplasia Associated with Lower Urinary Tract Symptoms: Prevalence and Incident Rates. Urol Clin North Am. 2016; 43 (3): 289- 297.

5. Кульчавеня Е.В. Простатит: диагностика и лечение. Москва. 2010. 250 с.

6. Лопаткин Н.А., Сивков А.В., Ощепков В.Н., Егоров А.А. Альфа1-адреноблокаторы при хроническом простатите–N4. –С. 19–22.

7. Мамаев И.Э., Шумило Д.В. Доброкачественная гиперплазия предстательной железы: клиника, диагностика, лечение // РМЖ. 2007. №12. С. 1032.

8. McConnell JD, Roehrborn CG, Bautista OM, Andriole GL Jr ed. The long–term effect of doxazosin, finasteride, and combination therapy on the clinical progression of benign prostatic hyperplasia. J Urol, 2006 Jan; 175 (1):217–20.

9. Carnevale F. C., Antunes A. A., da Motta Leal Filho J. M. et al. Prostatic artery embolization as a primary treatment for benign prostatic hyperplasia: preliminary results in two patients (англ.) // CardioVascular and Interventional Radiology. — 2010. — Vol. 33, no. 2. — P. 355–361. — ISSN 0174-1551. — PMID 19908092

10. Сивков А.В., Ощепков В.Н., Кешишев Н.Г., Шкабко О.В. Опыт лечения пациентов с хроническим неинфекционным простатитом. Медицинский Совет. 2011;(7-8):65-68.

11. Ткачук В.Н., Лукьянов А.Э., Аль-Шукри А.С. Доброкачественная гиперплазия предстательной железы // Новые С.-Петерб. врачебные ведомости. 2002. №2. С. 85-88.

12. Хамзин, А. А. Комбинированная терапия доброкачественной гиперплазии предстательной железы / А. А. Хамзин, А. Г. Асубаев [и др.] // Вестник КазНМУ. — 2015.

UDK: 159.9:616.71-089.8

BO`GIM SINDROMI BILAN KASALANGAN BEMORLARNI PSIXOLOGIK STATUSI

Abdushukurova Komila Rustamovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)
Bozorova Sevara Aktam qizi
Kattaqo'rg'on Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: *Bizning tadqiqotlarimizda revmatoid artrit (RA), ankilozlovchi spondiloartrit (AS) va osteoartroz (OA) bilan og‘rigan bemorlar orasida intravert shaxslik tipiga ega bo‘lganlar ustunlik qildi, psoriatik artrit (PA) bilan og‘riganlarda esa — ekstravert xususiyatlar ko‘proq uchradi. Ekstravert shaxslarga optimizm, muloqotga kirishuvchanlik, ochiqlik va boshqalar bilan tez aloqa o‘rnatishga tayyorlik xos edi. Bunga qarama-qarshi tarzda, intravert tipdagi bemorlar kamgaplik, tortinchoqlik va o‘z dunyosiga sho‘ng‘iganlik bilan ajralib turdi.*
Kalit so‘zlar: *revmatoid artrit, psixologik omillar, osteoartroz, psoriatik artrit.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ СТАТУС ПАЦИЕНТОВ С СУСТАВНЫМ СИНДРОМОМ

Абдушукурова Комила Рустамовна
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)
Бозорова Севара Актамовна
Каттакурганский техникум общественного здравоохранения имени Абу Али Ибн Сины (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация: *В наших исследованиях среди болных ревматоидным артритом (РА), анкилозирующим спондилоартритом (АС), и остеоартрозом (ОА) превалировали лица с интравертными, псориатическим артритом (ПА) - экстравертными качествами. При этом, лицам с экстравертными чертами характера были свойственны оптимизм, общительность, открытость и готовность вступать в контакт. В отличие от экстравертов, больные с интравертным типом отличалиьс неразговорчивостью, замкнутостью и погруженностью в себя.*
Ключевые слова: *ревматоидный артрит, психологические факторы, остеоартроз, псориатический артрит.*

PSYCHOLOGICAL STATUS OF PATIENTS WITH JOINT SYNDROME

Abdushukurova Komila Rustamovna
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)
Bozorova Sevara Aktamovna
Kattakurgan College of Public Health named after Abu Ali Ibn Sina (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation. *In our studies, among patients with rheumatoid arthritis (RA), ankylosing spondyloarthritis (AS), and osteoarthritis (OA), individuals with introverted personality traits predominated, whereas patients with psoriatic arthritis (PA) were more likely to exhibit extroverted characteristics. Extroverted individuals were characterized by optimism, sociability, openness, and readiness to communicate. In contrast, patients with an introverted personality type tended to be reserved, quiet, and self-absorbed.*
Keywords: *rheumatoid arthritis, psychological factors, osteoarthritis, psoriatic arthritis.*

Kirish: Adabiyotlardan ma’lumki, ko‘pgina tadqiqotchilar surunkali kasalliklar rivojlanishida psixologik omillarning rolini va surunkali patologik jarayonning bemorlar psixologiyasiga ta’sirini qayd etishgan. Biroq, bo‘g‘imlarning surunkali yallig‘lanishli va distrofik kasalliklarida bemorlarning psixologik xususiyatlariga har doim ham e’tibor qaratilmaydi va bemorlarning shaxsiy sifatlariga qarab davolash ko‘pincha davolovchi shifokorlar e’tiboridan chetda qoladi. SHu bilan birga, N.V. Vukolova (2010), N.S. Krijanovskaya, P.M. Balabanova (2008) surunkali kasalliklarda davolash va reabilitatsiyaning past samaradorligi ko‘p jihatdan bemorlarning xususiyatlariga etarlicha baho berilmaganligi bilan bog‘liq deb hisoblaydilar.

Ishning maqsadi: Yo‘qoridagilardan kelib chiqgan holda, ishning maqsadi bo‘g‘imlarning surunkali yallig‘lanishli va distrofik kasalliklari bo‘lgan bemorlarning asosiy psixologik sifatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot usullar: Ko‘zatuv ostida 380 nafar bemor bo‘ldi: 168 nafari revmatoidli artrit (RA), 78

nafari osteoartroz (OA), 63 nafari reaktiv artrit (ReA), 31 nafari podagrik artrit (PA), 25 nafari ankilozlovchi spondiloartrit (AS) va 15 nafari psoriatik artrit (PsA). RA tashxisi Amerika revmatologlar uyushmasining (1997) mezonlariga, OA, PsA, ReA - Rossiya tibbiyot fanlari akademiyasi Revmatologiya institutining (1989; 1997), AS va PA - Rim mezonlariga (1977) muvofiq qo‘yilgan.

Tashxisni aniqlash va shakllantirishda Rossiya tibbiyot fanlari akademiyasi Revmatologiya instituti tomonidan taklif etilgan kasalliklar nomenklaturasi va tasnifi bo‘yicha tavsiyalar hisobga olindi (1999). Bizning tadqiqotimizda ayollar 53,2%, erkaklar 46,8% tashkil qildi. SHuningdek, revmatoid artrit (RA) va osteoartrit (OA) ko‘proq ayollarda aniqlansa, ReA, psoriatik artrit (PsA), psoriatik artrit (PA) va ankilozlovchi spondiloartrit (AS) erkaklarda keng tarqalgan. YOshga ko‘ra, 30 yoshgacha bo‘lganlar 27,1%, 31-50 yoshda — 40,0%, 50 yoshdan oshgan (50+) — 32,9% tashkil etdi. Kasallik davomiyligiga ko‘ra 1 yilgacha bo‘lganlar 33,9%, 1-5 yil orasida bo‘lganlar 31,3%, 5 yildan ko‘p bo‘lganlar 34,7% tashkil qildi.

Nazorat guruhda 40 nafar sog‘lom insonlar bo‘lib, ularning yoshlari 16-60 yosh orasida. O‘rtacha yoshi 33,6 ± 2,02 yil. Bu guruhda yosh bo‘yicha taqsimot: 20 kishi — 30 yoshgacha, 14 kishi — 31-50 yoshda, 6 kishi — 50 yoshdan yuqori.

Tadqiqotda bemorlar fe’l atvori Kettelya (R.S, Nemov, 1998) testi va o‘z-o‘zini baxolash so‘rovnomalari yordamida baholandi. Ular yosh, jins, kasb, turmush tarzi va yashash muhiti nazarda tutildi va ba’zi savollar qisman moslashtirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Bizning kuzatuvimiz davomida bemorlar orasidan RA, AS va OA bemorlar orasida introvert bo‘lgan shaxslar ko‘proq bo‘lsa, PA bemorlar esa ekstravert xususiyatlarga ega bo‘lishgan. Ekstravertlarda optimizm, jamiyatga yaqinlik, ochiqlik va aloqaga tayyorlik kuzatilgan. Introvertlarda esa, kamgaplik, sokinlik, tumtuq holatlar kuzatilgan. Introvert xarakterga ega bemorlar solishtirib ko‘rilganda, ularda pessimistik fikrlar va atrof muhitga qiziqishning yo‘qligi ham kuzatilgan. Boshqa kesmalada ifodalangan shaxslar, o‘zgaruvchanlik va zaiflikka ega bo‘lib, ular ambovert — ya’ni ikkilamchi xarakterda bo‘lganlar deb topildi. Nazorat guruhi bilan solishtirib ko‘rilganda psoriaz bilan bog‘liq bo‘lganlar orasida, ambovertlar soni yuqori edi.

SHuningdek, ko‘pchilik bemorlarda emotsional labillik, o‘ziga bo‘lgan ishonchning kamligi, qiyinchiliklarga qarshi ko‘rasha olmaslik, emotsiyalarni nazorat qila olmaslik kabi xususiyatlar kuzatilgan. Ular hayotiy muammolarni echa olmaydigan va muammolardan qo‘rquvchan, hayotiy qiyinchiliklarga tayyorgarliksiz, oldindan reja tuzishga qo‘rqadigan, muammolardan qochadigan va insonlar nazariga tushishni hohlamaydigan.

Psoriatik artrit (PsA) bilan kechuvchi bo‘g‘imlar zararlanishida ham bezovtalik, hissiylik, emotsional barqarorlikning yo‘qligi va o‘ziga ishonchsizlik kabi psixologik xususiyatlarga ega bemorlar ustunlik qildi. Biroq, PsA da bemorlarning 40,0% gacha bo‘lgan qismi o‘z-o‘zini baholashga oid savollarga javob bera olmadi, bu esa bemorlarda sezilarli darajada psixologik dezadaptatsiya mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq, bu holat shaxslararo munosabatlarning buzilishi va bemorlarning ma’lum darajada ijtimoiy yakkallanishi natijasidir. Kasallikning uzoq muddat davom etishi, terida doimiy qichishish va kosmetik muammolar noqulaylik hissini keltirib chiqaradi hamda bemorlarni odamlar bilan muloqotni cheklashga majbur qiladi.

Reaktiv artrit (ReA) da fe’l atvor xususiyatlarni psixologik o‘rganish bemorlarning shaxsiy sifatlari sog‘lom shaxslar bilan solishtirilganda sezilarli farqlarga ega emasligini ko‘rsatdi. Faqat impulsivlik, hissiylik va bezovtalik shkalalari bo‘yicha ReA bilan og‘rigan bemorlar nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘ldi. Bo‘g‘im sindromining o‘tkir boshlanishi ushbu psixologik xususiyatlarning bemorlar orasida ko‘payishining asosiy sababi bo‘ldi, chunki ReA da kasallikning ilk kunlarida bo‘g‘im sindromi bemorlarda kasallik oqibatiga nisbatan ma’lum darajada qo‘rquvni keltirib chiqaradi.

Podagra (PA) bilan og‘rigan bemorlarning fe’l atvor xususiyatlari boshqa bemorlardan ko‘p jihatlari bilan farq qilar edi. PA da bemorlarning aksariyati vaziyatni yaxshi baholay olar va o‘zlariga ishonchni namoyon etar edi (71,0%). SHuningdek, bemorlarning 67,7% da diqqat markazida bo‘lishga intilish va qo‘rquvning yo‘qligi (jasorat), 64,5% da esa tez qaror qabul qilishga moyillik va boshqaruvchanlik qobiliyati (tashabbuskorlik) qayd etildi.

Biroq, nazorat guruhi bilan solishtirilganda, PA bilan og‘rigan bemorlar biroz tartibsiz va bee’tibor bo‘lgan, ammo ular orasida qo‘yi shkalaga xos bo‘lgan boshqa fe’l atvor sifatlarga ega shaxslar ancha kam uchradi.

Podagra bilan og‘rigan bemorlarning xarakter xususiyatlari jins, yosh toifasi, kasallikning davomiyligi, xurujlar tez-tezligi hamda ichki a’zolarning qo‘shimcha kasalliklari bilan bog‘liq emas edi. SHuning uchun, podagrada ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan shaxsiy sifatlar patologik jarayon ta’sirida deyarli o‘zgarmaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa: SHunday qilib, bo‘g‘imlarning surunkali kasalliklari bilan og‘rigan bemorlar o‘z xarakter xususiyatlari jihatidan sog‘lom shaxslardan farq qiladi. Jumladan, RA va AS bilan og‘rigan bemorlar nisbatan kam muloqotchi, etarlicha qat’iyatli emas, uzoq davom etuvchi ruhiy kechinmalarga moyil va o‘zlariga ishonchi past bo‘ladi. Podagrik artriti bilan og‘rigan bemorlar esa jahldorlik, keskinlik, to‘g‘ri so‘zlilik va qat’iyatlilik bilan ajralib turadi. Ular etakchilikka intiladi, boshqalarning fikriga toqatsiz

bo‘ladi hamda kasallikni inkor etish yoki uni kamsitishga moyillik namoyon etadi.

Osteoartroz (OA) bilan og‘rigan bemorlar etarlicha muloqotchan, ishonuvchan va ko‘z yosh to‘kishga moyil bo‘lgan, biroq ko‘pincha tayinlangan davolash choralariga nisbatan tanqidiy fikrlar bildirgan va shifokor ko‘rsatmalarini bajarishni tez-tez unutib qo‘ygan. Intellektual daraja jihatidan esa, boshqalardan farqli ravishda, podagra artriti (PA) va psoriatik artrit (PsA) bilan og‘rigan bemorlar yuqoriroq intellektual salohiyatga ega bo‘lib chiqdi, ammo PsA da ma’lum darajada ko‘zga tashlanmaslikka intilish kuzatildi.

Asosiy xulq atvor xususiyatlarning shakllanishida kasallikning klinik namoyon bo‘lish og‘irligi, uning davomiyligi, bemorlarning jinsi, yoshi hamda ijtimoiy-mehnat darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasallik klinik manzarasining og‘irlashuvi (davomiylikning uzayishi, faollik darajasining oshishi, bo‘g‘imlardagi o‘zgarishlar va mehnat qobiliyatining yo‘qolishi) bilan bemorlarning katta qismi kamgap, emotsional labil holatga kelib, tobora «o‘z kasalligi ichiga sho‘ng‘ib» boradi. SHuning uchun ushbu toifadagi bemorlarga davolash tadbirlarini o‘tkazishda ularning xarakterologik xususiyatlarini inobatga olish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Щербаков Г.И. Особенности психологических нарушений у пациентов с анемией при анкилозирующем спондилите. Учебное пособие для терапевтов, ревматологов. «Логос» Ставрополь, 2018.

2. Грехов Р.А., Харченко С.А., и соав. Психологические аспекты ревматоидного артрита (тематический обзор литературы). Журнал медицинская психология в России, №3(20)2013, С. 28-25.

3. Павлова Е.В. Теоретические основания психотерапии в реабилитации больных ревматоидным артритом // Уральский медицинский журнал. – 2007. – № 4, С. 12-17.

4. Р.Р. Ахунова, К.К. Яхин, С.П. Якупова и др. Связь клинических, социальных и психологических факторов с психическими расстройствами непсихотического уровня у больных ревматоидным артритом.

5. Грехов Р.А. Психосоматические соотношения и внутренняя картина болезни у ревматических пациентов: автореф. дис. … доктора. мед. наук. – Волгоград, 2010. – 56 с.

6. Вельтищев Д.Ю., А.С. Марченко, О.Ф. Серавина и др. Аффективно-стрессовая модель депрессии: практическое внедрение в ревматологической практике / // Психиатр. психофармакотер. – 2009. – № 11 (5). – С. 17-22.

7. Павлова Е.В. Смысловая саморегуляция в структуре психосоматического синдрома при ревматоидном артрите // Известия Уральского федерального университета. – 2009. – № 1-2 (62). – Серия 1: Проблемы образования, науки и культуры.

8. Хронический стресс и депрессия у больных ревматоидным артритом / А.Е. Зелтынь, Ю.С. Фофанова, Т.А. Лисицына и др. [Электронный ресурс].

9. Р.А. Грехов, А.В. Александров, И.Ю. Алехина и др. Влияние методов восстановительной терапии на нормализацию психоэмоционального статуса больных с воспалительными и дегенеративными заболеваниями суставов / // Вестник РАМН. – 2010. – № 3. – С. 29-33.

10. Knittle K. Effect of Self-Efficacy and Physical Activity Goal Achievement on Arthritis Pain and Quality of Life in Patients With Rheumatoid Arthritis / K.P. Knittle, V. De Gucht, E.J. Hurkmans [et al.] // Arthritis Care & Research. – 2011. – Vol. 63, № 11. – P. 1613-1619.

11. Knittle K. Psychological Interventions for Rheumatoid Arthritis: Examining the Role of Self-Regulation With a Systematic Review and Meta-Analysis of Randomized Controlled Trials / K. Knittle, S. Maes, V. De Gucht // Arthritis Care & Research. – 2010. – Vol. 62, № 10. – P. 1460-1472.

12. Абдушукурова К. Применение аспирина у больных ревматоидным артритом в сочетании с ишемической болезнью сердца //Журнал кардиореспираторных исследований. – 2020. – Т. 1. – №. 3. – С. 49-51.

13. Rustamovna A. K., Amrillayevich A. I. Иммунопатогенетические основы ревматоидного артрита: обзор литературы //journal of biomedicine and practice. – 2024. – Т. 9. – №. 2.

14. Абдушукурова К. Р., Нусратова Ш. Ф. Гериатрические особенности ревматоидного артрита //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4-1. – С. 156-163.

15. Абдушукурова К. Р., Хамраева Н. А. Ревматоид артрит касаллигида артериал гипертензия фенотипларининг суткалик бузилишлари //" xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot, yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar”. – 2023. – Т. 7. – С. 34-38.

УДК: 616.12-007-053.2-089:612.1

МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ В ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОМ ПЕРИОДЕ У ДЕТЕЙ С ТЕТРАДОЙ ФАЛЛО

Каримова Хафиза Бахтиёровна – магистрант
Усмонкулов Муроджон Илхомжонович – Ph.D., докторант
Насирова Зарина Акбаровна – д.м.н., доцент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация: *Врожденные пороки сердца (ВПС) представляют собой структурные дефекты сердца и магистральных сосудов, возникающие на 2–8-й неделе эмбриогенеза. Дефекты могут затрагивать клапанный аппарат, перегородки и выносящие тракты, нарушая внутрисердечную и системную гемодинамику. ВПС могут быть изолированными или комбинированными.*

Распространённость ВПС составляет 8–9 случаев на 1000 живорождённых. Число пациентов с клинически значимыми пороками растёт вследствие повышения выживаемости новорождённых. Согласно данным ВОЗ, врожденные аномалии остаются ведущей причиной неонатальной и младенческой смертности, особенно в странах с низким и средним уровнем дохода. Средняя 30-дневная летальность после операций при ВПС составляет 3,5–4 %, у новорождённых достигает 8–9 %.

Тетрада Фалло встречается с частотой 3–5 на 10 000 живорождённых. Анатомические компоненты порока включают стеноз выносящего тракта ПЖ, дефект межжелудочковой перегородки, декстрапозицию аорты и гипертрофию ПЖ. Эти изменения приводят к нарушению легочной и системной гемодинамики и формированию гипоксемии, что определяет тяжесть клинического течения и необходимость ранней хирургической коррекции.

Ключевые слова: *тетрада Фалло, сердечно-сосудистая адаптация, послеоперационный период, гемодинамика, правый желудочек, аритмии, эхокардиография.*

FALLO TETRADASI BO'LGAN BOLALARDA OPERATSIYADAN KEYINGI DAVRDA YURAK-QON TOMIR TIZIMINING MORFOFUNKSIONAL HOLATI

Karimova Hafiza Baxtiyor qizi – magistrant
Usmonkulov Murodjon Ilhomjon o`gli – tayanch doktorant
Nasirova Zarina Akbarovna – t.f.d., dotsent
Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotatsiya: *Tug‘ma yurak kasalliklari (TYK) yurak va asosiy qon tomirlarining tuzilishidagi nuqsonlar bo‘lib, embriogenezning 2–8-haftalarida yuzaga keladi. Nuqsonlar klapan apparati, septalar va chiqish traktlarini qamrab olishi mumkin, bu esa yurak ichki va tizimli gemodinamikani buzadi. VPS izolyatsiyalangan yoki qo‘shma bo‘lishi mumkin.*

TYK tarqalishi 1000 tirik tug‘ilgan bolaga 8–9 ta holatni tashkil etadi. Klinik ahamiyatga ega bo‘lgan nuqsonli bemorlar soni yangi tug‘ilganlarning yashash darajasi oshishi bilan oshmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, tug‘ma nuqsonlar neonatal va bolalikdagi o‘limning asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda, ayniqsa past va o‘rta daromadli mamlakatlarda. TYK jarrohlik operatsiyalaridan keyingi o‘rtacha 30 kunlik o‘lim darajasi 3,5–4 %, yangi tug‘ilganlarda esa 8–9 % gacha yetadi.

Fallo tetradasi 10 000 tirik tug‘ilganda 3–5 ta holatda uchraydi. Porokning anatomik komponentlariga o`ng qorincha chiqish traktida stenoz, interventrikulyar septumda defekt, aorta dekstrapozitsiyasi va o`ng qorincha gipertrofiyasi kiradi. Bu o‘zgarishlar o‘pka va tizimli gemodinamikani buzadi, gipoksemiya shakllanishiga olib keladi, bu esa klinik kechishning og‘irligini belgilaydi va erta jarrohlik aralashuvini talab qiladi.

Kalit so‘zlar: *Fallo tetradasi, qon-tomir adaptatsiyasi, operatsiyadan keyingi davr, gemodinamika, o`ng qorincha, aritmiyalar, ekhokardiografiya.*

MORPHOFUNCTIONAL STATE OF THE CARDIOVASCULAR SYSTEM IN THE POSTOPERATIVE PERIOD IN CHILDREN WITH TETRALOGY OF FALLOT

Karimova Hafiza Bakhtiyorovna – master’s student
Usmonkulov Murodjon Ilhomjonovich – Ph.D. student
Nasirova Zarina Akbarovna – D.M.Sc., professor
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract: *Congenital heart defects (CHD) are structural abnormalities of the heart and major vessels that occur during the 2nd–8th weeks of embryogenesis. These defects may involve the valvular apparatus, septa, and outflow tracts, disrupting intracardiac and systemic hemodynamics. CHD can be isolated or combined.*

The prevalence of CHD is approximately 8–9 cases per 1000 live births. The number of patients with clinically significant defects is increasing due to improved neonatal survival. According to the World Health Organization (WHO), congenital anomalies remain a leading cause of neonatal and infant mortality, particularly in low- and middle-income countries. The average 30-day postoperative mortality for CHD surgeries is 3.5–4 %, reaching 8–9 % in neonates.

Tetralogy of Fallot occurs in 3–5 per 10,000 live births. Anatomical components include right ventricular outflow tract stenosis, interventricular septal defect, aortic dextroposition, and right ventricular hypertrophy. These changes disrupt pulmonary and systemic hemodynamics and cause hypoxemia, determining the severity of clinical presentation and necessitating early surgical correction.

Keywords: *Tetralogy of Fallot, cardiovascular adaptation, postoperative period, hemodynamics, right ventricle, arrhythmias, echocardiography.*

Введение: В современной структуре детской заболеваемости и смертности врожденные пороки сердца (ВПС) занимают особое положение, являясь не только наиболее распространенной аномалией развития, но и одной из сложнейших междисциплинарных проблем медицины. Среди пороков, сопровождающихся цианозом, тетрада Фалло (ТФ) удерживает безоговорочное лидерство, составляя до 10% всех врожденных дефектов сердечно-сосудистой системы.

За последние полвека детская кардиохирургия совершила настоящий эволюционный скачок. Благодаря совершенствованию методов пренатальной диагностики, внедрению технологий искусственного кровообращения и оптимизации послеоперационной интенсивной терапии, диагноз «тетрада Фалло» перестал быть фатальным. Глобальная смертность, ассоциированная с этим пороком, снизилась более чем на 50%, что привело к формированию уникального демографического феномена: впервые в истории медицины количество взрослых пациентов с корригированной тетрадой Фалло превысило число детей с данной патологией.

Однако этот несомненный успех породил новые, не менее сложные вызовы. Клиническая практика показывает, что термин «радикальная коррекция» не является синонимом «полного излечения». Пациенты, перенесшие операцию в раннем детстве, вступают во взрослую жизнь с «ремоделированным» сердцем, анатомия и физиология которого существенно отличаются от нормальных. Хроническая легочная регургитация, остаточные стенозы, рубцовые изменения миокарда и электрическая нестабильность создают предпосылки для развития прогрессирующей правожелудочковой недостаточности и жизнеугрожающих аритмий в отдаленном периоде.

Цель обзора: систематизировать и обобщить современные литературные данные, касающиеся эпидемиологии, этиопатогенеза и эволюции методов хирургической коррекции тетрады Фалло, а также провести анализ патофизиологических механизмов сердечно-сосудистой адаптации в послеоперационном периоде для оптимизации стратегий долгосрочного ведения пациентов.

1.1. Современные эпидемиологические и этиопатогенетические представления о врождённых пороках сердца

Эпидемиология и глобальное бремя патологии. Врожденные пороки сердца (ВПС) на протяжении многих десятилетий остаются наиболее распространенной группой врожденных аномалий развития, внося существенный вклад в показатели неонатальной заболеваемости и младенческой смертности. Глобальная эпидемиологическая картина характеризуется определенной гетерогенностью, зависящей от уровня развития системы здравоохранения в конкретном регионе и доступности методов пренатальной визуализации. Согласно фундаментальным статистическим отчетам Американской ассоциации кардиологов (AHA), опубликованным в 2023–2025 годах, распространенность кардиальных дефектов в популяции живорожденных в странах с высоким уровнем дохода стабилизировалась и составляет в среднем 12,3 случая на 1000 рождений [107, 108]. Однако эти сухие цифры скрывают за собой колоссальные демографические сдвиги. Глобальный анализ бремени болезней (Global Burden of Disease), результаты которого освещались в 2024–2025 годах, продемонстрировал, что общее число детей в возрасте до 5 лет, живущих с диагнозом ВПС, к 2021 году достигло отметки в 4,18 миллиона человек. Это на 3,4% превышает аналогичные показатели 1990 года [49, 59]. Данный феномен, на первый взгляд кажущийся тревожным, на самом деле свидетельствует об эволюционном скачке в неонатологии и детской кардиохирургии. Врачи научились эффективно спасать и выхаживать новорожденных с критическими, дуктус-зависимыми пороками, которые еще 30 лет назад считались инкурабельными и приводили к летальному исходу в первые дни жизни [6, 119]. Подтверждением этого тезиса служит впечатляющая динамика снижения смертности: за последние три десятилетия глобальная летальность, ассоциированная с ВПС,

снизилась более чем на 56%, достигнув исторического минимума — около 11 случаев на 100 000 населения [11, 96].

В структуре пороков, сопровождающихся цианозом («синих» пороков), тетрада Фалло (ТФ) занимает безусловное лидирующее место, составляя от 7% до 10% всех врожденных аномалий сердца [3, 111]. Частота встречаемости данной патологии в общей популяции оценивается примерно как 1 случай на 2500–3000 новорожденных, что делает ТФ самым распространенным цианотическим пороком, с которым сталкиваются педиатры и неонатологи [25, 86]. Важно отметить наличие выраженного географического и социально-экономического градиента в судьбе таких пациентов. В странах с низким и средним социо-демографическим индексом (преимущественно регионы Африки к югу от Сахары и Южной Азии) сохраняется недопустимо высокая смертность детей первого года жизни, обусловленная отсутствием своевременного доступа к кардиохирургической помощи [65, 120]. В то же время в странах Северной Америки, Западной Европы и ряде развитых стран Азии фокус проблемы кардинально сместился. Здесь сформировалась и продолжает расти новая когорта пациентов — взрослые с корригированной тетрадой Фалло (Adult Congenital Heart Disease — ACHD). Для этой группы больных вопросы выживания отошли на второй план, уступив место проблемам качества жизни, фертильности, профессиональной ориентации и профилактики отдаленных осложнений [10, 43, 104].

Этиология: от генетики до эпигенетики. Долгое время этиология тетрады Фалло оставалась предметом дискуссий, однако современная наука уверенно перешла к парадигме мультифакториального наследования. Порок рассматривается как результат сложного, многоступенчатого нарушения эмбриогенеза, возникающего вследствие взаимодействия генетической архитектуры индивидуума и неблагоприятных факторов внешней среды [90]. Генетические детерминанты: с развитием методов молекулярно-генетического анализа (включая полногеномное секвенирование и хромосомный микроматричный анализ) удалось установить, что примерно у 20% пациентов с ТФ имеется идентифицируемая генетическая причина патологии [33, 90]. Синдром делеции 22q11.2 (велокардиофациальный синдром, синдром Ди Джорджи). Это наиболее значимая генетическая аберрация, выявляемая у 15–20% пациентов с ТФ. Дефект гена TBX1, фактора транскрипции, критически важного для развития фарингеальных дуг и вторичного сердечного поля, приводит к формированию специфического фенотипа. Для пациентов с делецией 22q11.2 характерна более сложная анатомия порока: часто встречается атрезия легочной артерии, аномалии коронарных артерий, наличие множественных аорто-легочных коллатералей (MAPCAs) и отсутствие клапана легочной артерии [78, 92, 118]. Кроме того, наличие этого синдрома диктует необходимость особого подхода в послеоперационном периоде из-за риска гипокальциемии и иммунодефицита. Трисомия 21 (Синдром Дауна). Хотя этот синдром чаще ассоциируется с дефектом атриовентрикулярного канала, ТФ также встречается в этой популяции. Особенностью является частое сочетание с полным открытым АВ-каналом, что усложняет хирургическую коррекцию [41]. Синдромы Алажилля и CHARGE. Мутации в генах JAG1 (путь Notch-сигнализации) и CHD7 соответственно также ассоциированы с конусно-стволовыми пороками, включая ТФ [23, 79, 117]. Наличие установленного генетического синдрома является независимым предиктором неблагоприятного нейрокогнитивного исхода. Исследования показывают, что такие дети чаще сталкиваются с задержкой психомоторного развития, трудностями в обучении и поведенческими особенностями, что требует раннего подключения реабилитационных программ [39, 73]. Экзогенные факторы и средовые триггеры: несмотря на успехи генетики, в большинстве случаев этиология остается спорадической. Доказано мощное тератогенное влияние ряда материнских факторов. Сахарный диабет: наличие прегестационного диабета у матери повышает риск рождения ребенка с конусно-стволовым пороком в 3–5 раз. Механизм связан с воздействием гипергликемии и окислительного стресса на мигрирующие клетки нервного гребня, участвующие в формировании выходных трактов сердца [28, 102]. Вирусные инфекции: перенесенные в первом триместре (в период органогенеза) краснуха, грипп или цитомегаловирусная инфекция могут нарушать процессы септации сердца [69]. Токсическое воздействие: прием ретиноидов (производных витамина А), антиконвульсантов (вальпроевая кислота) и злоупотребление алкоголем также входят в список доказанных факторов риска [34, 58].

Патологическая анатомия. Классическое описание, данное французским врачом Этьеном-Луи Фалло в 1888 году («La maladie bleue»), включало четыре анатомических признака. Однако современные морфологи рассматривают ТФ как единый дефект развития, обусловленный передне-верхним смещением инфундибулярной перегородки. Именно это смещение («Monge deviation») является первичным событием, приводящим к формированию всего комплекса аномалий [2, 115].

1. Обструкция выходного тракта правого желудочка (RVOTO). Это ключевой гемодинамический компонент. Смещение перегородки сужает выход из правого желудочка. Обструкция обычно носит многоуровневый характер:

• Инфундибулярный стеноз: Мышечное сужение под клапаном.

20. Makhmonov L. S., Mamatkulova F. Kh., Kholturaeva D. F., Muyiddinov Z. Z. Importance of detection of hepsidine and interleukins in iron deficiency anemia. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 4, April 2022

21. Dadajanov U. D., Mamatkulova Feruza Xaydarovna, R. Oyjamol N. Features Of Thrombophilia In Covid-19 European Journal of Molecular & Clinical Medicine2020/12/26. 07/03

22. Mamatkulova Feruza Khaydarovna, Akhmedov Husan Isrofilovich, Abdiev Kattabek Makhmatovich. Essential Thrombocythemia - Principal Analysis in Children and Adolescents. Journal of intellectual property and human rights Volume: 2 Issue: 10 | Oct – 2023 ISSN: 2720-6882. 23-29.

23. ON Ruziboeva, KM Abdiev, AG Madasheva, FK Mamatkulova modern methods of treatment of hemostasis disorders in patients with rheumatoid arthritis Ученый XXI века 78 (7), 8-11.

24. LS Maxmonov, FX Mamatkulova, OE Alimov, UU Raxmonov. Yelka Kamari Operatsiyalarida Regional Anesteziyaning Samaradorligi Miasto Przyszłości 47, 993-997

25. Abdiyev K.M., Dadajanov U.D., Mamatkulova F.X. Nekotoriye aspekti vedeniya bolnix s trombotsitopenicheskoy purpuroy oslojnennoy s apopleksiyey yaichnika. Problemi ekologii, zdorovya, farmatsii i parazitologii. Nauchniye trudi. Moskva. 2013 g. Str. 372-373.

26. Makhmonov L.S., Sh. Koraboev S.K., Gapparova N..Sh, Mamatkulova F. Kh. Early diagnosis and treatment of funicular myelosis in v12 deficiency anemia. Asian Journal of Multidimensional Research Year: 2022, Volume: 11, Issue: 5.First page: (369) Last page: (373)Online ISSN: 2278-4853.

27. Mamatkulova F.X., Alimov O.E., Namozov M.N.O‘. Abdominal jarroxlik operatsiyalardan keyingi davrda regional anesteziyaning samaradorligi va rivojlangan kamqonlikni davolash //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 445-452.

28. KM Abdiev, AG Madasheva, FK Mamatkulova modern methods of treatment of hemorrhagic syndrome at an early stage in patients with idiopathic thrombocytopenic purpura. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА, 41-44

29. MF Khaydarovna, AH Isrofilovich, AK Makhmatovich Essential Thrombocythemia-Principal Analysis in Children and Adolescents. Journal of Intellectual Property and Human Rights 2 (10), 23-29

30. Gadayev A.G., Maxmonov L.S., Mamatqulova F.X. Helicobacter pylori bilan assotsiyalangan temir va vitamin B12 tanqisligi kamqonliklarida yallig‘lanish sitokinlarining ayrim laborator ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqligi. – 2022.

УДК: 616.36-002-02:615.9-06:577.3-036

АКТИВАЦИЯ МОЛЕКУЛЯРНОГО ШАПЕРОНА HSP90 ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ТОКСИЧЕСКОМ ПОРАЖЕНИИ ПЕЧЕНИ

Хонназаров Уткир Хужамшукурович – соискатель
Ахмедов Камолиддин Хакимович – д.м.н., доцент
Термезский филиал Ташкентского Государственного Медицинского Университета (Термез, Узбекистан)

Резюме: *В эксперименте изучена активация молекулярного шаперона HSP90 при парацетамол-индуцированном токсическом поражении печени у крыс. Модель создавали путём перорального введения парацетамола в дозе 400 мг/кг в течение 4 суток. Экспрессию HSP90 в ткани печени определяли методом вестерн-блоттинга на 1, 7 и 14-е сутки. Выявлено стойкое повышение уровня HSP90, отражающее пролонгированный клеточный стресс и нарушение протеостаза в гепатоцитах.*

Ключевые слова: *HSP90, эксперимент, печень, парацетамол, токсическое поражение.*

ЖИГАРНИНГ ТАЖРИБАВИЙ ТОКСИК ШИКАСТЛАНИШИДА HSP90 МОЛЛЕКУЛЯР ШАПЕРОНИНИНГ ФАОЛЛАШУВИ

Хонназаров Ўткир Хужамшукурович – мустақил изланувчи
Ахмедов Камолиддин Ҳакимович – т.ф.д., доцент
Тошкент Давлат Тиббиёт Университети Термиз филиали (Термиз, Ўзбекистон)

Резюме: *Тажриба каламушларда парацетамол билан чақирилган токсик жигар шикастланиши молекуляр шаперон HSP90 фаоллашуви ўрганилди. Парацетамол моделини 400 мг/кг дозада 4 кун перорал юборилди. Жигар тўқимасида HSP90 экспрессияси 1, 7 ва 14-кунларда вестерн-блот усулида баҳоланди. HSP90 даражасининг барқарор ошиши гепатоцитларда узоқ давом этувчи ҳужайравий стресс ва протеостаз бузилишини кўрсатади.*

Калит сўзлар: *HSP90, эксперимент, жигар, парацетамол, токсик шикастланиш.*

ACTIVATION OF THE MOLECULAR CHAPERONE HSP90 IN EXPERIMENTAL TOXIC LIVER INJURY

Khonnazarov Utkir Khujamshukurovich – independent researcher
Akhmedov Kamoliddin Hakimovich – D.M.Sc.., associate professor
Termez Branch of Tashkent State Medical University (Termez, Uzbekistan)

Resume: *This experimental study evaluated activation of the molecular chaperone HSP90 in rats with paracetamol-induced toxic liver injury. The model was established by oral administration of paracetamol at a dose of 400 mg/kg for four days. HSP90 expression in liver tissue was assessed by Western blot on days 1, 7, and 14. A persistent increase in HSP90 levels indicated prolonged cellular stress and impaired proteostasis in hepatocytes.*

Keywords: *HSP90, experiment, liver, paracetamol, toxic injury.*

Актуальность: Токсический гепатит (включая лекарственно-индуцированное поражение печени, классический пример — передозировка парацетамола) сопровождается массивным оксидативным стрессом, митохондриальной дисфункцией и накоплением повреждённых/денатурированных белков. В этих условиях молекулярные шапероны (HSP70, HSP90 и др.) становятся ключевым «буфером» протеостаза: они стабилизируют белки, участвуют в их рефолдинге и направляют необратимо повреждённые субстраты в деградацию. Экспериментально показано, что уровень HSP70 способен модифицировать тяжесть ацетаминофен-индуцированной гепатотоксичности, а подавление HSP70/HSF1 усиливает клеточную гибель, что подчёркивает защитный потенциал стресс-ответа [6].

Однако шапероны могут иметь и «двойную роль». При некрозе гепатоцитов HSP70 способен выходить во внеклеточное пространство и выступать как DAMP-сигнал, усиливая врождённое воспаление и прогрессирование повреждения печени [5]. Дополнительно, ось HSF–HSP (включая HSP70/HSP90) вовлекается в регуляцию сигнальных каскадов (например, MAPK),

влияя на исход острого токсического повреждения печени [3].

Отдельное направление — эндоплазматический ретикулум и ER-стресс: ER-шоперон GRP78/BiP (HSPA5) рассматривается как центральный регулятор ответа на неправильно свернутые белки и потенциальная терапевтическая мишень при стресс-индуцированных состояниях [4]. В моделях ацетаминофен-индуцированного поражения печени показано, что снижение ER-стресса ассоциируется с гепатопротекцией, что делает шапероны/UPR перспективными для патогенетической коррекции токсического гепатита [7].

Цель: изучить роль HSP90 в патогенезе парацетамол-индуцированного токсического повреждения печени.

Материалы и методы исследования. Исследование проводилось в соответствии с общепринятыми методиками на базе центра, аккредитованного для выполнения испытаний по стандартам GLP [1,2]. В эксперимент были включены 24 крыс массой 180–240 г, разделённых на 4 группы по 6 особей. До начала эксперимента всем животным был предоставлен как минимум недельный период акклиматизации.

Моделирование токсического поражения печени проводилось путём многократного введения парацетамола. Парацетамол вводили перорально в виде 4% раствора в дозе 400 мг/кг один раз в сутки на протяжении 4 дней. Забор биологического материала проводили на 1, 7 и 14-е сутки эксперимента.

Распределение животных по группам осуществлялось следующим образом: Интактная группа (n=6): Животные не получали парацетамол. На 5-е сутки проводили проводили забор печени. Группа 1 (n=6): Животным вводили парацетамол в дозе 400 мг/кг ежедневно в течение 4 дней. На 1-е сутки, сразу после завершения моделирования, проводили забор печени. Группа 2 (n=6): Животным вводили парацетамол по той же схеме (400 мг/кг, 4 дня). После завершения введения препарата животных выдерживали 1 неделю без воздействия. На 7-е сутки проводили забор печени. Группа 3 (n=6): Животным вводили парацетамол по той же схеме (400 мг/кг, 4 дня). После завершения введения препарата животных выдерживали 2 неделю без воздействия. На 14-е сутки проводили забор печени.

Результаты исследования и их обсуждения.

Для оценки клеточного стресс-ответа при стрессе у крыс была исследована экспрессия теплового шокового белка HSP90 методом вестерн-блоттинга в тканях печени.

На рисунке 1 представлена экспрессия белка HSP90 в ткани печени крыс при парацетамол-индуцированном гепатите демонстрировала выраженные изменения по сравнению с контролем. В контрольной группе уровень HSP90 оставался низким и относительно однородным. Уже на 1-й день после введения парацетамола наблюдалось заметное повышение экспрессии HSP90, отражающее активацию раннего стресс-ответа вследствие токсического повреждения. На 7-й день интенсивность полос оставалась высокой, и экспрессия HSP90 достигала устойчивого повышенного уровня во всех повторностях. К 14-му дню изменения были минимальными: уровень экспрессии HSP90 практически не отличался от 7-дневной группы, сохраняя схожую интенсивность и общий характер полос. Это указывает на стабилизацию стресс-ответа и поддержание повышенной активности HSP90 на протяжении позднего этапа токсического процесса, без выраженной тенденции к снижению или дополнительному усилению. Уровни β-актина оставались стабильными во всех исследуемых группах, подтверждая корректность нормализации.




Рисунок 1. **Вестерн-блоттинг белка теплового шока HSP90 и контрольного белка β-актина в тканях печени крыс при модели парацетамола-индуцированного гепатита**

Заключение.

Проведённое экспериментальное исследование показало, что парацетамол-индуцированный токсический гепатит сопровождается выраженной и стойкой активацией молекулярных шаперонов в ткани печени, что отражает формирование интенсивного клеточного стресс-ответа. По данным вестерн-блоттинга установлено, что экспрессия HSP90 значительно повышается уже на 1-е сутки после завершения введения парацетамола, что свидетельствует о раннем включении защитных механизмов в ответ на митохондриальную дисфункцию, оксидативный стресс и накопление повреждённых белков в гепатоцитах.

На 7-е сутки уровень HSP90 сохранялся стабильно высоким во всех исследуемых образцах, что указывает на поддержание активного стресс-ответа в фазе развернутого токсического поражения печени. К 14-м суткам экспрессия HSP90 существенно не снижалась и оставалась сопоставимой с 7-дневным уровнем, что свидетельствует об отсутствии полного восстановления протеостаза и сохранении напряжённого клеточного состояния даже в отдалённые сроки после прекращения токсического воздействия. Полученные данные подтверждают, что HSP90 является важным компонентом адаптационного ответа гепатоцитов при токсическом гепатите и может играть двойственную роль — участвовать как в защите клеток, так и в поддержании патологических сигнальных каскадов при длительном стрессе. Это обосновывает целесообразность дальнейшего изучения шаперон-зависимых механизмов и путей регуляции протеостаза как потенциальных мишеней патогенетической терапии токсического поражения печени.

Выводы:

1.Парацетамол-индуцированный токсический гепатит сопровождается ранней и стойкой активацией HSP90 в ткани печени, что отражает формирование выраженного клеточного стресс-ответа уже в первые сутки после токсического воздействия.

2.Сохранение повышенной экспрессии HSP90 на 7-е и 14-е сутки свидетельствует о пролонгированном нарушении протеостаза и неполном восстановлении функционального состояния гепатоцитов в отдалённые сроки токсического процесса.

ЛИТЕРАТУРА

1. Руководство по экспериментальному (доклиническому) изучению новых фармакологических веществ / [под общ. ред. Р. У. Хабриева]. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ОАО Изд-во «Медицина», 2005. – 832 с.

2. Руководство по проведению доклинических исследований лекарственных средств. Часть первая / [под ред. А.Н. Миронова]. – М.: Гриф и К, 2012. – 944 с.

3. Bi J., et al. HSF2BP protects against acute liver injury by regulating the HSF2BP/HSP70/MAPK axis. Cell Death & Disease. 2022.

4. Lee A.S. Stress-induced translocation of the endoplasmic reticulum chaperone GRP78/BiP and its impact on human disease and therapy. 2025.

5. Sivagurunathan N., et al. Inflammasome activation as a key driver of acetaminophen-induced liver injury (обзор; упоминание HSP70 как DAMP). Gastroenterology & Hepatology (Xia & He Publishing). 2025.

6. Tsuji D., Akagi R. Species-specific differences in acetaminophen hepatotoxicity depend on HSP70 expression level. Journal of Biochemistry. 2025;177(2):133–139. doi:10.1093/jb/mvae086

7. Xiang Q., et al. GPR116 alleviates acetaminophen-induced liver injury in mice by inhibiting endoplasmic reticulum stress. Cellular and Molecular Life Sciences. 2024.

ТЕКСТИЛ КОРХОНАСИ ИШЧИЛАРИНИНГ ТИББИЙ КЎРИК НАТИЖАЛАРИ БЎЙИЧА КАСАЛЛАНИШ ҲОЛАТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Нуралиев Фирдавс Неккадамович - Ph.D., катта ўқитувчи
Тошкент Давлат тиббиёт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация. *Тадқиқотнинг мақсади сифатида "Ark eko tekstil" текстил фабрикасининг ишчиларини саломатлик холатини тиббий кўрик натижасига асосан тахлил қилиш ва бахолаш. Тадқиқотда 19 ёшдан 56 ёшгача бўлган, иш стажи 1 йилдан 20 йилгача ва ундан ортиқ бўлган 137 та тўқимачилик ишлаб чиқариш ишчилари тиббий кўрикдан ўтказилди. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2012 йил 10 июлдаги "Ходимларни тиббий кўрикдан ўтказиш тартиби тўғрисида"ги буйруғига асосан узлуксиз кузатув усули қўлланилди ва даврий тиббий кўрикдан ўтказилди. Тиббий кўрикда Бухоро тиббиёт институтининг терапевт, офтальмолог, невропатолог, гинеколог, гематолог, отоларинголог ва стоматолог шифокорлари иштирок этди*

Калит сўзлар. *Текстил корҳона, тиббий кўрик, ишчилар саломатлиги, касалланиш.*

АНАЛИЗ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ ПО РЕЗУЛЬТАТАМ МЕДИЦИНСКИХ ОСМОТРОВ РАБОТНИКОВ ТЕКСТИЛЬНОГО ПРЕДПРИЯТИЯ

Нуралиев Фирдавс Неккадамович - Ph.D., старший преподаватель
Ташкентский Государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Целью исследования является анализ и оценка состояния здоровья работников текстильной фабрики "Ark eko tekstil" на основе результатов медицинского осмотра. В исследовании приняли участие 137 рабочих текстильного производства в возрасте от 19 до 56 лет, со стажем работы от 1 года до 20 лет и более. Периодический медицинский осмотр проводился с применением метода непрерывного наблюдения в соответствии с приказом Министерства здравоохранения Республики Узбекистан от 10 июля 2012 года "О порядке проведения медицинских осмотров работников". В медицинском осмотре участвовали врачи Бухарского медицинского института: терапевт, офтальмолог, невропатолог, гинеколог, гематолог, отоларинголог и стоматолог.*

Ключевые слова. *Текстильное предприятие, медицинский осмотр, здоровье работников, заболеваемость.*

ANALYSIS OF MORBIDITY BASED ON THE RESULTS OF MEDICAL EXAMINATIONS OF WORKERS OF A TEXTILE ENTERPRISE

Nuraliyev Firdavs Nekkadamovich - Ph.D., senior lecturer
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *The aim of the study was to analyze and evaluate the health status of workers at the Ark Eko Tekstil textile factory based on the results of a medical examination. The study involved 137 textile workers aged 19 to 56 years, with work experience ranging from 1 to 20 years or more. Periodic medical examinations were conducted using the continuous observation method in accordance with the order of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan dated July 10, 2012, "On the Procedure for Conducting Medical Examinations of Workers." Physicians from the Bukhara Medical Institute participated in the medical examination: a therapist, ophthalmologist, neurologist, gynecologist, hematologist, otolaryngologist, and dentist.*

Key words. *Textile factory, medical examination, workers' health, morbidity.*

Аҳолининг тегишли ҳудуддаги умумий касалланиш кўрсаткичларини меҳнат шароитлари зарарли бўлган ишлар билан касалланиш даражаси билан таққослаш, ходимлар саломатлигини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятнинг устувор йўналишларини аниқлаш учун асосий асос бўлиб хизмат қилади [1, 10]. Касаллик даражаси ҳақидаги маълумотлар соғлиқни сақлаш тизимидаги даволаш-профилактика муассасаларининг функционал фаолияти даражасини баҳолашнинг объектив усули ҳисобланади [5, 6].

Соғлиқни тавсифловчи барча кўрсаткичлар орасида, касалланиш кўрсаткичлари демографик кўрсаткичлар (туғилиш, ўлим), жисмоний ривожланиш ва ногиронлик маълумотлари

билан солиштирганда, ишлаб чиқариш муҳитининг мумкин бўлган таъсирини акс эттиради ва мумкин бўлган сабаб-оқибат боғлиқликларини аниқлайди [4].

Касалланиш кўрсаткичлари, шунингдек, турли хил даволаш-профилактика, соғломлаштириш тадбирларига бўлган эҳтиёжни аниқлашда асосий ҳисобланади, шу сабабли соғлиқни сақлаш муассасалари томонидан ходимларнинг касалланиш ҳолати ҳар куни ўрганилади [2, 8].

Ҳозирги вақтда саноат корхоналари ишчиларининг касалланиши тўғрисидаги маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш ва таҳлил қилиш тизимлари яратилган ва фаолият юритмоқда, бу эса оператив ёки ташкилий тадбирларни амалга ошириш учун зарурдир. Шу мақсадда ишчиларнинг умумий касалланиши бўйича махсус ҳисоб юритилади [7]. Ишлаётган шахсларнинг касалланишини ҳисобга олиш ва таҳлил қилиш усуллари соғлиқни сақлашнинг ўзгарувчан вазифаларига мувофиқ доимий равишда ривожланиб ва ўзгариб бормоқда [9].

Ишлаб чиқариш объектларида ишловчиларнинг умумий касалланишини ўрганиш учун маълумот олишнинг 4 та асосий йўналиши мавжуд: ишловчиларнинг доимий яшаш жойидаги даволаш-профилактика муассасаларига мурожаат қилишлари ва расмийлаштирилган тиббий ҳужжатларни таҳлил қилиш орқали; ишловчиларнинг тиббий кўриклари натижалари бўйича; ўлим сабабларини таҳлил қилиш орқали; ишловчиларни ўтказилган касалликлар ҳақида сўров қилиш орқали [3].

Мақсад. “Ark eko tekstil” текстил фабрикасининг ишчиларини саломатлик холатини тиббий кўрик натижасига асосан тахлил қилиш ва бахолаш.

Материал ва усуллар. Мақсадга эришиш ва тадқиқотнинг белгиланган вазифаларини бажариш учун 19 ёшдан 56 ёшгача бўлган, иш стажи 1 йилдан 20 йилгача ва ундан ортиқ бўлган 137 та тўқимачилик ишлаб чиқариш ишчилари тиббий кўрикдан ўтказилди. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2012 йил 10 июлдаги "Ходимларни тиббий кўрикдан ўтказиш тартиби тўғрисида"ги буйруғининг 3.22 ва 4.8 бандларига асосан узлуксиз кузатув усули қўлланилди ва даврий тиббий кўрикдан ўтказилди.


119 нафар аёл ҳамда 18 нафар эркак тиббий кўриги ўтказилди, бу текширилганларнинг 86,9% ни ташкил этади (1-жадвал), уларнинг ўртача ёши 37,7±0,84 ёшни, ҳамда 18 нафар эркакнинг тиббий кўриги ўтказилди, бу текширилганларнинг 13,1% ни ташкил этади, уларнинг ўртача ёши 42,2±2,74 ни ташкил этди. Тиббий кўрикда Бухоро тиббиёт институтининг терапевт, офтальмолог, невропатолог, гинеколог, гематолог, отоларинголог ва стоматолог шифокорлари иштирок этди.

1-жадвал.

Корхона ишчиларининг ёш ва жинс бўйича тақсимланиши


Ёши	Умумий			Эркаклар			Аёллар		
	Абс (n)	%	m	Абс (n)	%	m	Абс (n)	%	m
До 20	8	5,8	2,0	-	-	-	8	6,7	2,30
21-30	22	16,1	3,14	4	22,2	9,80	18	15,1	3,28
31-40	52	38,0	4,15	4	22,2	9,80	48	40,3	4,50
41-50	38	27,7	3,82	5	27,8	10,56	33	27,7	4,10
51-60	17	12,4	2,82	5	27,8	10,56	12	10,2	2,76
Жами	137	100		18	100		119	100	

Бундан ташқари, барча текширилганлардан гематологик текширувлар учун қон олинди. Тэрапевт кўриги маълумотларига кўра, текширилганларнинг 10,2±2,59%ида 1-даражали гипертония касаллиги, 1,5±1,02%ида 2-даражали гипертония касаллиги, 0,7±0,73%ида аллергик ринит, 0,7±0,73%ида сурункали тонзиллит, 0,7%±0,73ида аллергик бронхит аниқланган (1-расм).




1-расм. **Терапевт тиббий кўриги натижалари (фоизда)**

Офтальмолог кўриги маълумотларига кўра, текширилганларнинг 5,8±2,0%да аллергик конъюнктивит, 10,2±2,59%да миёпи, 2,2±1,25%да амблиопия, 5,8±2,0%да гиперметропия, 8,8±2,42%да пресбиопия, 2,9±1,44%да 2-даражали птеригиум, 0,7±0,73%да эса қуруқ кўз синдроми аниқланган (2-расм).



2-расм. **Офталмолог тиббий кўриги натижалари (%)**


Невропатологнинг текшируви натижаларига кўра, текширилганларнинг 4,4±1,75% да бўйин умуртқа поғонаси остеохондрози, 3,6±1,6% ишчиларда бел умуртқа поғонаси остеохондрози, 17,5±3,25% да астеноневротик синдром, 2,2±1,25% да неврастения, 5,8±2,0% да вегето-томир дистонияси, 0,7±0,73% да мигрень (3-расм) ташхиси қўйилган.



3-расм. **Невропатолог тиббий кўриги натижалари (%)**

Стоматолог кўриги натижаларига кўра, текширилганларнинг 34,3±4,06% да гингивит аниқланган, шунингдек, 1,5±1,02% да оғиз бўшлиғи шиллиқ қаватининг қизариши (гиперемия) кузатилган (4-расм).

Қон таҳлили натижаларига асосан, текширилган ходимларнинг 24,8%±3,69 да гемоглобин даражаси пастлиги аниқланган



4-расм. **Стоматолог тиббий кўриги натижалари (%)**

Шундай қилиб, асосий цехларда ишлаётган 137 нафар кўрикдан ўтган тўқувчилик ишлаб чиқариши ходимлари орасида касб касаллиги ёки касбий заҳарланиш шубҳаси бўлган ҳолатлар аниқланмади. Олинган тиббий кўрик маълумотларига кўра, тўқувчилик ишлаб чиқаришининг барча ходимлари 3 гуруҳга бўлинди:

1-гуруҳ - Соғломлар. Ишчиларда соғлиғи бўйича шикоятлари бўлмаган, сурункали касалликлари аниқланмаган ва текширувда органлар ва тизимлар фаолияти нормал бўлганлар. Уларнинг сони 47 нафарни ташкил этди, бу эса 34,3% га тенг эди;

2-гуруҳ – деярли соғлом. Бундай ишчилар тиббий кўрик ўтказилганда ўткир ва сурункали касалликлар аниқланмади, лекин органлар ва тизимларда ўзгаришлар мавжуд. Таъкидлаш жоизки, бу гуруҳдаги ишчиларнинг иш стажи катта бўлган. Улар 85 нафар ишчини ташкил этди – 62,0%;

3-гуруҳ – касалликнинг дастлабки босқичида ёки сурункали касалликлари бўлган ходимлар. Улар 5 нафар - 3,6% ни ташкил этди.

АДАБИЁТЛАР

1. Искандарова Ш.Т., Нуралиев Ф.Н., Оташехов З.И., Нуралиева У.М. Ип йигириш ишчилари организмларининг гуморал резистент омиллари кўрсаткичларини таҳлил қилиш ва

баҳолаш // Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии. – 2025. – Т. 10. – №. 5. – С. 72-76.

2. Мухаммадиева Г.Ф., Бакиров А.Б., Каримова Л.К., Каримов Д.О., Бейгул Н.А., Гимаева З.Ф. Факторы риска развития и особенности профессиональной патологии у работников, занятых производством искусственных минеральных волокон // Медицина труда и промышленная экология. – 2018. – №. 1. – С. 19-23.

3. Нуралиев Ф. Н. Ип йигириш корхонаси ишчиларининг ўзига хос бўлмаган организмнинг резистентлигини ўрганиш // Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2025. – №. 21 [2]. – С. 252-255.

4. Славинская Н.В., Нуралиев Ф.Н. Условия труда прядильного производства бухарского текстильного кластера «ark eko tekstil» // Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2023. – №. 6. – С. 158-163.

5. Тимерзянов М.И. Оценка заболеваемости осужденных по данным углублённого медицинского осмотра // Здоровье населения и среда обитания. – 2018. – №. 9 (306). – С. 5-10.

6. Уфимцева М.А., Бочкарев Ю.М., Струин Н.Л., Береснева Т.А., Сорокина К.Н., Симонова, Н. В. Анализ результатов периодического медицинского осмотра дерматовенерологом рабочих, занятых на металлургических предприятиях Свердловской области // Здоровье населения и среда обитания. – 2018. – №. 12 (309). – С. 19-23.

7. Шидловская Т.А., Мухина И.В., Куренева Е.Ю., Ишенко А. Клинико-аудиологическая характеристика рабочих текстильной промышленности с сенсоневральной тугоухостью // Український журнал з проблем медицини праці. – 2006. – №. 3 (7). – С. 51-57.

8. Ahmad Y.S., Hamid A., Saif S., Mehmood A. Assessment of health and safety risks in a textile industry //Journal of Natural and Applied Sciences Pakistan. – 2020. – Vol. 2. – №. 1. – P. 350-369.

9. Khan M., Muhmood K., Noureen S., Mahmood H.Z., Amir-ud-Din R. Epidemiology of respiratory diseases and associated factors among female textile workers in Pakistan // International Journal of Occupational Safety and Ergonomics. – 2022. – Vol. 28. – №. 1. – P. 184-198.

10. Parvin F., Islam S., Akm S.I., Urmy Z., Ahmed S., Islam A.S. A study on the solutions of environment pollutions and worker's health problems caused by textile manufacturing operations // Biomed. J. Sci. Tech. Res. – 2020. – Vol. 28. – №. 4. – P. 21831-21844.

POLIANGIITLI GRANULEMATOZDA RINOSINUSITLAR NEGIZIDA BIOKIMYOVIY MARKERLAR ASOSIDA TIZIMLI SHIKASTLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH LABORATOR BELGILARI

Xaydarova Gavxar Saidaxmatovna – t.f.d., dotsent
Xidoyatova Muxlisa Raxmatillaevna – t.f.d., dotsent
Djabborov Navro'z Nordjigitovich – assistent
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

Annotatsiya: *Poliangiitli granulematoz (PG) ANCA bilan bog'liq tizimli vaskulit bo'lib, ko'pincha rinosinusit belgilari bilan namoyon bo'ladi va ko'p a'zolar shikastlanishi bilan kechadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi rinosinusitli PG bemorlarida biokimyoviy markerlar hamda ANCA ko'rsatkichlari asosida tizimli shikastlanish darajasini kompleks baholashdan iborat bo'ldi. Prospektiv-kesimiy tadqiqotda 146 nafar bemor va 20 nafar sog'lom shaxs nazorat guruhi sifatida o'rganildi. Qon zardobida C-reaktiv oqsil, transaminazalar (AST, ALT), mochevina, kreatinin, umumiy oqsil, glyukoza hamda ANCA darajalari aniqlanib, guruhlararo taqqoslandi. Natijalarga ko'ra, faol PGda yallig'lanish markerlari va azot almashinuvi ko'rsatkichlari sezilarli oshgan, umumiy oqsil pasaygan hamda ANCA titri yuqori bo'lgan. Davolashdan so'ng ko'rsatkichlarning normallashuvi kuzatildi. Biokimyoviy va immunologik markerlarning kompleks bahosi kasallik faolligi, buyrak zararlanishi va tizimli jarayonni erta aniqlashda muhim diagnostik ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *poliangiitli granulematoz, rinosinusit, biokimyoviy markerlar, C-reaktiv oqsil, mochevina, kreatinin, umumiy oqsil, ANCA, tizimli shikastlanish*

КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА НА ОСНОВЕ БИОХИМИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ ПРОГРЕССИРОВАНИЯ РИНОСИНУСИТА ПРИ СИСТЕМНОМ ПОРАЖЕНИИ НА ФОНЕ ГРАНУЛЕМАТОЗНОГО ПОЛИАНГИИТА

Хайдарова Гавхар Саидахматовна – д.м.н., доцент
Хидоятова Мухлиса Рахматиллаевна – д.м.н., доцент
Джабборов Навруз Норджигитович – ассистент
Ташкентский Государственный Медицинский Университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация: *Гранулематоз с полиангиитом (ГПА) относится к ANCA-ассоциированным системным васкулитам и часто манифестирует риносинуситом с последующим поражением жизненно важных органов. Цель исследования — комплексная оценка степени системного повреждения у пациентов с риносинуситом на фоне ГПА на основе биохимических и иммунологических маркеров. В проспективном исследовании обследованы 146 пациентов и 20 здоровых лиц контрольной группы. Определялись уровни С-реактивного белка, AST, ALT, мочевины, креатинина, общего белка, глюкозы и титр ANCA. Установлено достоверное повышение маркеров воспаления и азотистого обмена, снижение общего белка и значительное увеличение уровня ANCA при активном течении заболевания. На фоне лечения отмечалась нормализация показателей. Комплексный анализ биохимических и серологических маркеров позволяет объективно оценивать активность заболевания, раннее выявлять системное поражение и повышать точность диагностики.*

Ключевые слова: *гранулематоз с полиангиитом, риносинусит, биохимические маркеры, С-реактивный белок, мочевина, креатинин, ANCA, системное поражение*

COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF SYSTEMIC DAMAGE IN POLYANGIITIS GRANULOMATOSIS BASED ON BIOCHEMICAL MARKERS OF RHINOSINUSITIS PROGRESSION

Khaydarova Gavkhar Saidakhmatovna – D.M.Sc, associate professor
Khidoyatova Mukhlisa Rakhmatillaevna – D.M.Sc, associate professor
Djabborov Navruz Nordjigitovich – assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: *Granulomatosis with polyangiitis (GPA) is an ANCA-associated systemic vasculitis that frequently presents with rhinosinusitis and may progress to multi-organ involvement. The aim of this study was to perform a comprehensive assessment of systemic damage in patients with GPA-associated rhinosinusitis using biochemical and immunological markers. A prospective cross-sectional study included 146 patients and 20 healthy controls. Serum levels of C-reactive protein, AST, ALT, urea, creatinine, total protein, glucose, and ANCA titers were measured and compared between groups. Active disease was associated with significantly elevated inflammatory and nitrogen metabolism markers, decreased total protein levels, and increased ANCA titers. Following treatment, these*

parameters tended to normalize. Combined evaluation of biochemical and serological markers provides valuable diagnostic information for assessing disease activity, early detection of systemic involvement, and improving clinical management.

Keywords: *granulomatosis with polyangiitis, rhinosinusitis, biochemical markers, C-reactive protein, urea, creatinine, ANCA, systemic involvement*

Antineytrofil sitoplazmatik antitanalar (ANCA) bilan bog‘liq tizimli vaskulitlar (TV) eng og‘ir, hayot uchun xavfli autoimmun kasalliklar sirasiga kiradi va amaliy revmatologiyaning eng muhim muammolaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ushbu kasalliklar guruhi, jumladan poliangiitli granulematoz (GPA), mikroskopik poliangiit (MPA) va poliangiitli eozinofilli granulematoz (EGPA), quyidagi xususiyatlarga ega: ANCAning asosiy patogenetik roli, asosan kichik kalibrli qon tomirlarining zararlanishi, buyraklarda tez rivojlanuvchi glomerulonefrit yuqori darajada kuzatilishi bilan bog‘liq morfologik o‘zgarishlarning umumiyligi, o‘z vaqtida to‘g‘ri davolanmasa ko‘p a’zolar shikastlanishi va o‘limga olib kelishi mumkinligi. Bu kasalliklar ANCAning epitopik o‘ziga xosligining o‘zgaruvchanligi va klinik ko‘rinishlarning xilma-xilligi bilan bog‘liq murakkab patogenetik mexanizmlar bilan tavsiflanadi. Amaliyotchi shifokorlarning keng doirasiga kam tanish bo‘lgan ANCA bilan bog‘liq TV ning kam uchraydi. Ularni tashxislash va bemorlarni davolashning murakkabligi ko‘pincha kech va noto‘g‘ri davolashga hamda kasallik oqibatining yomonlashishiga sabab bo‘ladi.

Usul va materiallar: Biokimyoviy markerlar tahlili TDTU ko‘p tarmoqli klinikasida kuzatuvda bo‘lgan poliangiitli granulematoz (PG) va rinosinusitli bemorlarda o‘tkazildi. Tadqiqot dizayni prospektiv-kesimiy bo‘lib, umumiy sxemaga muvofiq 1-guruh (26 bemor), 2-guruh (60 bemor), 3-guruh (60 bemor) va 20 sog‘lom shaxsdan iborat nazorat guruhini o‘z ichiga oldi. Ertalab och qoringa olingan venoz qon zardobida C-reaktiv oqsil, mochevina, kreatinin, umumiy oqsil, glyukoza, shuningdek AST va ALT darajalari standart biokimyoviy analizator yordamida o‘lchandi. ANCA titri immunoferment usulida baholandi. Olingan ko‘rsatkichlar kasallik bosqichi va tizimli shikastlanish darajasi bilan solishtirilib, statistik tahlil uchun parametrik va noproparametrik testlar qo‘llanildi. Tadqiqotga 18 yoshdan katta va yozma roziligi olingan bemorlar kiritildi, og‘ir yurak, jigar yoki endokrin kasalliklari bo‘lgan shaxslar istisno qilindi.

Olingan natijalar: ANCA bilan bog‘liq tizimli vaskulitlarning yana bir muhim xususiyati shundaki, klinik rinosinusit manzarasi ortida ko‘pincha ko‘p a’zolar zararlanishi yashirin holda kechadi. Biokimyoviy qon tahlili orqali yallig‘lanish faolligi, buyrak va jigar funksiyasi hamda metabolik siljishlar bir vaqtning o‘zida baholanishi mumkin. Quyidagi bo‘limda ushbu markerlar asosida tizimli shikastlanishning kompleks tahlili keltiriladi. Bu yondashuv kasallik og‘irligini baholash va davoni rejalashda katta yordam beradi.

1 jadval.

Bemorlar orasida tizimli shikastlanishning biokimyoviy taqqoslama analizi

	Nazorat guruhi	1 GURUH (n=26)	2 GURUH (n=60)	3 GURUH (n=60)
CRO	4.1±0.29	18.0±2.01*	30.4±2.65*,**	17.83±0.69*,***
ACT	17.4±1.18	34.5±1.5*	22.6±2.0*,**	24.84±1.04*,**
AJT	26.1±1.88	45.5±1.5*	65.5±1.72*,**	45.69±2.38*,***
mochevina	5.2±0.14	8.2±0.16*	12.0±0.15*,**	8.46±0.39*,***
kreatinin	58.0±0.14	67.4±2.08*	80.0±0.23*,**	68.47±1.69*,***
umumiy oqsil	65.0±1.69	58.0±1.5*	45.0±0.23*,**	64.62±0.58**,***
qondagi qand miqdori	4.4±0.17	6.0±0.61*	5.4±0.21*	4.97±0.09*,***


*Izoh: * - nazorat guruhiga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0.05, P < 0.01, P < 0.001, ** - 1 guruhga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0.05, P < 0.01, P < 0.001,, *** - 2 guruhga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0.05, P < 0.01, P < 0.001*

1 jadvalda nazorat va PG bemorlarining qon biokimyoviy ko‘rsatkichlari solishtirilgan. Ushbu ma’lumotlar kasallikning tizimli ta’sirini yanada chuqurroq aks ettiradi. Eng avvalo, yallig‘lanishning asosiy biokimyoviy markerlaridan biri – C-reaktiv oqsil (CRO) darajasidagi o‘zgarish diqqatga sazovordir. Nazorat guruhida CRO atigi 4,1±0,29 mg/L bo‘lsa, 1-guruh bemorlarda u 18,0±2,01 mg/L gacha oshgan, 2-guruhda esa 30,4±2,65 mg/L ni tashkil etgan (nazoratdan ~7 karra yuqori; p<0,001)[11]. Ushbu ko‘rsatkichlarning ishonchli oshishi PGdagi kuchli yallig‘lanish faolligini tasdiqlaydi. Ma’lumki, CRP jigar tomonidan sintezlanadigan akut faza oqsili bo‘lib, uning yuqori darajasi organizmdagi yallig‘lanish va to‘qima shikastlanishi ko‘lamini ko‘rsatadi[6]. GPA bilan og‘rigan bemorlarning ~90%ida kasallik aktiv bosqichida CRP me’yordan yuqori bo‘ladi[12] va CRP darajasi kasallik og‘irligi bilan bog‘liq bo‘lishi aniqlangan[3]. Bizning kuzatuvimizda 2-guruh (og‘ir, buyrak jalb etilgan holatlar)

CRP bo‘yicha eng yuqori qiymatga ega bo‘lib, 1-guruhdan ham sezilarli baland edi (30,4 ga nisbatan 18,0; p<0,01). 3-guruhda esa CRP 17,83±0,69 mg/L gacha pasaygan bo‘lib, bu muvaffaqiyatli davolash natijasida yallig‘lanish susayganini bildiradi[11]. Demak, CRP PGda kasallik faoliyatini baholash va davoga javobni kuzatishda muhim marker sifatida o‘z tasdig‘ini topmoqda[12][4].

Transaminazalar – **AST** va **ALT** – ko‘rsatkichlari ham jadvalda keltirilgan. 1-guruh bemorlarda AST darajasi 34,5±1,5 U/L ga ko‘tarilgan (nazorat: 17,4±1,18; p<0,05), ALT esa 45,5±1,5 U/L (nazorat: 26,1±1,88; p<0,05)[5][6]. 2-guruhda qiziqarli ravishda AST 22,6±2,0 gacha pasaygan (1-guruhdan past; p<0,01), ALT esa aksincha yanada oshib, 65,5±1,72 U/L ni tashkil etgan (1-guruhdan ham yuqori; p<0,01). 3-guruhda AST/ALT ko‘rsatkichlari yana nisbatan normallashib, mos ravishda 24,84±1,04 va 45,69±2,38 ga qaytgan[7][8]. Transaminazalar oshishining bir necha mumkin bo‘lgan sabablari bor: jigarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri shikastlovchi granulomatoz jarayon, dorilar ta’siri (masalan, uzoq muddatli yuqori doza kortikosteroid yoki immunosupressiv preparatlar jigar fermentlarini oshirishi mumkin) yoki og‘ir yallig‘lanish tufayli ikkilamchi o‘zgarishlar. Adabiyotlarda PGda jigar tutilishi kam uchrashi, ammo ayrim hollarda granulematoz gepatit kuzatilgani ta’kidlangan[9]. Shu bilan birga, AST/ALT ning mo‘‘tadil oshishi ko‘pincha dori ta’siridan dalolat beradi. Masalan, siklofosfamid, metotreksat kabi dorilar jigarga toksik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. 2-guruh bemorlarida ALTning 65 U/L gacha oshishi, ehtimol, og‘ir kasallikni davolash uchun ishlatilgan dori vositalari (masalan, yirik doza siklofosfamid) oqibatidadir. 1-guruhda ASTning balandroq bo‘lishi esa ehtimol infeksion asorat yoki boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Har holda, 3-guruhda transaminazalarning kamayib normallashuvi davolash natijasida jigar funksiyasi yaxshilanganini ko‘rsatadi. PGning LOR-shaklida transaminazalar odatda yuqori bo‘lmasligi kutiladi; bizning natijalar ularning oshishi asosan ikkilamchi omillar (davolash yoki yana boshqa qo‘shimcha patologiya) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Azot moddasi almashinuvini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar – **mochevina (karbamid)** va **kreatinin** – ham jadvalda keltirilgan. Nazorat guruhida karbamid 5,2±0,14 mmol/L va kreatinin 58,0±0,14 µmol/L bo‘lgan[10][11], bu sog‘lom odamlar uchun me’yoriy qiymatlar. 1-guruh bemorlarda karbamid 8,2±0,16 mmol/L gacha (p<0,05), kreatinin 67,4±2,08 µmol/L gacha oshgan (p<0,05). 2-guruhda esa bu ko‘rsatkichlar yanada yuqori: karbamid 12,0±0,15 mmol/L, kreatinin 80,0±0,23 µmol/L (nazoratga nisbatan ishonchli oshish, p<0,001) [2][13]. Bu o‘zgarishlar PGning 2-guruh bemorlarida buyrak filtrlash funksiyasi jiddiy zararlangan – ya’ni azotli chiqindi moddalar qonda to‘planib qolayotganini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, kreatinin darajasi glomerul filtratsiya tezligi pasayganining bilvosita ko‘rsatkichi bo‘lib, 2-guruhdagi oshish buyrak yetishmovchiligining boshlang‘ich belgisi bo‘lishi mumkin [4]. PGda og‘ir glomerulonefrit kechishi oqibatida bunday azotemiya rivojlanishi mumkin va bemor o‘z vaqtida davolanmasa, oxir-oqibat dializga muhtoj darajadagi buyrak yetishmovchiligiga olib kelishi xavfi bor[25]. Yaxshi tomoni, 3-guruh bemorlarda muvaffaqiyatli davolash tufayli karbamid (8,46±0,39) va kreatinin (68,47±1,69) darajasi pasayib, 1-guruhdagi kabi qiymatlarga qaytgan [5][6]. Bu buyrak funksiyasi tiklanganini anglatadi.



1 rasm. **rinosinusitli va poliangiitli granulematoz bemorlarning biokimyoviy thalili**

*Izoh: * - nazorat guruhiga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0.05, P < 0.01, P < 0.001, ** - 1 guruhga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0.05, P < 0.01, P < 0.001,, *** - 2 guruhga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0.05, P < 0.01, P < 0.001*

1 rasmda qon zardobidagi **umumiy oqsil** miqdori ham kasallik holatini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkichdir. Jadvalda nazorat guruhida umumiy oqsil 65,0±1,69 g/L ekani, 1-guruhda u biroz pasayib 58,0±1,5 g/L ($p<0,05$) ekani, 2-guruhda esa ancha past – atigi 45,0±0,23 g/L (nazoratdan ~30% kam; $p<0,001$) ekani ko‘rsatilgan [7]. Bu **gipoproteinemiya** xastalikning og‘ir kechayotganida yuzaga kelganini bildiradi. Sabablari: birinchidan, surunkali yallig‘lanish davrida albumin kabi oqsillar “salbiy akut faza” reaksiyasi sifatida sintezi kamayadi [8][9]; ikkinchidan, PGda buyrak shikastlanishi oqibatida oqsillarni buyrak orqali yo‘qotish (proteinuriya) kuzatiladi, bu ham qon umumiy oqsilini kamaytiradi [2]. Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, faol ANCA-vaskulitlarda gipoproteinemiya va xususan gipoalbuminemiya tez-tez uchrab, kasallik og‘irligini ko‘rsatadi; albumin darajasi past bo‘lishi esa yomon prognoz belgilari qatoriga kiradi [4][10]. Bizning 2-guruh bemorlarda ham juda past umumiy oqsil aynan kasallikning og‘ir kechgan davrida olingan. 3-guruhda esa bu ko‘rsatkich qayta 64,62±0,58 g/L ga ko‘tarilgan, ya’ni deyarli sog‘lomlar darajasiga yetgan [14]. Bu muvaffaqiyatli davolanish oqibatida yallig‘lanish susayib, buyraklar orqali oqsil yo‘qotilishi to‘xtaganini va jigarning oqsil ishlab chiqish faoliyati tiklanganini ko‘rsatadi.

Qand (glyukoza) miqdori jadvalda nisbatan barqaror ko‘rinadi. Nazoratda 4,4±0,17 mmol/L bo‘lsa, 1-guruhda 6,0±0,61 mmol/L gacha oshgan ($p<0,05$), 2-guruhda 5,4±0,21 ($p<0,05$), 3-guruhda 4,97±0,09 mmol/L (nazoratdan bir oz yuqori; $p<0,05$). 1-guruhdagi eng katta oshish (6,0 mmol/L) ehtimol stress holati yoki ilgari qabul qilingan glyukokortikoid terapiya ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin – ma’lumki, kortikosteroidlar qonda glyukoza darajasini oshiradi [6]. 2- va 3-guruhda qand me’yorga yaqinlashgan. Bu ko‘rsatkich PG diagnostikasida muhim rol o‘ynamaydi, biroq davolashdagi steroid yuklamasi samarasi sifatida kuzatilishi mumkin.

Umuman olganda, qon biokimyosi natijalari PGning tizimli xususiyatini tasdiqlaydi: yallig‘lanish markerlarining keskin oshishi (CRP), immun patologiyaga xos o‘zgarishlar (gipergammaglobulinemiyaga ishora qiluvchi oqsil kamayishi va boshqalar), buyrak funksiyasining yomonlashuvi (kreatinin, karbamid oshishi) va surunkali kasallikka xos metabolik siljishlar. Bu ko‘rsatkichlar to‘plami odatdagi surunkali rinosinusitda kuzatilmaydi. Shunday ekan, rinosinusitdan tashqari umumiy qon va biokimyoviy tahlillarda bu kabi og‘ishlarning aniqlanishi shifokorga vaskulitni taxmin qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi lozim [6][13].

Xulosa qilib, PG bemorlarining biokimyoviy ko‘rsatkichlari yallig‘lanish faolligi va tizimli shikastlanishni aks ettirib, boshqa LOR kasalliklardan farqlashda muhim diagnostik ahamiyat kasb etadi.

2 jadval.

Antineytrofil sitoplazmatik antitela (ANCA) tahlili


	Nazorat guruh	1 GURUH	2 GURUH	3 GURUH
ANCA	0.3±0.04	2.9±0.18*	7.8±0.3*,**	0.44±0.03*,**,***

*Izoh: * - nazorat guruhiga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0.05, P < 0.01, P < 0.001, ** - 1 guruhga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0.05, P < 0.01, P < 0.001,, *** - 2 guruhga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0.05, P < 0.01, P < 0.001*

2 jadvalda PG bemorlarining qonda ANCA (antineytrofil sitoplazmatik antitana) darajalari keltirilgan. ANCA – GPA uchun xos serologik marker bo‘lib, neytrofillarning sitoplazmasiga qarshi autoantitanalardir [1]. Klinik amaliyotda ANCA testining ijobiy chiqishi Wegener granulomatozi tashxisini qo‘llab-quvvatlovchi muhim omil hisoblanadi. Bizning natijalarda nazorat guruhidagi ANCA darajasi 0,3±0,04 birlikni tashkil etib, sog‘lom odamlarda deyarli nolga yaqin bo‘lganini ko‘rsatadi. 1-guruh bemorlarda ANCA ancha oshgan – 2,9±0,18 birlik (nazoratga nisbatan sezilarli; $p<0,05$), 2-guruhda esa juda yuqori – 7,8±0,3 birlikka yetgan (1-guruhdan ham 2,7 baravar baland; $p<0,01$). 3-guruh bemorlarda ANCA 0,44±0,03 gacha pasaygan bo‘lib, nazoratdagiga yaqinlashgan (2-guruhga nisbatan keskin kamayish; $p<0,001$). Ushbu ko‘rsatkichlar PGdagi ANCA darajasi kasallik faolligi va tarqalganlik darajasiga chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, ilmiy adabiyotlarda faol, tizimli GPA holatlarida (buyraklar va boshqa organlar zararlangan) bemorlarning ~90%ida ANCA testi ijobiy chiqishi, LOR bilan cheklangan cheklangan formalarida esa atigi ~60% holatda ANCA aniqlanishi ta’kidlanadi. Bizning tadqiqotda 2-guruh (tizimli PG) barcha bemorlarida ANCA darajasi yuqori bo‘lib, 1-guruh (faqat LOR-tutulgan) bemorlarida ham ko‘pchiligining ANCA si ijobiy chiqqan (o‘rtacha 2,9 birlik). Bu shuni ko‘rsatadiki, hatto faqat LOR simptomlari bilan kechayotgan GPAda ham ANCA ma’lum qism bemorlarda aniqlanadi – xususan, bizda 1-guruh o‘rtacha darajasi nazoratdan ancha baland bo‘ldi. Bu topilma diagnostik jihatdan muhim: rinosinusitlar surunkali kechib, birga sistem belgilar bo‘lmasa ham, agar ANCA musbat bo‘lsa, GPA ehtimoli jiddiy ko‘rib chiqilishi lozim.

ANCA antitanalarning turi ham diagnostik axamiyat kasb etadi. Granulematoz poliangiitda

odatda **c-ANCA** deb ataluvchi, neytrofillar sitoplazmasidagi proteinaza-3 (PR3) fermentiga qarshi antitana aniqlanadi. Kamroq hollarda **p-ANCA** (mieloperoksidaza – MPO ga qarshi) uchrashi mumkin, ammo bu ko‘proq mikroskopik poliangiit yoki Churg-Strauss (EGPA) vaskuliti uchun xosdir. Johns Hopkins ma’lumotlariga ko‘ra, faol GPA bemorlarining 80% gacha qismida aynan C-ANCA (PR3-ANCA) testi ijobiy chiqadi. Bizning holatda ishlatilgan usul aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ANCA darajasi miqdoriy o‘lchangan (M±SD). Ehtimol, bu PR3-ANCA ning IFA usulida titri bo‘lishi mumkin. 2-guruh bemorlarida o‘ta yuqori ANCA titri kuzatilishi, ularning aksarida faol PR3-ANCA borligini ko‘rsatadi. 3-guruhda esa ANCA ning keskin pasayishi – 0,44 gacha – kasallik klinik remissiyaga kirganida ANCA titri ham kamayishini tasdiqlaydi. Haqiqatan ham, davoga javoban ANCA pasayishi kuzatilishi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan va u kasallik nazoratga olinganini ko‘rsatuvchi ijobiy belgi sifatida qaraladi. Biroq, shuni ham unutmaslik kerakki, remissiyada ham ba’zan ANCA qoldiq titri saqlanishi yoki aksincha, yakkam-dukkam hollarda kasallik faol bo‘lsa-da ANCA manfiy bo‘lishi mumkin [14]. Shu bois ANCA tahlili diagnostika va faoliyat bahosida juda foydali bo‘lsa-da, klinik manzara bilan birgalikda talqin etilishi lozim.



2 rasm. **antineytrofil sitoplazmatik antitela (ANCA) tahlili**

2 rasmdagi ANCA natijalari bizning uch guruh bemorlar profilini ham tasdiqlaydi: 1-guruh – kasallik cheklangan shakli (ANCA o‘rtacha darajasi mo‘tadil), 2-guruh – tizimli og‘ir shakli (ANCA juda yuqori), 3-guruh – davolangan, remissiyadagi bemorlar (ANCA deyarli yo‘q). Bu PG patogenezining serologik ko‘rinishi hisoblanadi. ANCA mavjudligi, ayniqsa, yuqori titrda aniqlanishi GPAni boshqa kasalliklardan farqlashda juda muhimdir – masalan, oddiy surunkali rinosinusitda yoki allergik rinitda hech qachon ANCA paydo bo‘lmaydi. Shuning uchun, LOR a’zolarining surunkali yallig‘lanish kasalliklarida ANCA tahlilini o‘tkazish erta tashxis qo‘yish imkonini oshiradi.

Xulosa. PGda ANCA darajasi kasallik faolligi bilan korrelyatsiyada ekanini ko‘rsatadi: ANCA – PGning “imzo” belgisi bo‘lib, uning ijobiyligi va titri yuqoriligi kasallikni tasdiqlash va boshqa LOR patologiyalaridan farqlashda katta diagnostik ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Hunter RW, Welsh N, Farrah TE, Gallacher PJ. ANCA-associated vasculitis. BMJ. 2020;369:m 1070.
2. King C, Harper L. Small vessel vasculitides: an update. Autoimmun Rev. 2024;23(8):103429.
3. Delvino P, La Rocca G, et al. Systemic vasculitis: one year in review 2025. Clin Exp Rheumatol. 2025;43(Suppl.).
4. Watts RA, Hatemi G, Burns JC, et al. Global epidemiology of vasculitis. Nat Rev Rheumatol. 2022; 18:155–172.
5. Hellmich B, Sanchez-Alamo B, Schirmer JH, et al. EULAR recommendations for the management of ANCA-associated vasculitis: 2022 update. Ann Rheum Dis. 2024;83(1):30–47.
6. KDIGO ANCA Vasculitis Work Group. KDIGO 2024 clinical practice guideline for the management of ANCA-associated vasculitis. Kidney Int. 2024;105(3S):S71–S116.

7. Horai Y, Fujimoto S, Amano K, et al. Current diagnosis and treatment of anti-neutrophil cytoplasmic antibody-associated vasculitis. J Clin Med. 2025 ;14(5):1724.

8. Geetha D, Dua A, Yue H, et al. Efficacy and safety of avacopan in patients with ANCA-associated vasculitis receiving rituximab in a randomized trial. Ann Rheum Dis. 2024;83(2):223–232.

9. Jayne DRW, Merkel PA, Schall TJ, Bekker P; ADVOCATE Study Group. Avacopan for the treatment of ANCA-associated vasculitis. N Engl J Med. 2021; 384:599–609.

10. Puéchal X. Update on targeted treatments for ANCA-associated vasculitis. Joint Bone Spine. 2025;92(3):105458.

11. Garlapati P, Li J. Granulomatosis with Polyangiitis. StatPearls [Internet]. StatPearls Publishing; 2024.

12. Potentas-Policewicz M, Fijolek J. Granulomatosis with polyangiitis: clinical characteristics and outcome of patients treated in a tertiary referral centre. Front Med (Lausanne). 2024;11.

13. Wadström K, Börjesson O, Moshtaghi-Svensson J, et al. Incidence and prevalence of granulomatosis with polyangiitis in Sweden, 2006–2019: a register-based study. Semin Arthritis Rheum. 2025.

14. Alberici F, Fredi M, Tomelleri A, et al. Treatment goals in ANCA-associated vasculitis: defining remission and beyond. Front Immunol. 2024; 15:1409129.

ИММУНОГИСТОХИМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ВОСПАЛИТЕЛЬНОЙ И РЕГЕНЕРАТОРНОЙ РЕАКЦИИ ПРИДАТКА ЯИЧКА ПРИ РАЗЛИЧНЫХ МЕТОДАХ МЕСТНОЙ АНЕСТЕЗИИ

Хасанова Дилноза Ахроровна – д.м.н., профессор
Кодиров Мироншох Дилшодович –соискатель
Бухарский государственный медицинский институт (Бухара, Узбекистан)

Аннотация. *Проведено экспериментальное исследование иммуногистохимических изменений ткани придатка яичка при различных методах местной анестезии с использованием лидокаина и новокаина. Оценка проводилась на модели белых беспородных крыс с применением маркеров воспалительной реакции (CD45) и регенераторного потенциала (CD56). Установлено, что интратестикулярное введение анестетиков сопровождается выраженной активацией воспалительных процессов, увеличением доли CD45-позитивных клеток и снижением регенераторной активности ткани. Наиболее выраженные иммуновоспалительные изменения выявлены при интратестикулярном введении новокаина. Проводниковая анестезия характеризовалась значительно меньшей экспрессией CD45 и относительным сохранением CD56-позитивных клеток, особенно при использовании лидокаина. Комбинированный метод анестезии (проводниковый лидокаин + микродоза интратестикулярного новокаина) обеспечивал снижение воспалительной реакции при сохранении регенераторного потенциала ткани. Полученные данные свидетельствуют о том, что метод введения анестетика является ключевым фактором, определяющим иммуноморфологическую реакцию придатка яичка, и обосновывают целесообразность применения щадящих комбинированных протоколов при вмешательствах на органах мошонки.*

Ключевые слова: *придаток яичка, местная анестезия, лидокаин, новокаин, иммуногистохимия, CD45, CD56, воспаление, регенерация.*

ТУРЛИ ХИЛ МАҲАЛЛИЙ АНЕСТЕЗИЯ УСУЛЛАРИДА МОЯК ОРТИҒИНИНГ ЯЛЛИҒЛАНИШ ВА РЕГЕНЕРАТОР РЕАКЦИЯСИ ИММУНОГИСТОКИМЁВИЙ БАҲОЛАШ

Ҳасанова Дилноза Аҳроровна – т.ф.д., профессор
Қодиров Мироншоҳ Дилшодович – мустақил изланувчи
Бухоро давлат тиббиёт институти (Бухоро, Ўзбекистон)

